

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **TEXNOLOGIYA TA'LIMI**

**Texnologik va kasb ta'limi didaktikasi**

**MODULI BO'YICHA**

# **O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** O.A.Qo'ysinov-Nizomiy nomidagi TDPU "Texnologiya ta'limi" kafedrasida dotsenti., p.f.d., dotsent, A.B.To'rayev-katta o'qituvchi.

**Taqrizchilar:** Z.Ismoilova – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.  
O'.Q.Tolipov - Nizomiy nomidagi TDPU "Texnologiya ta'limi" kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor.

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>19</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>114</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>134</b>
<b>VI. FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>142</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, Texnologiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

"Texnologiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash" modulining **maqsadi:** oliy ta'lim muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida o'quv mashg'ulotlarni innovatsion, texnologik, aksiologik, akmeologik, kreativ, modulli-kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazishga oid yangi bilimlar, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

Uzluksiz ta'lim bosqichlarida texnologik ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizligini ta'minlash muammolarini aniqlash;

Texnologik ta'lim fanlarini kredit modul tizimida o'qitishni tashkil etish;

Texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligini oshirish;

O'quv mashg'ulotlarini interfaol ta'lim metodlar (o'quv loyihasi, keys-stadi, SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalar)ni ta'lim jarayoniga qo'llash metodikasini o'rganish;



Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasini aniqlash va ishlab chiqish;

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash metodikasini o'rganish;

Oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish;

Texnologik ta'limni tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish metodikasini o'rganish;

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish.

Texnologiya ta'limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob'ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq). Ta'lim jarayoniga metod, vosita va shakllarni joriy etish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **Tinglovchi:**

- texnologik ta'lim sohasining uzluksiz ta'lim tizimidagi uzviyligining ahamiyatini;
- texnologik ta'limning predmeti va vazifalarini;
- texnologik ta'limning dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlarini;
- texnologik va kasb ta'limida asosiy didaktik kategoriyalari, qonuniyatlari va prinsiplarini *bilishi* kerak.

#### **Tinglovchi:**

- texnologik va kasb ta'limida o'quv-ishlab chiqarish ta'limi bilan hamkorligini ta'minlash;
- texnologik va kasb ta'limi jarayonida predmetlararo aloqadorligini (STEAM-ta'limi) ta'minlash;
- texnologik va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- uzluksiz ta'lim turlariaro texnologik ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;
- texnologik ta'lim fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar asosida kredit modul tizimini tashkil etish;
- texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;



- interfaol ta'lim metodlari, o'quv loyihasi, keys-stadi ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
- SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash monitoringini yuritish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

**Tinglovchi:**

- texnologik ta'limning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash (STEAM-ta'limining amaliy tadbiriq etilganligi. Moddiy-texnik bazani rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari);
  - O'zbekistonda texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammolariga oid ilmiy-tadqiqotlarni tahlil qilish;
  - texnologiya fani o'qituvchiga qo'yiladigan kvalifikatsion talablar (shaxsiy va kasbiy; kreativligi va kompetentligi, texnologik ta'limni rivojlantirishga oid ilg'or xorijiy tajribalar) qiyosiy tahlil qilish;
  - oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish;
    - texnologik ta'limni tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish;
    - ta'lim jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish;
- texnologiya ta'limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob'ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq) *kompetensiyasiga* ega bo'lishi lozim..

**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Texnologiya ta'limi” yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlar nazariy va amaliy shakllarda olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida o'qitishning innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol ta'lim metodlari qo'llanilishi nazarda tutilgan: ya'ni,

- nazariy mashg'ulotlarda taqdimotlar, mavzuga oid filmlar hamda kompyuter texnologiyalarini joriy etish;
- amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa



interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

**Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Texnologiya fanini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalash” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Texnologiya ta'limini rivojlantirish strategiyalari” va “Texnologik va kasb ta'limi didaktikasi” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislari orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

**Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalari texnologiya ta'limi yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida o'quv mashg'ulotlarni innovatsion, texnologik, aksiologik, akmeologik, kreativ, modulli-kompetentli yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazish metodikasiga ega bo'ladilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining predmeti va vazifalari. Texnologik va kasb ta'limida asosiy didaktik kategoriyalari, qonuniyatlari va prinsiplari.	6	2	4



2.	Texnologik va kasb ta'limining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari. Texnologik va kasb ta'limi mazmuni	6	2	4
3.	Texnologik va kasb ta'limini tashkil etishga didaktik yondashuvlar	4	2	2
4.	Texnologik va kasb ta'limida o'quv-ishlab chiqarish ta'limining o'rni	6	2	4
5.	Texnologik va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish	4	2	2
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

### NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

**1-Mavzu: Uzlüksiz ta'lim bosqichlarida texnologik ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizligini ta'minlash muammolari.**

Uzviylikni ta'minlash pedagogik muammo sifatida. Uzviylikni ta'minlashning psixologik-pedagogik asoslari

**2-mavzu. Texnologik ta'lim fanlarini kredit modul tizimida o'qitishni tashkil etish. Kredit-modul tizimi tamoyillari, turlari, tarkibiy qismlari**

Kredit tizimi. YeSTS kreditlari: xususiyatlari va tamoyillari. Kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari.

**3-mavzu. Texnologik ta'limga oid maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligi va novatorligi.**

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik muhim sifatlari. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tizimi. Professional o'qituvchi shaxsi. maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning boshqaruv mahorati, texnikasi va uslublari

**4 - Mavzu: O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim shakllari, vositalarining roli va ulardan foydalanish metodikasi**

O'quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo'nalishlari, tiplari, funksiyalari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim shakllari. Texnologik ta'limga oid fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim vositalarining roli





## AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

**1-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish va tashkillashtirish (2 soat).**

Shaxsiy va kasbiy sifatlar va ularning qiyosiy nisbatini. "Kreativlik" tushunchasining tavsiflanishini. "Kompetentlik" va "Kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mazmun - mohiyati.

**2-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Interfaol ta'lim metodlari: o'quv loyihasi, keys-stadi SMART-education, algoritmik xarita, Keyzen kabi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish metodikasi (4 soat).**

Interfaol ta'lim metodlari: o'quv loyihasi, keys-stadi SMART-education, algoritmik xarita.

**3-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Ta'lim jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish (2 soat)**

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning xususiyatlarini o'rganish: kuzatish, diagnostik suhbatlar, kasbga moslashish, professiografiya kabi tushunchalarni amaliyotga joriy etish.

**4-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Texnologiya ta'limida AKTdan foydalanish metodikasi (real ob'ektlar, multimedia, elektron darslik va boshq). Ta'lim jarayoniga metod, vosita va shakllarni joriy etish (2 soat)**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida internet tarmog'idan axborotlarni izlash, tahlil qilish asosida ularda kreativ qobiliyatni shakllantirishga oid ko'nikmalarini rivojlantirish

**5-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Texnologik ta'limni tashxis qilish, korreksiyalash va prognoz qilish metodikasi (2 soat)**

Texnologiya ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan tinglovchilarning "Kasb tanlash motivini aniqlash", "O'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash" va "Kasb tanlashda tipik xatoliklar" bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat

**6-amaliy mashg'ulot: Mavzu: Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash monitoringi (2 soat)**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilarida mehnat ta'limini tashxis qilish, korreksiyalash va bashoratlash metodikasiga oid ko'nikmalarini rivojlantirish



## O'QITISH SHAKLLARI


Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI "SWOT-tahlil" metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Muammoli ta'lim yondashuvlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Muammoli ta'lim yondashuvlarining kuchli tomonlari	
W	Muammoli ta'lim yondashuvlarining kuchsiz tomonlari	
O	Muammoli ta'lim yondashuvlarining imkoniyatlari (ichki)	
T	Muammoli ta'lim yondashuvlarini amalda qo'llashdagi to'siqlar (tashqi)	

### “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

### “Keys-stadi metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish.</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash.</li> </ul>
<b>2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>
<b>3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash.</li> </ul>
<b>4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat e chimining amaliy aspektlarini yoritish.</li> </ul>

### “Keys-stadi” metodining o‘ziga xos xususiyatlari

- izlanishga doir faoliyatning mavjud bo‘lishi;
- jamoaviy va guruhlarda o‘qitish;
- individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integrasiyasi;



- xilma-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish;
- muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish.

**“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ta'lim oluvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** 1. “Harakatlanuvchi sodda qurilmalar (monipulyator, robotlar)”.

2. “Ro'zg'orshunoslik”.

3. “Elektronika” tushunchalarini berilgan jadval asosida tahlil qiling.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot

**“Venn diagrammasi” metodi**

Venn diagrammasi – grafik ko'rinishda bo'lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetlarni (ko'rinish, fakt, tushuncha) taqqoslash, tahlil qilish va o'rganishda qo'llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt



orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar; juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

#### **“Muammoli ta'lim” metodi**

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish;
- qo'yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materiallarini o'rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish;
- muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o'quv vazifalarini qo'yish.

Yuqoridagi bosqichlar asosida o'quv materiali tushuntirilganda o'quvchilar o'zlari darrov tushunib etmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar. Natijada o'rganilayotgan mavzu materiali bilan o'quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchilarning faol fikrlashning psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish muammoli ta'limning asosiy g'oyasini belgilab beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o'rganilayotgan mavzu materiali bilan o'quvchilar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiriladi, o'quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o'quvchilar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar.

#### **“Agar men ...” metodi**

Bu metod orqali o'quvchilardan ma'lum bir kasb kishisi sifatida shu sohaga oid muammolarni qanday bartaraf etishi mumkinligi haqida o'z fikrlarini bildirishlarini so'raladi. Masalan, “Agar men avtokonstruktor bo'lganimda ... mashinani yaratgan bo'lar edim” (Agar men avtokonstruktor bo'lganimda tog'larda ham yura oladigan mashinani yaratar edim. Buning uchun mashinaga



vertolyotni harakatlantiradigan tizimni qo'llar edim). “Agar men aviakonstruktor bo'lganimda ... samolyotni yaratar edim” va h.k.

Bu metodning eng afzal tomoni shundaki, bunda o'quvchilarning hayolot (fantaziya), taqqoslash, tasavvur qilish qobiliyatlari tez rivojlanadi.

### **“Insert” metodi**

Insert – bu o'quv jarayonida o'zini anglashni faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u erda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir.


Insert – bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab-quvvatlash uchun kuchli vositadir.

### **“SAN” (uchlik – samarali, ahloqiy, nazokatli) metodi**

SAN metodining maqsadi – o'quvchi (yoki tinglovchi)larda yakka, jamoaviy guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik ko'nikmalarini, ishga mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantirish, bezash ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.


O'quvchi (yoki tinglovchi)lar dars mavzusiga oid topshiriq mazmunidan kelib chiqqan guruhlarga bo'linadilar va ularga guruh nomlari beriladi. Topshiriq mazmuni va ketma-ketligi tushuntiriladi.





Guruhning joylashuvi	
Aylana bo‘ylab savollar	
Katta aylana (aylana atrofida stullar). Katta aylana (kamroq tayyorgarlik ko‘rganlar). Kichik aylana (ko‘proq tayyorgarlik ko‘rganlar).	
Guruhlarda ishlash, archa shaklidagi partalar	
“Jonli chiziqcha” Ekspertlar	
Debatlar	





### Ta'lim metodlarini samarali qo'llash mezonlari

Metodlar	Qaysi vazifalarni echishda bu metod samaraliroq?	Qanday o'quv materiali mazmuni uchun bu metod qulay?	O'quvchilarning qanday xususiyatlari uchun bu metodni qo'llash foydali?	Bu metodni qo'llash uchun o'qituvchi qanday hislatlarga ega bo'lishi kerak?
<b>Og'zaki bayon metodi</b>	Nazariy bilimlarni shakllantirish uchun	O'quv materiali asosan nazariy va axborot ko'rinishida bo'lgan holda	O'quvchilar o'quv materialining og'zaki bayonini o'zlashtirishga tayyor bo'lganda	O'qituvchi bu metodni boshqa metodlardan ko'ra yaxshiroq egallagan holatda
<b>Ko'rgazmali metod</b>	O'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish va o'rganiladigan masalalarga bo'lgan diqqatni oshirish uchun	O'quv materiali mazmunini ko'zga zimlilik vositalar bilan gavdalantirish mumkin bo'lgan holatlarda	O'quvchilar uchun ko'rgazmali vositalar yetarli bo'lganda	O'qituvchi qo'l ostida barcha ko'rgazmali vositalar etarli bo'lganda yoki ularni o'zi mustaqil tayyorlay olganida
<b>Reproduktiv (o'zlashtirilgan bilimlarni qayta bayon qilish)</b>	Bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun	O'quv materiali mazmuni yoki o'ta murakkab yoki juda sodda bo'lgan holda	O'quvchilar bu mavzuni muammoli qilib o'rganishga hali tayyor emas	O'qituvchining bu mavzuni muammoli qilib o'rganishga vaqti yo'q bo'lgan holda
<b>Tadqiqot izlanish</b>	Mustaqil fikrlash, tadqiqot olib borish va masalaga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali mazmuni o'rtacha murakkablikda bo'lganda	O'quvchilar mazkur mavzuni muammoli tarzda o'rganishga tayyor bo'lgan hollarda	O'qituvchi izlanish metodini yaxshi egallagan va mavzuni muammoli o'rganish uchun yetarli vaqtga ega bo'lganda



<b>Amaliy</b>	Amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun	O'quv materiali mazmuni amaliy mashqlar, tajriba o'tkazish va turli amaliy faoliyatli topshiriqlarni bajarishni talab qilsa	O'quvchilar mazkur mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lsa	O'qituvchi amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yetarlicha o'quv va didaktik materiallar, mashqlar to'plami va o'quv qo'llanmalariga ega bo'lsa
<b>Mustaqil ishlash metodlari</b>	O'quv faoliyatida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish uchun	O'quv materiali mustaqil o'rganish uchun imkoniyatini bersa	O'quvchilar mazkur mavzu bo'yicha mustaqil ishlashga tayyor bo'lsa	O'qituvchi mustaqil ishlarni tashkil qilish bo'yicha etarlicha o'quv va didaktik materiallar ega bo'lsa
<b>Induktiv</b>	Umumlashtirish va induktiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali darslikda induktiv tarzda berilgan yoki uni induktiv tarzda bayon qilish samarali bo'lgan holda	O'quvchilar induktiv xulosa chiqarishni yaxshi bilib, deduktiv xulosa chiqarishga qiynalayotgan bo'lsalar	O'qituvchi ta'limning induktiv metodlaridan yaxshi xabardor bo'lsa
<b>Deduktiv</b>	Tahlil qilish va deduktiv xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun	O'quv materiali darslikda deduktiv tarzda berilgva yoki uni deduktiv tarzda bayon qilish samarali bo'lgan holda	O'quvchilar deduktiv fikr yuritish va xulosa chiqarishga tayyor bo'lsalar	O'qituvchi ta'limning deduktiv metodlaridan yaxshi xabardor bo'lsa



### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### **1-Mavzu: Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining predmeti va vazifalari. Texnologik va kasb ta'limida asosiy didaktik kategoriyalari, qonuniyatlari va prinsiplari.**

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida texnologik va kasb ta'limini rivojlanish tarixi.
2. Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining maqsadi, predmeti va vazifalari.
3. Texnologik va kasb ta'limining asosiy didaktik kategoriyalari, qonuniyatlari va prinsiplari.

**1. O'zbekiston Respublikasida texnologik va kasb ta'limini rivojlanish tarixi.** Hozirgi zamon texnologiya va kasb ta'limi tizimi faqatgina XX asr oxiri ilmiy-pedagogik tafakkurining natijasigina bo'lmay, balki uning poydevori insoniyat jamiyatining uzoq tarixi davomida to'plangan tajribasiga hamda olimlar, mutafakkirlar, pedagoglar ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mutaxassislarning mehnatlariga asoslangan. Markaziy Osiyoda, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida texnologiya va kasb ta'limining tub asoslari bundan uch ming yil avval Avestoda bayon etilgan desak xato qilmaymiz. Lekin bu boradagi tajribalar bizda etarli darajada o'rganilmagan. Shu bois, bugun butun dunyo, xususan Sharq xalqlarining tarixiy merosini zamonaviy texnologiya va kasb ta'limi mazmuni va tuzilmasiga singdirilishini davr o'zi taqozo etmoqda.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yoshlarning texnologiya va kasb ta'limi va tarbiyasiga katta ahamiyat berib, kasb-hunar o'rganishni jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotga erishishning asosiy vositasi deb bilganlar.

Buyuk ajdodlarimiz aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya kasb-hunar sir-sinoatlarini egallashning asosiy omili deb talqin etganlar. Ular uchun inson timsoli kamolotga etgan, ilmli yoki kasb-hunarga ega ijobiy fazilatlar sohibi bo'lgan. Misol uchun Kaykovus o'z farzandiga qarata:

“Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf etkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo'lsa, ammo hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar zevari bo'lmasa, undan battarroqdur. Jahd qilg'il, agar gavharing har nechakim asl bo'lsa, unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim tan gavhari hunar zevari bila muayyan bo'lmasa, u hech narsaga arzimagusidur.

Andoqkim debdurlar: “Ulug'lik aql va donishlik birladur, gavhar va nasab birla bo'lmas”.



Otni ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'lmag'il, nedinkim, ul otmazhi bir nishondin o'zga narsa emasdur. Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il. O'zingni "Jafar", "Muhammad", "ustod", "xo'ja", "fozil" oti bila atab, ammo unga loyiq bo'lmasang, u ot ermasdur. Agar kishida nasab gavhari bo'lsa, ammo hunar zevari bo'lmasa, u hech kishining suhbatiga loyiq bo'lmag'usidur. Garchi bu ikki gavhar hosil qilg'on kishi topsang, etagini mahkam tutg'il va undin ilkingni chekmag'il, bilki u barcha kishilarning mushkulini oson qilg'ay.

Barcha hunardin so'z hunari yaxshiroqdur, nedinkim,... hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardin odam o'n daraja ziyodadur va bu o'n daraja odamning badanida hamisha bordur. Beshi tashida zohirdur, beshi ichida pinhondur. Ul pinhon narsalar: biri, bir narsani yod olmoq; biri, hamisha esda saqlamoq, biri taxayyul (xayolga keltirmoq); biri tahavvur (g'azab va shiddat bilan hujum etish); biri takallum (so'zlash). Ammo ul beshtakim tashida zohirdur: bu zavq, yani eshitmoq, ko'rmoq, hid bilmoq, totmoq, siypalamoq, yani sezuv “.

Ajdodlarimizning barkamol shaxs haqidagi g'oyalari mohiyatini anglash uchun Abu Nasr Forobiy tomonidan hozirgi paytda komil inson deb yuritilayotgan fozil odamning o'n ikki muhim fazilati yoki Alisher Navoiyning Farhod obrazi orqali talqin etilgan:


“Hunarni asrabon netkumdir oxir,  
Olib tuproqqamu ketgumdir oxir”.

Fikrlarini tahlil etishning o'zi kifoya. Ular ma'naviy barkamollikka inson o'z mehnati bilangina erishishi mumkinligini baralla kuylaganlar, mehnat va kasb-hunarni inson hayoti va baxtining asosi deb bilganlar.

Ibn Sino ilmu amalning birligi, ya'ni nazariya bilan amaliyotni uzviy bog'lash, dual ta'lim g'oyasini ilgari surgan.

Tarixiylik va tizimli tahlil prinsipi respublikamiz texnologiya va kasb ta'limining butun rivojlanish yo'liga yangicha nazar tashlashni talab etadi. Bu holat o'z navbatida ushbu ta'limning rivojlanish yo'li va turli bosqichlarini tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil etib, qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Respublikamizda texnologiya va kasb ta'limi tizimida miqdor ko'rsatkichlari va tashkiliy shakllaridagi o'zgarishlar dinamikasining tahlili bizga shartli ravishda tabiatiga ko'ra texnologiya va kasb ta'limi tizimining farqlanuvchi quyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi.



Tarixiy manbalarni o'rganish bizga o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab respublikamizda kasb-hunarga o'qitish bo'yicha maxsus kurs va maktablar tashkil etila boshlanganligidan darak berib, ularda ma'lum ma'noda tugallangan yaxlit bilimlar berishni emas, balki bitiruvchilar aniq bir ish o'rinlarida kasbiy faoliyat ko'rsatish uchungina zarur bo'lgan tor doiradagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Dastlab barcha yirik korxonalar qoshida fabrika-zavod o'quvchilari (FZU) kurslari va sanoat-texnika o'quv yurtlari tashkil etila boshladi, ularda maxsus o'quv predmetlari bilan bir qatorda umumta'lim o'quv predmetlari o'qitilgan. O'sha davrda korxonalarining texnik jihozlanishi past darajada bo'lganligi bois o'quv yurtlarining ham jihozlari ularga mos ma'lum ma'noda chegaralangan darajada edi. Respublikamizda katta sanoat korxonalari mavjud bo'lmaganligi sababli XX asrning 30-yillarigacha texnikumlar, zavod fabrika o'quv kurslari, hunar texnika maktablari, o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari va turlicha hunar-texnika bilim yurtlari muntazam ko'paya bordi. Lekin kasb -hunar ta'limiga ajratilgan davlat byudjetining miqdori yaxlit holda etarli darajada bo'lmaganligi sababli tahsil oluvchilarni ovqatlantirish va kiyim-kechak bilan ta'minlash darajasi past edi. Shuningdek, o'quvchilarning turar joyi masalasi ham asosiy muammolardan biri bo'lib, texnologiya va kasb ta'limi xodimlariga juda kam ish haqi to'lanar edi. Shu bois 1930 yillardan boshlab bunday o'quv yurtlari tarmog'i kamaya boshladi. 1938 yilga kelib 1932-1933 o'quv yiliga nisbatan o'quv yurtlari va ularda o'qiydigan tahsil oluvchilar soni uch barobar kamaygan.

1930 yillarning oxiri 40-yillarning boshlarida respublikada sanoat korxonalari tashkil etila boshladi. Tarixiy manbalar tahlili 1940 yilda O'zbekistonda, 1445 ta yirik sanoat korxonalari mavjud bo'lganligiga guvohlik beradi. Bu sanoat korxonalarida zamonaviy texnika va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining amalga joriy etilishi ommaviy ravishda texnik jihatdan savodxon ishchi kadrlar tayyorlash zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Ana shunday malakali kadrlar tayyorlash vazifasi 1940 yilda tashkil etilgan davlat mehnat zahirolari tizimiga yuklatildi. Davlat mehnat zahirolari tizimi asosan quyidagi uch turdagi: hunarmandchilik o'quv yurtlari, temir yo'l o'quv yurtlari va fabrika-zavod o'quvchilar maktablarini o'ziga qamrab oldi. Shunday qilib, yana ishchi



mutaxassis kadrlar tayyorlashga diqqat e'tibor kuchaytirildi. Lekin 1941 yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi texnologiya va kasb ta'limi tizimiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadi. Mamlakatdagi urush holati barcha ishchilarni frontga safarbar etish bilan bir vaqtda sanoatni to'liq harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarishga o'tkazishni talab etdi. Shu bois nisbatan qisqa vaqtda yoshlardan ishchi mutaxassislar tayyorlashga talab ortdi. Shuning uchun yangi o'quv yurtlari tashkil etish bilan bir qatorda, vaqtinchalik fabrika- zavod o'quvchilar maktablari tashkil etildi. Mamlakatning g'arbidan mamlakatning ichkarisiga ko'chirib olib ketish, ya'ni evakuatsiya qilingan o'quv yurtlari qisqa muddatlarda qayta tiklanib ishga tushirildi. Natijada faqat urush yillarining o'zida respublikamiz mehnat zahiralari tizimida 70 mingga yaqin malakali ishchilar tayyorlanib, ulardan 30 mingi shu erlarda qoldirilib, qolganlari mamlakatning boshqa rayonlariga jo'natildi. Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini tiklash uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqishga kirishildi. Demak, bu davrda mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish sharoitida mehnat qiluvchi murakkab kasb sohibi bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati kelib chiqdi.

1960-1980-yillar texnologiya va kasb ta'limining evalyusion rivojlanish davrida kasb-hunar o'quv yurtlari tarmog'i bevosita va nisbatan barqaror ortib bordi. Bu davrning asosiy o'ziga xos xususiyatlari quyidagi 1-jadvalda o'z ifodasini topgan.

1-jadval

Yillar	O'quv muassasalarining soni	Tahsil oluvchilar soni (ming kishi hisobida)	Qabul qilingan tahsil oluvchilar (ming kishi)	Tayyorlangan (bitirgan) malakali ishchilar (ming kishi)
1960	75	18,0	14,1	10,1
1965	84	25,4	22,7	21,1
1970	126	47,9	45,4	41,8
1975	275	117,4	102,9	74,7
1980	488	223,1	142,5	115,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tahsil oluvchilar sonining ortib borish maromi o'quv yurtlari soniga nisbatan yuqori darajaga ega. Bu, o'z navbatida yangi o'quv yurtlari va majmualari tashkil etishni talab etganligi tabiiy hol. Shu sababli 1961-1964 yillar davomida respublikadagi barcha mehnat zahiralari o'quv yurtlari yagona shahar va qishloq hunar-texnika bilim yurtlariga aylantirilib, ularning har biri ma'lum sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilib, malakali ishchilar tayyorlashga kirishildi. 1970 yillarning oxiridan boshlab ommaviy ravishda o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlashga o'tildi. Ana shu davrga kelib, hunar-texnika ta'limi sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlar olib borish faoliyati faollashdi. Texnologiya va kasb ta'limi bu davrda respublika xalq xo'jaligining barcha sohalariga talab etilgan ixtisosliklar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlab bera oldi. Uning



huquqiy-me'yoriy, moddiy-texnik, o'quv-uslubiy bazasi kengaytirildi va mustahkamlandi.

1981-1986 yillar sakrashsimon o'zgarishlar inqirozoldi davrini o'ziga qamrab olgan bosqich hisoblanadi. 80-yillarning birinchi yarmidan boshlab respublika texnologiya va kasb ta'limi rivojlanishida kadrlar tayyorlash miqdori bilan ijtimoiy va xalq xo'jaligi talablari orasida nomutanosiblik holatlari, ya'ni ziddiyatlar ko'zga tashlana boshladi. Shuningdek, bu davrda salbiy an'analar to'plana boshlab, hunar-texnika bilim yurtlari soni asoslanmagan holda ko'paytirildi. Natijada tayyorlanayotgan ishchilar sifati ishlab chiqarish talablariga javob bermay qoldi, masalan, "Qishloqda yashaysanmi, texnikani bilishing shart" shiori yuritilib, barcha qishloq yoshlaridan ommaviy ravishda mexanizatorlar tayyorlashga kirishildi. Buning natijasida respublikamiz faqat xom ashyo bazasi sifatida qolaverdi. Demak, bu davrda ta'lim sohasidagi inqiroz jamiyatning siyosiy va iqtisodiy inqiroziga mos tushdi.

1981-1986 yillarda hunar-texnika ta'limi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi 2- jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Yillar	O'quv yurtlarining soni (yil oxiridi)	Ularda tahsil oluvchilar soni (ming kishi)	Qabul qilingan tahsil oluvchilar soni (ming kishi)	Tayyorlangan malakali ishchilar (ming kishi)
1981	519	225,1	159,7	158,7
1982	557	246,0	167,8	159,1
1983	590	259,5	172,0	142,8
1984	567	276,8	181,9	151,7
1985	568	290,6	192,5	166,1
1986	565	303,2	191,4	169,5

1987-1990-yillarni o'ziga qamrab olgan inqiroz davri. Bundan oldingi bosqichdagi salbiy holatlar yanada aniq kuchayib borib, hunar-texnika ta'limi tizimi haddan tashqari obro'sizlandi. Natijada umumta'lim maktablarida o'qishni xohlamagan va o'zlashtirmaydigan o'quvchilarni hunar-texnika ta'limi tizimiga ommaviy ravishda majburan yuborilishi odat tusiga aylandi. Korxonalarda ishchilarga bo'lgan talabga nisbatan tayyorlangan ishchilarning tayyorgarlik darajasi orasida keskin farqlar sezila boshladi. Iqtisodiy tanglik holati sharoitida hunar-texnika ta'limiga ajratilgan mablag' hajmi ham tabiiy ravishda kamaydi. Bir so'z bilan aytganda, jamiyat hayotidagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar hunar-texnika ta'limidagi o'ziga xos o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladigan ishchi kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini qayta ishlab chiqish zarurati kun tartibiga qo'yildi. O'quv muassasalarining o'zlari etishmayotgan mablag'larni topish yo'llarini izlay boshladilar. Natijada turli sohalarga tegishli o'quv-ishlab chiqarish markazlari tashkil etila boshlandi. Bular alohida o'quv yurtlarining zamon talablariga



moslashishiga imkon bergan bo'lsada, yaxlit kadrlar tayyorlash tizimini ijobiy tomonga o'zgartira olmadi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish hunar-texnika ta'limini boshqarish, uni rejalashtirish va oldindan bashorat etish metodlari, qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash manbalarini izlab topishni talab etadi. Shuning uchun ham yaxlit moslashuvchan tavsifga ega tadbirlar tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi.

1991-1996-yillarni o'ziga qamrab olgan moslashuvchanlik davri. 90-yillarning boshlarida hunar-texnika ta'limi tizimining ko'plab miqdor ko'rsatkichlarining kamayishi sekinlasha bordi. Demak, bu tanglik davri bosib o'tilganligidan guvohlik berar edi, 1992 yilga kelib sekin-asta tayyorlangan mutaxassis kadrlar va o'quv yurtlari soni ham barqarorlasha boshladi. 1993 yilga kelib hunar-texnika ta'limiga qabul qilishda ortish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Respublikamizda 1990-1996-yillarda mavjud bo'lgan hunar-texnika ta'limining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi 3- jadvalda o'z ifodasini topgan:

3-jadval

Yillar	O'quv yurtlarining soni (yil oxirida)	Ularda tahsil oluvchilar soni (ming kishi)	Qabul qilingan tahsil oluvchilar soni (ming kishi)	Tayyorlangan malakali ishchilar (ming kishi)
1991	450	211,6	111,5	113,4
1992	445	210,7	111,9	104,1
1993	439	219,0	125,4	100,8
1994	437	212,5	126,2	115,6
1995	439	218,2	132,4	118,7
1996	442	220,0	128,4	122,0

Bu davrda davlatning asosiy vazifasi fuqarolar huquqi va qiziqishlarini himoyalash, eng avvalo yoshlarning konstitutsiyaviy bilim olish, kasb-hunar sir-sinoatlarini egallash huquqlarini himoya etishdan iboratligiga qat'iy amal qilindi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan ilk kunlardan boshlab "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun loyihasi ustida ishlar olib borildi.

Natijada 1992 va 1997 yillarda "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilinib, hozirgi kunda uning yangi tahriri ustida ishlar olib borilmoqda. Bu holat qonun zamon bilan hamnafas ekanligidan dalolatdir. Shuningdek, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonun ham 1997 yil 29 avgustda qabul qilindi.

1997 yil boshida respublikada umumiy 221 ming tahsil oluvchilari bo'lgan 442 texnologiya va kasb ta'limi o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatar edi. Ularning tarkibi 209 ta kasb-hunar maktablari 180 ta kasb-hunar litseylari va 55 ta biznes maktabdan iborat edi.

Moslashish davri texnologiya va kasb ta'limi tuzilmasi o'quv yurtlarining turlari bilangina emas, balki o'qish muddati va qabul qilish shartlari bilan ham etarli darajada murakkab ekanligi quyidagi 4- jadvalda o'z aksini topgan:





O'quv yurtining nomi va mablag' bilan ta'minlanish manbai	O'qish muddati	Qabul qilish shart-sharoiti	Bitiruvchilarga beriladigan hujjat nomi
1. Kasb –hunar maktab davlat byudjeti	1,5 2 3 1	9-sinf negizida 9-sinf negizida, suhbat  11-sinf negizida, test asosida	Kasb haqida attestat Kasb haqida attestat  O'rta ma'lumot va kasb haqida diplom Kasb haqida diplom
2. Kasb –hunar litseylari davlat byudjeti	1 bosqichli, 2 yillik  Ikki bosqichli to'rt yillik	9-sinf negizida, test asosida  Birinchi bosqichdan so'ng	To'liq o'rta va kasbiy ta'lim to'g'risida diplom O'rta maxsus ta'lim haqida diplom
3. Biznes- maktab davlat byudjeti	Uch yil	9-sinf negizida test asosida	To'liq o'rta ma'lumot haqidagi diplom
4. Fuqarolarning to'lov vositalari hisobidan	1 yil	11-sinf negizida test asosida	Tadbirkorlik asoslari bo'yicha kasb-hunar diplomi

1996 yildan boshlab hunar-texnika bilim yurtlarini moliyalashtirish asosan joylarning byudjetiga o'tkazildi. Yuqorida zikr etilgan tadbirlar ma'lum ma'noda hunar-texnika ta'limining barqarorlashishiga imkon berib, uning imkoniyatlarini saqlab qoldi. Lekin mavjud barcha muammolar o'z echimini topa olmadi.

Bunday muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quv jarayonining moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy, ya'ni axborot negizining etarli darajada emasligi;
- yuqori malakali pedagog-kadrlarning etishmasligi;
- o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlar va didaktik materiallar bilan sifatli va etarli darajada ta'minlanmaganligi;
- kadrlar tayyorlash tizimida fan va ishlab chiqarish orasida uzviy o'zaro ta'sir va manfaatli integratsiyaning mavjud emasligi va hokazolar.

Bu muammolarning echimini topish maqsadida 1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi



Qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular vatanimiz texnologiya va kasb ta'limini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga imkon berdi. 1997 yildan shu paytgacha bo'lgan davr ichida o'qish muddati uch yil bo'lgan yangi o'rta maxsus, texnologiya va kasb ta'limi tizimi yaratildi. Bu tizim akademik litseylar va kasb-hunar kollejarini o'ziga qamrab olib, ixtiyoriy majburiy ta'lim turi deb ataldi.

Ma'lumki, insonning har bir xatti-harakati ongli ravishda amalga oshadi. Ana shu ongli xatti-harakatlar psixolog olim P.Ya. Galperin va uning maslakdoshlari fikricha quyidagi uch asosiy bosqichni o'ziga qamrab oladi:

Birinchi bosqich mo'ljalga olish deb nomlanib, unda shaxs mavjud shart-sharoit va imkoniyatlariga ko'ra o'z oldiga qo'ygan maqsadini belgilab oladi, ya'ni bajaradigan ishlarini rejalashtiradi, maqsadga erishish omillarini modellashtiradi.

Ikkinchi asosiy bosqich. Amalga oshirish bosqichida qo'yilgan maqsad, o'z imkoniyati, shart-sharoit, mavjud bo'lgan ko'plab boshqa omillarni hisobga olgan holda xatti-harakatlar amalga oshirilib, ma'lum natijaga erishiladi.

Uchinchi bosqich nazorat qilish va o'zgartirish kiritish (takomillashtirish) bosqichi hisoblanib, unda ko'zlangan maqsad bilan olingan natija qiyoslanadi va kerakli xulosa chiqarilib, zarur bo'lsa, rejalashtirish va amalga oshirish bosqichlarining mazmuni, tuzilmasi, shakli va kechish bosqichlariga o'zgartirishlar kiritiladi.

Insonlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha jarayonlar kabi ta'lim-tarbiya ishi ham ushbu yuqoridagi qonuniyatga to'liq bo'ysunadi. Demak, ta'lim-tarbiya ishi ma'lum me'yorlar doirasida amal qiladi. Bu me'yorlarsiz ta'lim-tarbiya ishi mazmun, shakl, zamon, makon hamda natijalar nuqtai nazarida samarasiz bo'ladi. Aslini olganda, maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar aniq maqsadni ko'zlab reja asosida kechadi.

Ko'p asrlik kishilik jamiyatining amaliy tajribalari, falsafa, jamiyatshunoslik, pedagogika va psixologiyaga oid g'oyalar, dunyo miqyosida kechayotgan ta'lim-tarbiyaga oid bilimlar, maxsus pedagogik tadqiqotlar natijalari, izlanuvchi pedagog novatorlar tajribalari va shu kabilar kasb-hunar pedagogikasini rivojlantiruvchi manbalardir.

Ma'lumki, kasb-hunar pedagogikasi nisbatan yangi va rivojlanuvchi fandır. U texnologiya va kasb ta'limi tizimining takomillashuvi jarayonida umumiy pedagogikadan maxsus soha sifatida ajralib chiqdi. Kasb-hunar pedagogikasining o'z ob'ekti, predmeti, qonuniyatlari, prinsiplari, maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, metod va vositalari, o'ziga xos kategoriyalari mavjud bo'lib, ular fanning asosini tashkil etadi.

Zamonaviy texnologiya va kasb ta'limining asosiy xususiyati – uning integratsiya yo'nalishi (tendensiyasi) hisoblanib, bu holat ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Agar tashqi integratsiya umumjahon ta'lim makonini qurish bilan bog'liq, ya'ni turli mamlakatlarda to'plangan tajribalardan foydalanishni ko'zda tutgan bo'lsa, ichki integratsiya predmetlararo yondashuv asosida integrativ kurslar tuzishni ko'zda tutadi. Ana shunday integrativ o'quv predmetlaridan biri kasb-hunar pedagogikasining o'zi hisoblanadi. Chunki u kichik mutaxassislar



tayyorlashning zaruriy va etarli mazmunini belgilovchi Davlat ta'lim standartlariga binoan yaratilmoqda.

Texnologiya va kasb ta'limining shakllanishi: yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik vazifa bo'lib, insoniyat jamiyati o'z tarixida bu masalani turlicha echimini topishga harakat qilgan. Dastlabki paytlarda bolalarni hayotga, mehnatga tayyorlash bevosita mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirilgan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning paydo bo'lishi yoshlarni hayot faoliyatiga maxsus tayyorlash zarurligini muhim masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Shunday qilib, aqliy va jismoniy mehnat ajraldi. Uzoq o'tmish tarixda ustoz- shogird tizimi paydo bo'ldi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, ta'kidlash joizki, hozirgi jadal sur'atli fan-texnika taraqqiyoti natijasida kasbiy mehnat mazmuni va xarakteri tezkor ravishda o'zgarimoqda, texnika sohasidagi yangiliklar ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan qisqa vaqt davomida joriy etilib, insoniyat jamiyatining tinchligi, farovonligi ta'minlanmoqda.

Shunday qilib, XIX asrning o'rtalariga kelib, bir qancha rivojlangan mamlakatlarda ta'limning mumtoz (klassik) umumiy va oliy turiga qo'shimcha yangi yo'nalishini shakllantirish muammosi kelib chiqdi. Y.A. Komenskiy, Djon Lokk, J.J. Russo va D. Didro kabilar ham maktab o'quv rejalariga amaliy bilimlarni kiritish zaruriyatini ko'rsatib o'tganlar zero, hozirgi paytda texnologiya va kasb ta'limi global, umumjahon xarakterga ega bo'lgan hodisa sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, yaxlit texnologiya va kasb ta'limi tizimining paydo bo'lish tarixi mehnat qurollari ishlab chiqishga tirikchilik buyumlari, talablarini ortib borishi bilan bog'liq.

**2. Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining maqsadi, predmeti va vazifalari.** Har qanday fan yoki uning tarmog'i kabi texnologik va kasb ta'limi didaktikasi ham o'z ob'ekti predmeti, maqsadi va vazifalariga ega.

texnologik va kasb ta'limi didaktikasining ob'ekti ta'lim-tarbiya jarayoni hisoblanadi. "Jarayon" tushunchasining sinonimi sifatida texnologiya va "protsess" tushunchalari ishlatilib, "Prosessus" iborasi lotinchada "ilgari harakatlanish", "o'zgarish" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida uning muqobili sifatida "jarayon" tushunchasidan foydalaniladi.

Pedagogik jarayon deganda o'qituvchi va tahsil oluvchining belgilangan maqsadga erishish borasidagi o'zaro hamkorlik faoliyati tushuniladi, bunda avvaldan belgilangan o'zgarish holati sodir bo'lib, tahsil oluvchining shaxsiy sifat va xislatlari o'zgaradi. Boshqacha aytganda ijtimoiy tajriba shaxs sifat va fazilatlariga aylantiriladi. Pedagogik manbalarda "ta'lim-tarbiya jarayoni" iborasi ham sinonim sifatida ishlatilgan. Lekin rus pedagog olimlari P.F. Kapterev, A.I. Pinkevich, Yu.K. Babanskiylarning fikricha "ta'lim-tarbiya jarayoni" tushunchasi nisbatan tor ma'noni anglatib yaxlitlik xususiyatini ochib bera olmaydi. Ta'lim-



tarbiya va rivojlanishning birligini ta'minlash bilan pedagogik jarayonning yaxlitligi va umumiyligiga erishiladi.

Pedagogik jarayon tizim sifatida, o'ziga qator o'zaro aloqador tarkibiy elementlarni qamrab oladi. Pedagogik jarayonda shakllantirish, rivojlantirish, tarbiyalash, shuningdek, barcha shart-sharoitlar, tashkil etish shakllari va amalga oshirish metodlar va vositalari o'zaro birikib yagona yaxlitlikni hosil qiladi.


Pedagogik jarayonning bunday tarzda talqin etilishi uning tashkil etuvchi elementlarini aniq ajratib olish bilan birga bu elementlar orasidagi o'zaro uzviy aloqadorlik va munosabatlarni tahlil etish shuningdek, pedagogik amaliyotda uni boshqarish imkoniyatini beradi.

Tuzilma (lotincha struktura, tuzilish) bu tizimdagi elementlarning joylashishini anglatadi.

Tizim tuzilmasini ma'lum mezonlarga ko'ra ajratiladigan tarkibiy qism (komponent) lar, shuningdek, ular orasidagi aloqadorlik tashkil etadi. Tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligini tushunish bilangina ushbu jarayonning sifat va samaradorligini oshirish muammosining echimini topish mumkin.

Pedagogik jarayonning ob'ekti bir paytning o'zida sub'ekt hamdir. Bu jarayonning natijasi to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi (ta'siri), qo'llanilayotgan texnologiya va tahsil oluvchilarning ongliligi, faolligiga bog'liqdir.

Pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tahlil etish uchun tahlil qilish mezonlarini o'rnatish zarur. Mezon sifatida har qanday shart-sharoit, erishilgan natija o'lchami olinishi mumkin. Muhimi u tizimni o'rganish maqsadlariga javob bersa bas (3 – chizmaga qarang).





### 3-chizma. **Pedagogik jarayonning tizim tarzida sxematik ko'rinishi**

Yuqoridagi keltirilgan 3-chizmadan ko'rinib turibdiki, pedagogik jarayon ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Pedagogik jarayonning ishtirokchilari (o'qituvchi va tahsil oluvchilar), maqsad (vazifalar), mazmun, tashkil etish shakllari, vosita va metodlar, natija bir-biriga uzviy bog'liq. Bu bog'liqlik ma'lum qonuniyatlarda o'z ifodasini topadi.

Har qanday jarayon kabi ta'lim-tarbiya jarayoni ham ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. **Qonuniyatlarda ob'ektiv zarur, muhim, takrorlanuvchi aloqadorliklar o'z ifodasini topadi.**

Pedagogik jarayonning qonuniyatlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Pedagogik jarayonning dinamik xarakteri.
2. Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanishi.
3. Pedagogik jarayonning boshqariluvchanligi.
4. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining rag'batlantirilishi.
5. Pedagogik jarayonda his-tuyg'u, mantiq va amaliyotning birligi.
6. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ichki va tashqi faoliyati birligi.

7. Pedagogik jarayonning kechishi va natijasini boshqa ko'plab omillarga bog'liqligi: Masalan: a) jamiyat va shaxs ehtiyojiga; b) jamiyatning moddiy-texnik, iqtisodiy va boshqa imkoniyatlariga; v) jarayon kechadigan shart-sharoit axloqiy, psixologik, sanitariya-gigiyenik, estetik va shu kabilar. Shuningdek, kasb-hunar ta'limi, ishlab chiqarishning ham qonuniyatlarini hisobga olishi shart hisoblanadi. Kasb-hunar ta'limini tadqiq etgan S.Ya. Batishev, K.N. Katxanov, N.I. Dumchenko, A.P. Belyayeva kabi chet ellik va K. Davlatov, K. Mirsaidov kabi vatandosh olimlarning fikriga qo'shilgan holda, quyidagi ishlab chiqarish qonuniyatlariga asoslanish zarurligini ko'rsatish mumkin: ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari xarakteriga mosligi; mulkchilik munosabatlari; mehnat xarakteridagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish darajasidan talab va ehtiyojning yuqoriligi; mehnatga yarasha taqsimot; ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarishga nisbatan o'sishi; rejali, proporsional rivojlanish; moddiy ne'mat yaratuvchilar o'zlarining ongi, xulq-atvori va his-tuyg'ularini qayta ishlab chiqishi; yirik mashinasozlik sanoatini uzluksiz ortib borishi; ishlab chiqarish jarayonlarini tabaqalashtirish va integratsiyalashtirish; ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish; ishlab chiqarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirish; ishlab chiqarishning intellektuallasuvi; mehnat resurslarining o'zaro taqsimlanish sur'atining ortishi; xo'jalik hisobi, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash; sanoat sohasi bilan mashg'ul mutaxassislar sonining qisqarishi; mehnatni jamoaviy tashkil etishning ortishi, demokratiyalash va o'z-o'zini boshqarish kabilar.

**Pedagogik jarayon davriy xarakterga ega bo'lib quyidagi bosqichlarni o'ziga qamrab oladi:**

1. **Tayyorgarlik bosqichi;**
2. **Asosiy (amalga oshirish) bosqichi;**
3. **Nazorat bosqichi.**



Bu bosqichlarning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Pedagogik jarayonning tayyorgarlik bosqichida quyidagi muhim vazifalar hal etiladi: maqsad belgilanadi, shart-sharoit aniqlanadi, aniq natija belgilanadi, jarayonning kechishi loyihalashtiriladi. Bu bosqichda ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadini aniq va to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonni amalga oshirish bosqichida maqsad va vazifalarning qo'yilishi tushuntiriladi, ishtirokchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlari amalga oshiriladi, belgilangan tashkiliy shakl, metod va vositalardan foydalaniladi, qulay shart-sharoit yaratiladi, tahsil oluvchilar rag'batlantiriladi, pedagogik jarayon bilan boshqa jarayonlar orasidagi aloqadorlik ta'minlanadi. Pedagogik jarayonning ushbu bosqichida teskari aloqadorlik muhim bo'lib, u tezkor boshqaruvchilik, xulosalar chiqarish imkonini beradi. Teskari aloqa jarayonini sifatli kechishini ta'minlash lozim bo'lib, uning rivojlanishi va mustahkamlanishiga har qaysi o'qituvchi muhim masala sifatida ustuvor ahamiyat berishi zarur.

Pedagogik jarayonning nazorat bosqichida, erishilgan natija bilan qo'yilgan maqsad qiyoslanib, tahlil etiladi va xulosa chiqariladi, kerak bo'lgan hollarda avvalgi bosqichlarga o'zgartirishlar kiritiladi.

**Tahsil oluvchi shaxsining rivojlanishida ularning yosh va individual xususiyatlari.** Jismoniy va aqliy rivojlanish tahsil oluvchilarning bevosita yoshiga bog'liq. Yosh ulg'aygan sari donishmandlik keladi, tajribalar to'planadi, bilimlar ko'lamini kengayib chuqurlashadi. Har qaysi yoshga jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanish mos keladi.

Tahsil oluvchilarni to'g'ri rivojlantirish uchun ularning yoshini hisobga olish muhim ekanligini ko'p sonli pedagog va psixolog olimlar tadqiq etib, o'zlarining muhim xulosalarini berganlar.

**Yosh xususiyatlari deb hayotning ma'lum davri uchun xarakterli bo'lgan anatomik, fiziologik va psixik sifatlarga aytiladi.**

Odamning biologik va ma'naviy rivojlanishi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ma'lum yoshda ruhiy sohada ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ana shu holat odam rivojlanish bosqichlarini davrlashtirishning tabiiy asosi sifatida qabul qilingan.

Bunday davrlashtirish asosida bir tomondan jismoniy va psixologik rivojlanish holati, ikkinchi tomondan, ta'lim-tarbiya jarayoni kechadigan shart-sharoit hisobga olingan. Rivojlanishning tabiiy bosqichlarini hisobga olmaslik yoki uni muhim deb bilmaslik so'zsiz har qanday yoshda ma'lum metodika orqali har qanday ijtimoiy tajribani, har qanday bilim va xatti-harakat usullarini o'zlashtirish mumkin, degan noto'g'ri xulosaga olib keladi.

**Rivojlanish** – bir holatdan ikkinchi, yuqori holatga o'tish, o'sish, yuksalish; taraqqiyot, ravnaq topish; ulg'ayish ma'nosini anglatadi.

Inson imkoniyatlari ijtimoiy rivojlanishining jadal sur'atlari sharoitida, ko'p axborot manbalariga ega bo'lgan holda, ma'lum chegaraga ega ekanligini yodda tutmoq zarur. Rivojlanish yosh xususiyatlar bilan bevosita bog'liq. Bu soha qonuniyatlari rivojlanish imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi.

Y.A. Komenskiy birinchilardan bo'lib ta'lim-tarbiya ishida yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ilmiy g'oyasini ilgari surgan edi.



Tahsil oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik prinsiplardan biridir. Unga asoslanib o'qituvchi o'quv yuklamasini belgilaydi, tahsil oluvchining band bo'lishini ta'minlaydi, maqbul ish va dam olish rejimini aniqlaydi. Tahsil oluvchilarning yosh xususiyatlariga binoan o'quv materialini, ya'ni ta'lim mazmuni, shakli va metodlari tanlanadi.

**Tahsil oluvchi shaxsining jismoniy rivojlanish qonuniyatlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:**

1. Yoshlik paytida insonlarda jismoniy rivojlanish tez va jadal kechadi. Yosh orta borishi bilan jismoniy rivojlanish maromi susayadi.

2. Bolaning jismoniy rivojlanishi ma'lum davrda tez, boshqa davrda notekis kechadi.

3. Insonning har bir organi o'ziga xos rivojlanadi. Yaxlit holda inson gavdasi bir tekis bo'lmagan holda rivojlanadi.

Insonning ma'naviy rivojlanishi quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

1. Inson yoshi bilan uning ma'naviy rivojlanish maromi teskari proporsionaldir: yosh qancha kichik bo'lsa, ma'naviy rivojlanish tezligi shuncha katta bo'ladi. Yosh ulg'aygan sari ma'naviy rivojlanish sekinlashadi. Bu holatni ulug' rus mutafakkiri L.N. Tolstoy obrazli qilib quyidagicha ifodalagan edi: "Men bilan besh yoshli bolaning orasidagi masofa bir qadam bo'lsa, yangi tug'ilgan bola bilan besh yoshli bola orasida juda katta masofa mavjud".

2. Bolaning ma'naviy rivojlanishi bir tekis kechmaydi.

3. Alohida ko'rinishdagi psixologik faoliyatning shakllanishi va rivojlanishiga mos muddatlar mavjudki, ular ma'naviy sifatlarni rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. U yoki bu sifatlarni rivojlanishi uchun to'g'ri kelgan yosh davrlarini senzitivlik davri deb ataladi. Senzitivlikning sababi miya va nerv (asab) tizimining bir tekisda etilmasligidir. Masalan, yoshligidan turli hayvonlar bilan birga yashagan bolalarda tilning rivojlanmay qolish holati kuzatilgan, odatda 1,5 – 2,5 yashar bolaning tili o'z vaqtida chiqmasa, keyin borgan sari ushbu jarayonning kechishi murakkablashib boraveradi. Jismoniy, psixologik, ijtimoiy, axloqiy va boshqa sifatlarni aynan shunga o'xshashdir.

4. Inson ruhiyatining rivojlanishi bilan uning ma'naviy sifatlari turg'unlashadi, unda kamini to'ldirish xususiyati saqlanib qoladi. Masalan, biror kishining ko'zi ko'rmasa, uning boshqa sezgi organi kuchli bo'lishi mumkin. Aynan mana shu kuchli sezgi organi bilan u o'zidagi ma'lum kamchiliklarni to'ldiradi (kompensatsiyalaydi).

Insonning rivojlanishida umumiylik va xususiylik namoyon bo'ladi. Insondagi o'ziga xoslik individuallik deb ataladi. Individuallik aqliy, irodaviy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabi shaxsiy xislatlarda o'z ifodasini topadi hamda boshqalardan aynan shu jihatlari bilan ajralib turadi. Dunyodagi har bir shaxs (indivud) o'zgacha bir olamdir. Individual xususiyatlari o'ziga xos sezgi, his-tuyg'u, idrok, fikr yuritish, xotira tasavvur, qiziqishlar, yo'nalganlik, qobiliyat, temperament, xarakter kabilarni o'ziga qamrab oladi. Individuallik shaxsning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.



**Individual yondashuv** ta'lim-tarbiya maqsadi va mazmunini alohida tahsil oluvchiga moslashtirilishini emas, balki pedagogik ta'sir, shakl va metodlarini moslashtirish orqali shaxs rivojlanishining ta'minlanishini nazarda tutadi.

Individual yondashuv bilish kuchlari faolligi, yo'nalishi va har qaysi tahsil oluvchining iste'dodi qobiliyatini rivojlantiradi.

Individual yondashuvga o'zlashtirmaydigan va alohida qobiliyatli bolalar ayniqsa muhtojligini yodda tutish zarur.

**Ta'lim-tarbiya maqsadlari:** ta'lim-tarbiyaning maqsadi ko'zlangan aniq natijaga intilishdir. Har qanday ta'lim-tarbiya doimo ma'lum natijaga qaratilgan (yo'nalgan) bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishining barcha komponentlari: mazmun, tashkiliy shakl, metod va vositalari maqsadga bo'ysundiriladi: shuning uchun ham pedagogikada maqsadni to'g'ri belgilash eng muhim muammolar sirasiga kiradi.

Bunda, ta'lim muassasalari va pedagoglar nimaga intilishi zarurligi, qanday natijaga erishishi kerakligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya ishi umumiy va individual maqsadlarga ajratiladi. Pedagogikada umumiy va individual maqsadlarning birligini ta'minlash g'oyasi ilgari suriladi.

Amaliy faoliyatda maqsad aniq vazifalar tizimi sifatida amalga oshiriladi. Maqsad va vazifalar o'zaro yaxlit bo'lib ular qismlar (komponent) sifatida uyg'unlashadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya maqsadi deganda echimini topishi zarur bo'lgan pedagogik vazifalar (masalalar) tizimi nazarda tutiladi. Odatda yagona maqsadga ko'plab yo'llar bilan erishiladi.

Texnologik va kasb ta'limi didaktikasi maqsadlarini belgilab olish ta'lim metodlarini aniqlash, to'g'ri shakllantirish, turlash va tizimlashtirish, ya'ni mantiqiy ketma-ket masalalar va savollar tarzida ifodalash o'qituvchi kasbiy faoliyatining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi.

Chunki u o'qituvchi faoliyatining keyingi bosqichlariga yo'naltiruvchi omil, mo'ljal sifatida xizmat qiladi. Tahsil oluvchilar ongiga etkazilgan ta'lim maqsadlari ularni o'quv-bilish faoliyati uchun mo'ljal bo'ladi va ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongliligi va faolligini ta'minlaydi.

Ta'lim maqsadlarini ishlab chiqishning birinchi bosqichida o'qituvchi tayyorlanayotgan mutaxassisning yozma shakldagi modeli hisoblangan ta'lim davlat (tarmoq) standartini mukammal o'rganishi zarur. Undan so'ng o'quv rejasini o'rganilib, o'zi o'qitadigan o'quv predmetining o'rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligi aniqlanadi. O'qituvchi shu yo'l bilan o'zi o'qitadigan o'quv predmetini o'qitishdan ko'zlangan umumiy maqsadni, mutaxassis faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyatlarni aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'quv rejasiga kiritilgan har bir o'quv predmeti ta'lim standartiga o'zining ma'lum ulushini qo'shib, bo'lajak mutaxassislarda ma'lum bilim, ko'nikma, malakalar va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Ta'lim maqsadlarini ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida o'qituvchi xususiy maqsadlarni aniqlab oladi. Bunda o'quv predmetining namunaviy dasturini tahlil etish asosida har qaysi bo'lim, bob, fasl va mavzuga tegishli maqsadlar aniqlanadi. Aniqlangan maqsadga binoan o'quv materialining mazmuni





va o'zlashtirilish rejasi darslik, o'quv qo'llanma va shu kabi manbalarda qanday yoritilganligi aniqlanadi.

Yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosa kelib chiqadiki, pedagogik jarayon har bir o'quv predmetining aniq maqsadini belgilashdan boshlanadi. Chunki har bir nazariy yoki amaliy mashg'ulot aniq maqsadlarni ko'zda tutib, tashkil etiladi va o'tkaziladi. Agar o'quv maqsadlari belgilanmay mashg'ulot o'tkazilsa, uning mazmuniy va jarayoniy (protsessual) tuzilmalari orasida uyg'unlik buziladi.

O'quv maqsadlarini belgilab, ma'lum ketma-ketlikda joylashtirish, tasniflash, pedagogik taksonomiya deb yuritiladi (taksonomiya tushunchasi grekchadan olingan bo'lib, tartib bilan joylashtirish qonuni, qoidasi ma'nosini anglatadi).

Taksonomiya o'rganilayotgan ob'ektning o'zaro aloqalari asosida tuziladigan, ko'p pog'onali joylashtirishdir. Pedagogikada amerikalik olim Biniamin Blunning o'quv maqsadlari taksonomiyasidan keng ko'lamlı foydalaniladi. Bu taksonomiya quyidagi tartibga, mantiqiy ketma-ketlikka ega:

1. **Bilish** – o'rganilayotgan materialni idrok etish uni xotirada saqlab qolish va qayta xotirlashni nazarda tutadi. Bunda tahsil oluvchi o'zi o'zlashtirgan materialning mohiyati va mazmunini to'laqonli anglamasligi mumkin.

2. **Tushunish** – o'rganilayotgan material idrok etiladi, mazmuni va mohiyati anglanadi, uning xususiyatlari haqida xulosa chiqarish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu o'zlashtirish darajasining ko'rsatkichi sifatida material mohiyatini izohlab berish, boshqa materiallar bilan aloqadorligi va munosabatini bayon etish, ko'rsatish kabilar nazarda tutiladi.

3. **Qo'llash** – o'zlashtirilgan dalillar, tushunchalar va xatti-harakat usullari, qoidalar, hukm, xulosa hamda hayotiy tajribalarni amaliy masalalar echimini topishda tatbiq eta bilishni anglatadi.

4. **Tahlil qilish** – o'zlashtirilgan yaxlit o'quv materialini qismlarga ajratish, bu qismlarning daraja va o'zaro aloqalari hamda nisbatlarini o'rnatish, qaytadan yaxlitlik hosil qilishdan iborat aqliy jarayon.

5. **Sintezlash** – o'zlashtirilgan alohida-alohida materialni umumlashtirib, yaxlit tizim shaklidagi tuzilma hosil qilishni ko'zda tutadi.

6. **Baholash** – belgilangan maqsadlarga erishib, natijalar bilan maqsadni qiyoslash orqali amalga oshirilganligi sababli eng yuqori darajadagi o'zlashtirish hisoblanadi. O'quv maqsadlarini belgilashda tahsil oluvchi o'zini qanday holatda tutishi lozimligini ifodalovchi shunday so'z (fe'l, amal) ishlatishi zarurki, u maqsadni aniq tushunilishini ta'min etsin. Buning uchun, o'z navbatida, har bir mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralarni alohida ko'rsatish kerak bo'ladi. Ajratib ko'rsatilgan tayanch so'z va iboralarning o'zlashtirilish darajasini belgilab olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv maqsadlarini tizimlashtirish va darajalashni quyidagi jadval ko'rinishida amallar orqali belgilash maqsadga muvofiqligi vatandosh olimlarimiz tomonidan<sup>1</sup> ham ta'kidlangan (5-jadvalga qarang).



№	O'quv maqsadlari	Amallar
1.	<b>Bilish</b>	Idrok etilgan ma'lumotni qaytarib aytish, xabar berish, nomlab yozish, farqlash, tanish, aytib berish, takrorlash.
2.	<b>Tushunish</b>	Dalillar keltirish, o'rni almashtirish, aniqlik kiritish, belgilab qo'yish, mohiyatini tushuntirish, o'zgartirish kiritish, izohlab berish kabilar.
3.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalardan amalda foydalanish, ishlarni bajarish, namoyish etish, o'rgatish, aniqlash, echimini topish.
4.	<b>Tahlil qilish</b>	Ajratib ko'rsatish, keltirib chiqarish, tabaqalashtirish, tasniflash, taklif etish, oldindan bashorat qilish, taqsimlash, tekshirish, guruhlarga ajratish.
5.	<b>Sintezlash</b>	Umumlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, kashf etish, tizimlashtirish, loyihalashtirish.
6.	<b>Baholash</b>	Tashhis qo'yish, isbotlash, asoslash, qiyoslash, solishtirish kabilar.

Bu amallar akademik, M.I. Maxmutov tomonidan taklif etilgan zamonaviy darsning bir-biri bilan bevosita uzviy aloqador va munosabatda bo'lgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini shakllantirishda hamda dolzarblashtirish, yangi tushunchalar va hatti-harakat usullarini shakllantirish, qo'llash bosqichlarida o'z ifodasini topishi zarur. Har bir mashg'ulot maqsadi qanchalik aniq belgilab olinsa, unga erishish shuncha oson bo'lishi amaliyotda tasdiqlangan.

Shu o'rinda bu maqsadga erishishda quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligini nazarda tutish zarur. Bular: o'qituvchining kasbiy mahorati, o'quv materialining xususiyatlari, shart-sharoit, tahsil oluvchilarning ongliligi, mustaqilligi, faolligi, moddiy-texnik va ilmiy-uslubiy ta'minot, ishtirokchilarning hamkorlik munosabatlari, vaqt va shu kabilar.

Shunday qilib, zamonaviy darslar bir-biriga mushtarak quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

I. Ta'limiy maqsad – tahsil oluvchilar bilimi, ko'nikmasi va malakasida (o'sish) yuksalishning qanday darajada bo'lishi;

II. Tarbiyaviy maqsad – tahsil oluvchi shaxsida ijobiy sifat va fazilatlarni tarkib toptirish va rivojlantirishning zarurligi;

III. Rivojlantiruvchi maqsad – tahsil oluvchilar qanday mantiqiy operatsiyalar va aqliy faoliyat usullarini o'zlashtirishlari hamda uning rivojlantiruvchi natijalarini;

IV. Qiziqtirish – maqsad – tahsil oluvchiga materialni amaliy faoliyatda kerakligiga ishontirishni ko'zda tutadi.



An'anaviy tarzda tarbiyaning (qismlari) yo'nalishlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: aqliy, jismoniy, politexnik, axloqiy va estetik mehnat kabilar.

Aqliy tarbiya natijasida dunyoqarash shakllanadi: dunyoqarash - insonning tabiat, jamiyat, mehnat, umuman atrof-olamni bilishga bo'lgan qarashlar tizimidir. Dunyoqarash insonning ijodiy, o'zgartiruvchilik faoliyatida kuchli quroldir.

Dunyoqarash o'rganilayotgan ob'ekt (jarayon, hodisa, buyum, predmet)ning mohiyati va mazmunini chuqur tushunishni ko'zda tutadi. Dunyoqarash shaxsga o'z hayotini ongli tashkil etish, fikri bilan ishining uyg'unligini ta'minlagan holda ishlashga imkon beradi. Ongli ravishda o'zlashtirilgan bilimlar tizimi mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, tasavvur, aqliy qobiliyatlar, yo'nalganlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Aqliy tarbiya vazifalari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ma'lum hajmdagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish; ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; aqliy qobiliyatni rivojlantirish; bilishga qiziqishni rivojlantirish; bilish faolligini shakllantirish; muntazam ravishda o'z bilimlarini oshirib borishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.

Jismoniy tarbiya vazifalari: sihat-salomatligini mustahkamlash, jismonan to'g'ri rivojlantirish; aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini oshirish; tabiiy sifat va xislatlarni rivojlantirish va takomillashtirish; yangi ko'rinisdagi xatti-harakatlarga o'rgatish; chidamlilik, epchillik kabi xatti-harakat usullarini rivojlantirish; gigienaga oid malakalarni shakllantirish; axloqiy sifatlarni tarbiyalash (botirlik, sabr-toqatlilik, bir so'zlilik, javobgarlilik, jamoaviylik, tartib-intizomlilik); sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; sog'lom, baquvvat, tetik bo'lishga ishtiyoqni rivojlantirish kabilar.

**Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.** Inson organizmidagi sifat va miqdor o'zgarishlariga rivojlanish deb ataladi. Shaxs rivojlanishining natijasi – uning ijtimoiy mavjudot va biologik ko'rinish sifatida kamol topishidir.

Biologik o'zgarishlar morfologik, biokimyoviy va fiziologik jarayonlarni o'ziga qamrab olib, jismoniy rivojlanishni tavsiflaydi. Ijtimoiy rivojlanish esa psixologik, ma'naviy, aqliy o'sishda o'z ifodasini topadi.

Insonning rivojlanishi juda murakkab, uzoq vaqt talab etadigan ziddiyatli jarayondir. Organizmimizda rivojlanish butun umr davom etadi, ayniqsa bolalik va o'smirlik davrida insonning jismoniy va ma'naviy dunyosi jadal o'zgaradi. Rivojlanish faqatgina miqdoriy o'zgarishlar va to'g'ri chiziqli pastdan yuqori tomon harakat yig'indisi emas, balki bu jarayonning xarakterli o'ziga xos xususiyati miqdoriy o'zgarishlarni sifat o'zgarishiga dialektik o'tishidir, ya'ni jismoniy, ruhiy va ma'naviy o'zgarishlardir. Rivojlanish har doim eskini o'rniga yangini hosil bo'lishi (yuzaga kelishi) bilan tavsiflanadi. Hayvonlardan farqli o'laroq inson hayoti o'z mehnati bilan hayot kechirish vositalarini yaratadi, rivojlantiradi.

Rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch – **ziddiyatlardir**. Ziddiyatlar ichki va tashqi, umumiy va xususiy bo'lishi mumkin.


Universal (umumiy) ziddiyatlar ob'ektiv omillar bilan insonning moddiy, ma'naviy ehtiyojlari, imkoniyatlari va qoniqishi orasida yuzaga keladi.

Ichki ziddiyatlar “o‘zi bilan o‘zi kelisha olmaganida” sodir bo‘ladi. Ma’lumki, hayotda turli odamlar turlicha rivojlanadilar. Bu rivojlanish va uning natijasi bevosita shaxsiy xususiyatlarga bog‘liqdir.

Ko‘plab olimlar tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, insonning rivojlanishida uning ota-bobolariga xos rivojlanishi ma’lum ma’noda takrorlanar ekan. Lekin bu qisqartirilgan takrorlanishgina bo‘lib qolmasdan, balki irsiy jihatlarning o‘tishidir. Shuningdek, olimlar shaxsning rivojlanishi faqat irsiy omillargagina emas, balki muhitga va ta’lim-tarbiyaga, uning shaxsiy faoliyatiga ham bevosita bog‘liqligini e’tirof etganlar. Polyak olimi Y. Shvansaraning fikricha yuqorida zikr etilgan omillar shaxs rivojlanishiga birdek ta’sir ko‘rsatar ekan. Ularning birortasiga etarlicha ahamiyat bermaslik bir tomonlamalilikka olib keladi. Bu holatni quyidagicha sxematik tarzda ifodalash mumkin (1-chizma).

### Shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar

1-chizma



Demak, irsiyat yo‘li bilan o‘tgan barcha jihatlar muhit, ta’lim-tarbiya va shaxsiy faoliyat omillari vositasida rivojlantiriladi. Bu uch o‘zaro bog‘liq omilning birday maqbulligi teng tomonli uchburchak shaklini ifodalaydi. Ularning birortasiga etarlicha ahamiyat bermaslik har tomonlama kamol topishga o‘ziga xos to‘siq bo‘lishi mumkin.

Inson rivojlanishining tabiiy (biologik) asosi uning nasliga bog‘liq.

Irsiy xususiyatlar avloddan avlodga genlar orqali o‘tadi. Grekchadan “gen” tug‘ilish (tug‘ma) degan ma’noni anglatadi. Inson iqtidorini rivojlantiradigan omillar: yashash sharoiti, muhit, jamiyat talablari, faoliyat natijasida yaratiladigan u yoki bu mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoj.



Inson ijtimoiylashuvi orqali shaxs sifatida o'zini namoyon etadi, ya'ni o'zaro muloqot, boshqa odamlar va tabiat bilan o'zaro ta'sir natijasida yashab faoliyat ko'rsatadi. Ma'naviy, ijtimoiy-ruhiy (psixik) rivojlanish insoniyat jamiyatidan tashqarida kechmaydi. Bunga misol qilib, masalan, Hindistondagi o'rmonlardan, ya'ni bo'rilar uyasidan topilgan qizaloqlarni o'rgangan olim Sing xulosalari bo'yicha 7-8 yoshlardagi Kamala o'n yil odamlar orasida yashab faqat 100 taga yaqin so'zni o'zlashtira olganligini ko'rsatish mumkin.

Insonning shakllanishiga turli xil tashqi shart-sharoit, shu jumladan geografik, ijtimoiy muhit, maktab, oila, mahalla kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limiy-tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi bevosita uning maqsadga yo'nalganligi, muntazamliligi va malakali boshqarilishi (rahbarlik qilishi) da o'z ifodasini topadi. Ta'lim-tarbiya ishida inson odam rivojlanishi maqsadga bo'ysundiradi. U rivojlanishdagi mavjud kamchiliklarni to'ldirish omili. Shuning uchun ham bolaning yo'nalganligi va qobiliyatini, individual xususiyatlari, imkoniyatlarini aniqlab olish kasbiy ta'lim-tarbiya ishidagi muhim vazifalardan biridir. Shaxsning rivojlanishida uning shaxsiy faoliyati muhim ahamiyatga ega. "Qancha ter to'kilsa, shuncha yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishiladi" maqolida uning mohiyati o'z ifodasini topadi. Bolalar va o'smirlarning asosiy faoliyat ko'rinishlari o'yin, o'qib-o'rganish, mehnatdir.

Faoliyat yo'nalishi bo'yicha: bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik kabi turlarga bo'linadi. Faoliyatning maxsus ko'inishi bu muloqotdir. U faol va nafaol, ya'ni sust bo'lishi mumkin. Faoliyat xohish bilan amalga oshirilgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Faol o'quv-bilish faoliyati tahsil oluvchiga ijtimoiy tajribani tez va muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga, tashqi atrof- muhitga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga imkon beradi. Ukrainalik pedagog olim V.F. Shatalovning fikricha, barcha muvaffaqiyatlar asosida quyidagilar yotadi: yaxshi irsiyat, yaxshi muhit, oila, to'g'ri tashkil etilgan o'quv-bilish faoliyati, tahsil oluvchilarning ongli munosabati, o'quv predmetiga qiziqishi, o'qituvchi shaxsi va shu kabilar.

Avval aytib o'tilganidek, pedagogik jarayonning tizim hosil qiluvchi tarkibiy qismi maqsad hisoblanadi. U ta'lim-tarbiya natijasini ideal holda tavsiflaydi. Pedagogik tizim maqsadni mo'ljalga olgan holda tashkil etiladi va barcha yaxlitlik unga bo'ysunadi. Ta'lim maqsadi aniq tarixiy xarakterga ega bo'ladi. Hozirgi paytda mustaqil respublikamizda global ta'lim-tarbiya maqsadi barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogik ta'sir bevosita va bilvosita boshqariluvchan va boshqarilmaydigan bo'lishi mumkin. Tahsil oluvchilarning javob reaksiyalari faol yoki sust, qabul qilingan yoki qabul qilinmagan, his-tuyg'uli yoki loqayd (beparvo, befarq) bo'lishi mumkin.

Hozirgi paytda pedagog olimlar shunday fikrga kelishganki, bunga ko'ra inson alohida qismlarga bo'linib tarbiyalanmay balki "**yaxlit shaxs**" sifatida tarbiyalanadi. Yaxlit pedagogik jarayonga uning tashqi va ichki jihatlari hamda barcha tashkiliy tarkibiy qismlar o'zaro ta'sirining birligi xarakterlidir. Pedagogik jarayon pedagogik tizim doirasida amalga oshiriladi. Pedagogik tizim tarkibiy



qismlarining o'zaro ta'siridan pedagogik jarayon kelib chiqadi. Pedagogik tizim o'z navbatida pedagogik jarayonning maqbul kechishini ta'minlash maqsadida vujudga keladi va faoliyat ko'rsatadi.

Pedagogik jarayon dinamik tizim bo'lib, uning maqsadi tizim hosil qiluvchi asosiy element hisoblanadi. Pedagogik jarayonda maqsad uning barcha tashkil etuvchi tarkibiy qismlarini tik chiziq bo'yicha bir-biriga bo'ysunishlarini ta'min etadi. Tizimning gorizontal yo'nalish bo'yicha muvofiqligini esa bu jarayon ishtirokchilarining tayyorgarligi hamda rivojlanishi belgilaydi. Bu holatni jadval shaklida quyidagicha tasvirlash mumkin :

6-jadval

### Yaxlit pedagogik jarayonning jihatlari

Jihatlar	Pedagogik jarayon
Maqsadi	Ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishini ta'minlash
Mazmuni	Ta'lim mazmunida bilim, xatti-harakat usullari, ijodiy faoliyat tajribalari; tashqi olamga nisbatan his-tuyg'u, qadriyatlar va irodaviy munosabatlar
Protsessual (jarayoniy)	Pedagogik o'zaro, predmet va shaxsiy o'zaro ta'sir, ta'lim va mustaqil ravishda o'z ustida ishlashning birligi.
Operatsion-texnologik	Pedagogik jarayonning nisbatan mustaqilligi, barcha komponentlarining ichki yaxlitligi, o'qitish va o'qish kabilarning birligi.

O'zlashtirish ob'ekti ta'lim mazmuni hisoblanib, ishtirokchilar faoliyati unga qaratiladi. Bu faoliyat, o'z navbatida, metodlar, vositalar va tashkiliy shakllar orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonning natijalari uning maqsadiga qiyoslanib tahlil etiladi. Zarur bo'lgan hollarda kerakli o'zgartirishlar kiritilib, pedagogik o'zaro ta'sir davriy davom ettiriladi. Shunday qilib, pedagogik jarayon o'z-o'zini tuzatuvchi, rivojlanib, takomillashib boruvchi tizim hisoblanadi.

Bu tizimda nisbatan turg'un, ya'ni barqaror (stabil), uzoq vaqt o'zgarmaydigan elementlar maqsad, ishtirokchilari va ta'lim mazmuni hisoblanib, uning o'zgaruvchan, moslashuvchan tarkibiy qismlari esa metodlar, vositalar, tashkiliy shakllaridir. Bu o'zgaruvchan tarkibiy qismlar bilan asosan pedagogik jarayon boshqariladi. Shuning uchun ham pedagog va tahsil oluvchilarning o'zaro muloqoti hamda munosabati natijasida ma'lum pedagogik masala o'z echimini topadi.

Pedagogik jarayonning asosiy boshlang'ich munosabati sifatida tizimdagi sub'ektlarning o'zaro munosabati e'tirof etilgan. Yaxlit pedagogik jarayonda ob'ektiv ravishda yaxlit ta'lim mazmuni, ishtirokchilar faoliyati o'z ifodasini topadi. Ta'lim mazmunining yaxlitligi uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining birligidan iborat. Bularga bilim, xatti-harakat usullari, ijodiy faoliyat tajribalari, tashqi olamga (o'qib-o'rganish mehnat, inson, tabiat, jamiyat va tarbiyalanuvchining o'z-o'ziga) nisbatan his-tuyg'u va irodaviy munosabatlar kabilari kiradi.



**Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining asosiy vazifalari:** Texnologik va kasb ta'limi alohida fan tarmog'i va o'quv predmeti sifatida nazariy va texnologik vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Nazariy vazifalar – ilg'or kasbiy pedagogik tajribalarni o'rganish, kasb-hunar ta'limining holatini aniqlash, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;

2. Texnologik vazifalar – metodik materiallar, o'quv reja, dastur, qo'llanmalar ishlab chiqish, pedagogika va unga uzviy aloqador fanlar yutuqlarini amaliyotga joriy etish; tadqiqot natijalarini tahlil etish va h.k.

Yuqorida zikr etilganlarni umumlashtirgan holda kasb-hunar pedagogikasining vazifasi – kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishdan iborat deb aytish mumkin.

### **3. Texnologik va kasb ta'limining asosiy didaktik kategoriyalari, qonuniyatlari va prinsiplari.**

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida oliy ta'lim tizimi eng murakkab bo'g'in sifatida e'tirof etiladi. oliy ta'lim tizimida texnologiya ta'limining o'ziga xosligi avvalo uning didaktik, gnoseologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy, iqtisodiy, ishlab chiqarish qonuniyatlariga asoslanishida o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, "Qonuniyat" – ob'ektiv, muhim, zarur, umumiy, barqaror va ma'lum sharoitlarda takrorlanuvchan o'zaro aloqadorlikda o'z ifodasini topadi hamda prinsiplar orqali amalga joriy etiladi.

Qat'iy qayd etilgan qonuniyatlar qonunlar hisoblanadi. Qonuniyatlar quyidagi holatlarda ilmiy qonunlar sifatida e'tirof etilishi mumkin: o'rganilayotgan ob'ektlarning aloqadorliklari aniq belgilansa; bu aloqadorlikning ko'rinishi, shakli va xarakteri tadqiq etilgan bo'lsa; aloqadorlikning ta'sir doirasi o'rnatilsa qonuniyat va qonunlar ilmiy nazariyaning bosh komponenti hisoblanadi.

Rus pedagog olimi I.P. Podlas'ny fikricha ta'lim-tarbiya nazariyasi tuzilmasi qonuniyatlar, qonunlar, aksiomalar, prinsiplar va qoidalar, amaliyot bilan nazariyaning bog'liqligidan iborat. Qonuniyatlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi barcha tarkibiy qism (komponent)larga tegishli bo'ladi

Ta'lim maqsadiga tegishli qonuniyatlar quyidagilarga bog'liq: a) jamiyatning rivojlanish darajasi va tipiga; b) jamiyat talablari va imkoniyatlariga; v) pedagogika fani va amaliyotning rivojlanish darajasi va imkoniyatlariga.

**Didaktik qonuniyatlar:** ta'lim natijalarining ta'lim davomiyligiga; o'rganilayotgan material miqdori yoki talab etiladigan xatti-harakatlar hajmiga; o'quv materialining qiyinlik yoki murakkablik darajasiga; tahsil oluvchilar tomonidan ta'lim-tarbiya ishining maqsadini anglanganligiga; o'zlashtirilayotgan mazmunni tahsil oluvchilar uchun muhimligiga; tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga; qo'llanilayotgan ta'lim shakllari, metodlari, vositalarining uyg'unligiga; yaratilgan shart-sharoitga; o'quv materialni asosiy va ikkinchi darajali qismlarga ajratilganligi va ularga diqqat-e'tiborning jalb etilganligiga; o'qituvchining kasbiy mahoratiga; eshitib, ko'rib yoki amaliy bajarib o'zlashtirilishiga bog'liq.



**Gnoseologik qonuniyatlar:** ta'lim natijasi tahsil oluvchilarda o'qib-o'rganish malakalarining mavjudligiga; tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyati hajmiga va ularni amalga joriy etilishiga; o'zlashtirilgan o'zaro aloqador bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlari hajmiga; tahsil oluvchilar tomonidan uy vazifalarini muntazam ravishda bajarilib borilishiga; ta'limning muammolilik darajasiga bog'liq.

**Psixologik qonuniyatlar:** ta'lim mahsuldorligi tahsil oluvchilarning o'quv-bilish qiziqishlariga; ularning imkoniyatlariga; mashqlar miqdori va jadalligiga; tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga; tahsil oluvchilarning diqqatini darajasi va turg'unligiga; aniq o'quv materialini o'zlashtirish natijalari tahsil oluvchilarning individual moyilligi, bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarni o'zlashtirish qobiliyatiga; tahsil oluvchilar tafakkurining rivojlanganlik darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xos xususiyatlariga; tahsil oluvchilar xotiralarining rivojlanganlik darajasiga; tahsil oluvchilarning ishchanlik qobiliyatlariga; o'rganilayotgan materialni xotirada mustahkam saqlanishi bu materialni qayta ishlab chiqilganlik usuliga; ko'nikma va malakalar shakllanganlik darajasiga bog'liq.

**Kibernetik qonuniyatlar:** ta'lim samaradorligi bu jarayon ishtirokchilari orasida o'zaro teskari aloqalar chastotasi va hajmiga; nazorat samaradorligiga; o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqariladigan axborot miqdori va sifatiga; tahsil oluvchilarning sog'ligi va imkoniyatlariga; boshqaruv ta'siriga bog'liq.

**Sotsiologik qonuniyatlar:** Tahsil oluvchi shaxsining rivojlanishi jamiyat a'zolarining rivojlanganlik darajasiga; o'zaro muloqot va munosabatlar hajmi hamda jadalligiga; tahsil oluvchilar orasida musobaqa muhitini yaratilganligiga bog'liq.

**Tashkiliy qonuniyatlar:** ta'lim samaradorligi uning tashkil etilishiga, ya'ni tahsil oluvchilarning o'qib-o'rganish ehtiyojini qondirish, bilishga qiziqish uyg'otish, bilish faolligini stimullashtirilishiga; tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlariga; o'z burchlariga bo'lgan munosabatlariga; ish qobiliyatlariga; aqliy zo'riqish tufayli sezish organlarining tormozlanishiga; aqliy ish qobiliyati tahsil oluvchilarning sog'ligi, aqliy faoliyat rejimi, jinsi, yoshi, yil, fasl, oy, kun, kecha va kunduz vaqtiga; pedagogik mehnatning tashkil etilish darajasiga bog'liq.

**Iqtisodiy qonuniyatlar:** ta'lim samaradorligi vaqt va xom-ashyolarni sarfiga, ehtiyojlarni tez o'sib borishiga, takror ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish xususiyatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar xususiyati va rivojlanish darajasiga mosligiga, talab va taklifga, qiymatga, qo'shimcha qiymat kabilarga bog'liq.

**Ishlab chiqarish qonuniyatlari:** ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlari tavsifiga mosligi; mulkchilik munosabatlari; mehnat xarakteridagi o'zgarishlar; talab va ehtiyojning ishlab chiqarish darajasidan yuqoriligi; mehnatga yarasha taqsimot; ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarishga nisbatan o'sishi; moddiy ne'matlar yaratuvchilar o'zlarining ongi, xulq-atvori va his-tuyg'ularini uyg'un holda qayta shakllantirilishi; yirik mashinasozlik sanoatining uzluksiz rivojlanib borishi; ishlab chiqarish jarayonlarini tabaqalashtirish va integratsiyalashtirilishi; ishlab chiqarishni





ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirilishi; ishlab chiqarishni majmuaviy mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va robotlashtirilishi; ishlab chiqarishning intellektuallashuvi; xo'jalik hisobi, o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash; sanoat sohasi bilan mashg'ul mutaxassislar sonini qisqarishi; maishiy xizmat ko'rsatish darajasining ortib borishi; mehnatni tashkil etishni demokratlashtirish, o'zi o'zini boshqarish va shu kabilar.

Bu qonuniyatlarga asoslanib, ta'limda, shuningdek, kasbiy tayyorgarlik jarayonida yuqori natijalarga erishiladi, aks holda salbiy oqibatlarga olib keladi. Ta'lim nazariyasi (didaktika) eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari orasida muhim va zarur aloqadorliklarni yorituvchi ob'ektiv qonunlarni yoritishga imkon beradi. Bu qonunlar o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonlarini ob'ektiv rivojlanishini tushunish imkoniyatini beradi. Lekin ular amaliy faoliyat uchun bevosita ko'rsatma bo'lmasdan, balki uning texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun nazariy asos hisoblanadi. Ta'limni amalga joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar ularni amalga oshirish prinsiplari va qoidalarida o'z ifodasini topadi.

Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining asosiy masalalaridan biri – ta'lim prinsiplaridir. Yuqorida zikr etilgan qonuniyatlardan ma'lum qoidalar kelib chiqadi. Biz ta'lim qoidalari, tamoyillari va prinsiplarini sinonim sifatida e'tirof etib, xalqaro ko'lamda prinsip deb yuritilganligi bois ushbu iboradan foydalanamiz. ***Ta'lim prinsiplari***–*bu pedagogik jarayonning barcha tashkil etuvchi komponentlariga tegishli asosiy qoidalar tizimidir.* Bu qoidalar tizimini bilmaslik yoki ularga asoslanishda no'noqlikka yo'l qo'yish butun yaxlit kasbiy ta'lim-tarbiya ishiga to'sqinlik qiladi. Ta'lim prinsiplari tizimini birinchi bo'lib chex pedagogi Ya.A. Komenskiy ilmiy asosda ishlab chiqdi. U bu prinsiplarni, o'quv jarayonini tashkil etilishi uchun asos bo'ladigan qoidalar deb atagan edi. Pedagogik jarayonda amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar, ya'ni prinsiplarning mohiyatini bilish ushbu jarayon haqida aniq bilimga ega bo'lish imkonini beradi.

**Didaktik prinsiplar** – bu ta'limning umumiy maqsadlari va qonuniyatlarga binoan uning mazmuni, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metodlari va vositalarini belgilovchi asosiy qoidalardir. Boshqacha aytganda, ta'lim prinsiplarida ta'lim-tarbiyaning me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Didaktik kategoriya sifatida prinsiplar ko'zlangan maqsadga mos holda qonun va qonuniyatlardan foydalanish usullarini tavsiflaydi.

Qoida o'qituvchiga aniq u yoki bu vaziyatda qanday xatti-harakat, ma'lum talablarga amal qilish zarurligini ko'rsatadi. Pedagog olimlar tomonidan ko'p sonli didaktik hamda texnologik va kasb ta'limining xususiy prinsiplari e'tirof etilgan. Prinsiplar tarixiylik xususiyatiga ega bo'lib, yangilari shakllantiriladi va eskilari esa takomillashtirilib boriladi.

Pedagogik jarayon amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar, ya'ni prinsiplarning mohiyatini bilish ushbu jarayon haqida aniq bilimga, tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Shu bois, biz quyida ularning ba'zi birlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.



1. **Pedagogik jarayonning tizimlilik (yaxlitlik, bir butunlik) prinsipi** – ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi (kamoloti)ning uyg'unligi, muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi. Bu prinsip ta'lim maqsadi va mazmunini aniqlash, uning tashkil etish shakllari, amalga oshirish metod va vositalarini tanlash, maqsad bilan natijaning uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi.

2. **Asoslanganlik prinsipi** – turkum o'quv predmetlarini o'rganish ob'ekti (predmet, hodisa, jarayon, hatto tirik mavjudotlar)ning mohiyati, muhim xususiyatlari, aloqalari, ob'ektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o'zida ifodalaydi. U har bir o'quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, o'zi uchun “yadro” va “o'zak” hisoblangan ma'lumotlarga ega bo'ladi hamda ushbu ma'lumotlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, uning aniq soha bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishida tayanch bo'lib xizmat qiladi. O'quv materialiga bunday yondashuv axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida pedagogik jarayonni maqbullashtirish, jadallashtirish asosiy o'quv materialini mukammal o'zlashtirishga imkon beradi

3. **Insonparvarlashtirish prinsipi** – pedagogik amaliyotda insoniylashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi. Bu har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan yunoncha “humanus” insoniylik va “humanitas” insoniyat so'zidan olinib, bir o'zakka ega bo'lsada, ularning boshqa-boshqa ma'nolar anglatishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari mazmuniga inson omili, uning qadr qimmat, shani, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlash g'oyalarini singdirish zarurligini nazarda tutadi.

4. **Insoniylashtirish prinsipi** – ob'ektiv olamdagi barcha ne'matlar, shart-sharoit inson kamoloti, kishilik jamiyati farovonligi, tinchligi uchun xizmat qilishi (shartligi) haqidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oya, hozirgi zamon va istiqbol talablari pedagogik jarayonga yakka hokimlik (avtoritar) tarzida yondoshmay, balki uni ishtirokchilarning hamkorligi asosida tashkil etib amalga oshirish zarurligini asoslaydi.

5. **Uzluksizlik prinsipi** – fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda qo'llash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun shaxsga uning butun umri uchun etarli bo'lgan bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini belgilangan vaqt davomida berish mumkin bo'lmay, balki u butun hayoti davomida takomillashtirilib borishini nazarda tutadi. Mazkur prinsip o'qituvchidan ta'lim-tarbiya ishida tahsil oluvchilarning mustaqilligini ta'minlash uchun kerakli shart-sharoit yaratishni talab qiladi.

6. **Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bog'liqlik prinsipi** – tahsil oluvchilar o'zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot (ish) faoliyatida qo'llangan yoki unda dasturulamal bo'lib xizmat qilgandagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo'llanmagan bilimlar asossiz bo'lib, qisqa vaqt davomida unutiladi. Bunda bilim, ko'nikma va malakalar ma'lum tartibda shakllantirilib, amalda qo'llanilishi ko'zda tutiladi.



7. **Ta'limning ilmiylik prinsipi.** Bizni qurshab turgan olamni bilish jarayoni murakkab va ziddiyatli. Ilmiy bilish hodisadan mohiyatga, narsaning tashqi ta'siridan uning ichki tuzilishini tasvirlashga o'tishdan iboratdir. Agar o'quv materialini tahsil oluvchini qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremlar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb ataladi. Ular aqliy rivojlanish uchun etakchi ahamiyatga egadir. Faqat ana shunday bilimlarga o'quv predmetining ilmiy mohiyatini anglab etishga, kelgusida esa fan asoslarini chuqurroq egallab, mehnat va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga, sabab-oqibat munosabatlarini uzviy bog'liq anglanishiga imkon beradi.

8. **Tushunarlik prinsipi.** Bilimlarni o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi tahsil oluvchilarning rivojlanish darajasi, shaxsiy tajribasi bilan aloqasini ko'rsatadi. Agar bunday aloqalarni aniqlab bo'lmasa, bilimlar tushunarli deb hisoblanmaydi.

Olamda barcha ob'ektlar o'zaro bir-biriga bog'liq, barcha ob'ektlar hodisalar orasida aloqa mavjud. Shuning uchun barcha ilmlar, barcha o'quv predmetlari o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Tahsil oluvchi o'zlashtiradigan bilimlar insoniyat tajribasining bir zarrachasi hisoblanadi va shuning uchun ham yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan hamisha bog'lash mumkin.

9. **Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi.** Kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida o'qitish bolalarning katta avlodga taqlid qilishlari, katta yoshdagi kishi bajargan amaliy xatti-harakatlarni qaytarish hisobiga olib borilar edi. O'qitishning bu sodda shakli ishonarli va samarali bo'lganligi tufayli hozirgi kungacha saqlanib qoldi. XVII asrda Ya.A. Komenskiy ko'rgazmalilik prinsipini har qanday tarzda o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi negizi sifatida ta'rifladi. I.G. Pestalossi bu prinsipni o'qitishning asosiy vositasiga aylantirdi. Bu prinsipga amal qilinganda eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlari jalb etiladi. Shuning uchun ham xalqimizda "Yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan ma'qul" degan maqol o'rinli qo'llaniladi. Ko'rgazmalilik zarur bo'lgan joyda me'yorida ishlatilsa samara beradi, me'yor buzilganda esa tahsil oluvchilarning fikri asosiy materialdan yiroqlashadi. Ularning tafakkur doirasi torayadi, aksincha ko'rgazmalilik kerakli joyda o'rinli qo'llanilsa o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar tahsil oluvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanadi.

Ko'rgazmalilik prinsipining hozirgi izohi quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'rgazmalilik deganda tahsil oluvchining hissiy bilishini tashkil qilish tushuniladi.

2. Ko'rgazmalilik qurollardan foydalanish o'quv jarayonida hissiy bilishni tashkil etishning bir jihati hisoblanadi.

10. **Ta'limning onglik va faollik prinsipi.** Bu prinsip tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga psixologik jihatdan asos qilib olingan qoida sifatida quyidagi uchta muhim jihatni: tahsil oluvchilar tomonidan o'quv materialining ongli ravishda tushunilishini, o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishni, bilish faoliyatining shakllanishini o'z ichiga oladi.



11. **Ta'limning puxtalik prinsipi.** O'quv materialini o'zlashtirishning puxtaligi quyidagi omillarga: tushuntirishning ilmiyligi va tizimlilikiga, tushunishning ongliligiga; tahsil oluvchilarning bilish faolligiga, o'qish sabablariga, o'qituvchining mahorati va shu kabilarga bog'liq.

12. **Tarixiylik prinsipi.** O'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida mashg'ulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinsa dasturiy material boyitiladi, yangisi bilan bog'lanadi, istiqbolda o'rganiladiganlariga ishora qilinadi va uni puxta o'zlashtirishga imkon yaratiladi. Shu yo'l bilan ta'limdagi ketma-ketlikni ifoda etish imkoniyati tug'iladi, natijada o'zlashtirilgan bilim, xatti-harakat usullarini yaxlitligi ta'minlanadi.

13. **Ta'limni individuallashtirish prinsipi.** Har bir tahsil oluvchi umumiy xislatlaridan tashqari individual xislatlarga ham egadir. Tahsil oluvchining bilishi, irodasi, hissiyotiga oid xususiyati, shaxsiy xislatlari ta'limning borishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki betaraf qolishi mumkin. Tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda mashg'ulot (dars) jarayonini tashkil qilish – o'qitishni individuallashtirish deb yuritiladi.

Kasb-hunar pedagogikasida kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi xususiy prinsiplar qo'llaniladi. Bu prinsiplar umumiy didaktik prinsiplar bilan bevosita aloqador bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yilgan talablar va u amal qilishi lozim bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

14. **Kasbiy mobillik prinsipi** - insonni tez fursat ichida hayotga tatbiq etilayotgan yangi texnika va samarali texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini ko'zda tutadi. Mehnatning tezkor moslashuvchanligi, ijodiy tavsifi bevosita inson dunyoqarashi, bilimlar ko'lamining kengligi, kasbiy faoliyatda uchraydigan muammolarning echimini tezkorlik bilan topishiga bog'liq psixolog olim L.S. Vygotskiy iborasi bilan aytganda "Amaliyotdan ilgari yurib, u uchun yo'l ochib beradigan ta'lim yaxshi hisoblanadi". Shuning uchun ham bugungi tahsil oluvchi nimani bilishiga emas, balki nimani uddalay olishi va ertangi kunda nimalarga qodir bo'lishi mumkinligiga diqqat-e'tiborni qaratish zarur.

15. **Kasbiy ta'limning modullilik prinsipi** – modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, tahsil oluvchi o'ziga berilgan axborotlar banki va metodik ko'rsatmalardan iborat shaxsiy o'quv dasturiga asoslanib mustaqil holda didaktik maqsadga erishadi. Modulli ta'lim maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: ta'lim mazmunan o'ziga xos, dinamik o'zgaruvchan va tezkor bilimlarni ajratib oladi; dastur variativ xarakteriga ega; ijtimoiy buyurtmaga binoan mazmun o'zgaradi. Modulli ta'limdan foydalanish o'quv materiallarini, ya'ni uning bilimlari prinsipini tuzishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, yaxlitligini saqlab qolgan holda mazmuni o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish imkonini beradi.

Modullilik prinsipini amalga joriy etish quyidagilarni ta'minlaydi:

- sub'ekt maqsadlarga erishish uchun barcha faoliyat ko'rinishlarini integratsiyalashga va muntazam ravishda sub'ekt maqsadlariga etishish borasida muqobil echimlarni izlashga;



- istiqbolda sub'ektni kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo'naltirishga;
- modullar hayotning barcha sohalaridagi, shu jumladan fan-texnika, texnologiyalardan o'zgarishlarni tezkorlik bilan hisobga olish imkoniyatini beradi.

16. **Qulay muhit hosil qilish prinsipi** - eng avvalo mehnat va hayot xavfsizligi, moddiy-texnik va o'quv uslubiy negiz, texnik, texnologik, ergonomik, iqtisodiy, pedagogik, sanitariya-gigiena, ekologik va shu kabi talablarga amal qilishni ko'zda tutadi. Bunday muhitni hosil qilish quyidagicha ijtimoiy, psixologik, pedagogik tizimlarni ishlab chiqish va amalga joriy etishni talab etadi.

Me'yoriy mehnat sharoitini yaratish, pedagogik ta'sirni maqbullashtirish tizimi.

17. **Ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borish prinsipi.** Nazariy ta'lim bilan amaliyotning bog'liqlik prinsipi. Nazariya va amaliyotning aloqadorligi ikki tomonlama jarayon. Ular bir-biri bilan organik aloqador. Bu prinsipning amalga oshirilishi quyidagi shart-sharoitlarga amal qilinishiga bog'liq:

- nazariy bilimlar amaliyotga nisbatan ilgari lab borishi, amaliy mashg'ulotlarda uning to'g'riligi tekshirilishi lozim;
- har qanday mehnat jarayonida turli soha bilimlari va malakalari sintezlanishi zarur;

- malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun soha bilimlari sintezlanishi lozim. Shu jihatdan ta'lim mazmunini integratsiyalash quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshirilishi kerak: birinchidan, yagona predmet doirasida kasbiy bilim va malakalarni yiriklashtirish, ikkinchidan, maxsus bilim va malakalarning o'zaro aloqadorligini gorizontol yo'nalishida ta'minlash.

18. **O'quv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirish prinsipi** – o'quv materialining har bir bo'lagini kasbiy faoliyatdagi o'rnini ko'rsatish, avval o'zlashtirilgan materialga tayanish va istiqbolda o'rganiladiganiga ishora qilishni ko'zda tutadi.

19. **Iqtisodiy maqsadga muvofiqlik prinsipi** - ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning maqsadga muvofiqligi, ularga bo'lgan davlat va jamiyat talab hamda ehtiyojlarining maqbul qondirilishini ko'zda tutadi

20. **Ta'limda predmetlararo bog'liqlik prinsipi:** ta'lim muassasalarida o'rganiladigan umumta'lim, umumkasbiy va maxsus turkum o'quv predmetlari boshqa o'quv predmetlari bilan o'zaro bog'liq holda o'qitilsa bo'lajak kichik mutaxassislarda tizim shaklidagi mukammal bilim, hatti-xarakat usullari va shaxsiy fazilatlar shakllanadi. Bunda o'quv predmetidagi mavzular takrorlanmasdan, balki bir-birini to'ldirib boradi.

21. **Refleksivlik prinsipi** – sub'ektning o'z shaxsiy faoliyatiga, o'zlashtirgan hayotiy tajribasiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini tavsiflaydi.

22. **Maqbullik prinsipi** - pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, mavjud imkoniyatning hisobga olinishi, oz vaqt, mablag' va zo'riqish kuchlari sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi.

23. **Ta'lim-tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv prinsipi** – tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali,



xususan tahsil oluvchilarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichlariga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiyani ijtimoiylashtirish, tahsil oluvchilar tomonidan ijtimoiy tajribaning individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishini ko'rsatadi.

**24. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot prinsipi** – pedagogik jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini nazarda tutib, barcha turdagi ta'lim muassasalari faoliyatini bu jarayon ishtirokchilari imkoniyatlari, davlat va jamiyat talablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olish, ularni uyg'unlashtirish, integratsiyalashtirishni ko'zda tutadi.

**25. Muntazamlilik prinsipi.** Uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'inlari orasida, davlat talablari va davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, o'quv predmetlari dasturlari orasida ma'lum ketma-ketlikka amal qilishni ko'zda tutadi. Muntazamlilik ob'ektlar, jarayonlar, hodisalar, tushunchalar, dalillar orasidagi ichki aloqalar, nazariy qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu prinsip o'rganilayotgan materialdan etakchi g'oyalar, tushunchalar, qoidalarni aniqlash, ularning boshqa tushunchalar bilan aloqalarini o'rnatish, ta'limdagi ba'zi bir umumiy qonunlarni yoritib berish uchun ular rivojlanishining manbai hisoblanadi. Muntazamlilik prinsipi amalga oshirilayotganda albatta, uzviy, predmetlararo, uzaro aloqalarni ko'zda tutish muhimdir.

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida pedagog kadrlarni tayyorlashni hozirgi zamon va istiqbol talablariga moslashtirish, faol ta'lim omillari, kasbiy ta'limning xususiy prinsiplaridan keng ko'lamda foydalanish nazarda tutilgan. Shu bois, biz quyida ularning ba'zi birlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**26. Ta'lim mazmunining barqarorligi va dinamik o'zgaruvchanligi prinsipi** asosida dialektik miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlariga o'tishi yotadi. Fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga tezkorlik bilan joriy etilishi kasbiy ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv-me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi zarur. Bu o'zgarishlarda ta'lim mazmunining nisbatan past darajasi yuqori darajasiga dialektik tarzda o'zgaradi. Hozirgi zamon va istiqbol talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashda nisbatan barqaror, asosiy yadro hisoblangan, bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini ilmiy asosda shakllantirmasdan tayyorlash mumkin emas. Shuningdek, zamondan orqada qolib ketmaslik uchun fan-texnika va texnologiyalardagi o'zgarishlarni muntazam ravishda o'rganib borish ham zarur.

Muntazam ravishda yangi tushunchalar, dalillar, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni o'zlashtirilishi bevosita sifat o'zgarishiga olib kelib, yangi nazariyalar yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu holat o'quv-dasturiy hujjatlarning takomillashtirilishini talab etadi.

O'zgaruvchanlik avval aytib o'tilgandek, yangi texnika, texnologiya, tashkil etish va boshqarish mohiyatini yoritadi, yangi energiya manbalari, xom-ashyo



materiallari ishlab chiqarishni maqbullashtirish, mehnatni ilmiy tashkil etish, alohida fan yutuqlari bilan tahsil oluvchilarni tanishtirish, yangilik yaratuvchi, ixtirochilar tajribalarini o'zlashtirishga imkon beradi.

**27. Reduksiyalash prinsipi** - fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng ko'lam va tezkorlikda joriy etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan axborotlarning shiddatli oqimi sharoitida o'quv materialini imkoni boricha qisqartirish, ya'ni eng muhim tizim hosil qiluvchi qismini ajratib olishni ko'zda tutadi. Bu qisqartirish Davlat ta'lim standarti orqali belgilangan mazmunning etarli va zarur darajasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi kerak.

**Reduksiyalash** iborasi texnika va texnologiyalarda qo'llaniladigan, lotincha-inglizchadan olingan, "reduktor" tushunchasiga o'zakdosh bo'lib, "axborot hajmini o'zgartirish" ma'nosida qo'llaniladi. Bunda ta'lim mazmunining standart darajasida saqlanishi asosiy shart hisoblanadi. Zero, yangi texnikalarni boshqarish, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini amalga oshirishga layoqatli mutaxassis kadrlar tayyorlashga erishilsa, ijtimoiy hayotda ezgu niyatlar qaror topadi.

**28. Politexnik prinsip**- bo'lajak kichik mutaxassislarda zamonaviy texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari haqidagi umumiy, moslashuvchan, tizimli bilim hosil qilishni ko'zda tutadi.

Bu prinsip hozirgi zamon ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalari to'g'risida umumiy ma'lumot berish, ishlab chiqarishda eng ko'p uchraydigan texnologik jarayonlarni bilishni, mashina va mexanizmlarning tuzilishi va ishlash tartibidagi umumiylikni bilish, xilma-xil mehnat malakalariga ega bo'lishni, mehnatga aloqador masalalarni ijodiy hal qila olish va ratsionalizatorlik ishlarini olib borishni, o'zlashtirilgan bilimlarni mohirlik bilan amalga tatbiq eta olishni ko'zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, politexnik prinsip zamonaviy texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini umumiy asoslari bilan tanishtirish, tizimli bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish asosi hisoblanadi.

**29. Kasbiy yo'nalganlik prinsipi** birinchidan, umumta'lim o'quv predmetlari mazmunini mukammal egallanishi ko'zda tutilgan kasb va ixtisoslik bilan bog'laydi; ikkinchidan, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini faollashtiradi; uchinchidan, o'zlashtirilayotgan bilimlarning ko'lamini kengaytiradi va chuqurlashtiradi; to'rtinchidan, bilimlar tizimlilikiga erishiladi; beshinchidan, ta'lim maqsadi va jarayon ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlaydi. O'qituvchining kasbiy yo'nalganlik prinsipiga amal qilmasligi ta'lim-tarbiya samarasining nisbatan past bo'lishiga olib keladi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Texnologik va kasb ta'limi didaktikasining metodologik asoslarini nimalar tashkil etadi?

2. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi qanday ta'lim turlarini o'ziga qamrab olgan?



3. Kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonini tizim sifatida tashkil etuvchi komponentlarni sanab, ularning mohiyatini tushuntiring.
4. Texnologik va kasb ta'limida keng ko'lamda qo'llaniladigan beshta didaktik kategoriyani sanab, ularga izoh bering va mohiyatini tushuntiring.
5. Texnologik va kasb ta'limi qanday qonuniyatlarga asoslanadi?
6. Kasbiy ta'lim-tarbiya ishida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyat va qoidalarga umumiy holda nima deb ataladi?
7. Ta'lim prinsiplariga izoh berib, ularning mohiyatini tushuntiring.

### Adabiyotlar

1. Abduqudusov O.A. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. T.: 2013.- 240 b.
2. Дидактика в схемах и таблицах, Учебное пособие, Коркина В.И., 2013. - 240 s.
3. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: O'zbekiston, 2018. – 168 b.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.
5. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2014. 389 b.
6. Olimov Q.T., Axmetjanov M.M., Uzoqova L.P., To'xtayeva Z.Sh. Kasbiy pedagogika. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. – 495 bet.
7. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
8. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: “DELTA PRINT SERVIS”, 2018. - 156 b.
9. Shuvalova M.A. Формирование профессиональных компетенций техников высокотехнологичной отрасли в дуальном образовании: Diss. ... kand. ped. nauk. – Krasnoyarsk.: 2016. – 195 s.
10. Irxina I.V. Развитие дидактической системы учителя в профессиональной деятельности: Diss. ... dokt. ped. nauk. – Belgorod.: 2007. – 430 s.





## 2-Mavzu: Texnologik va kasb ta'limining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari. Texnologik va kasb ta'limi mazmuni.

### Reja:

1. Texnologik va kasb ta'limining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari.
2. Texnologik va kasb ta'limi mazmuni.
3. Ta'lim mazmunini didaktik tahlili. Ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar.

**1. Texnologik va kasb ta'limining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari.** Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish muammosi shu paytgacha pedagogik jarayonning alohida elementlarini takomillashtirish, o'qish muddatini oshirish, o'quv guruhida tahsil oluvchilar sonini kamaytirish, tor ixtisosliklarni kiritish, yangi shakl, metod va vositalardan foydalanish yo'lidagi izlanishlar kabi yo'llar bilan amalga oshirilgan.

Professional ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ilmiy tashkil etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- tahsil oluvchilar, o'qituvchilar va muhandis-pedagoglarning ishlashlari uchun imkon qadar yaxshi shart-sharoit yaratish;
- o'quv kabinetlari, laboratoriyalar va ustaxonalarni tashkil etish, ularni davr va istiqbol talablari darajasida jihozlash;
- o'quv ustaxonalari, laboratoriya, mashq maydonlari va kabinetlarni zamon fani, texnikasiga mushtarak jihozlar, priborlar, mexanizmlar, moslamalar, asbob-uskunalar, ko'rsatmali qo'llanmalar, texnik vositalar bilan jihozlash;
- zamonaviy fiziologik, sanitariya-gigienik va estetik talablar asosida o'quv xonalari, laboratoriyalar, ustaxonalar uchun mebellar tayyorlash;
- har bir o'quv kabineti, ustaxona, laboratoriyalarda o'qituvchi, muhandis-pedagoglar va tahsil oluvchilar uchun barcha zaruriy asbob-uskunalariga ega ishchi o'rinlarini tashkil etish;
- oqilona mehnat va dam olish, shuningdek sanitariya-gigiena shart-sharoitlarini yaratish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini o'z vaqtida sifatli materiallar, asbob-uskunalar, o'quv-me'yoriy, texnik-texnologik hujjatlar va o'quv ma'lumotnoma adabiyotlari bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yish, laboratoriya amaliy ishlarini oldindan tayyorlab qo'yish va h.k.

Shu sohadagi ko'p yillik amaliy faoliyatimiz, texnologik va kasb ta'limi nazariyasi va amaliyotini tahlil etish, soha mutaxassislari bilan o'tkazgan suhbatlarimiz bu sohada quyidagi majmuaviy xarakterga ega bo'lgan muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

- professional ta'limi tizimida kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish masalasi, uzluksiz ta'limni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida



belgilangan, biroq uni amalga oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar etarli darajada ishlab chiqilmaganligi sababli yuqori salohiyatli pedagog kadrlarning boshqa sohalarga ketib qolish hollari kuzatilmoqda, natijada ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi pasayib ketmoqda va bu holat o'z navbatida kadrlar tayyorlash sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha maxsus kurslarning mavjud emasligi;
- rahbar va boshqaruv kadrlari tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarning muntazam ravishda va tizimli o'rganilmasligi;
- rahbar va boshqaruv kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlarining etarli darajada olib borilmayotganligi;
- joylarda kadrlar zahirasini tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilmaganligi;
- mavjud malaka oshirish kurslarining professional ta'limi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirilmaganligi;
- texnologik ta'limni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan etarli darajada foydalanilmayotganligi;
- muhandis-pedagog kadrlar tayyorlashda sohalar bo'yicha hududlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, ularning malaka darajasiga bo'lgan mehnat bozori talablari etarli darajada o'rganilmaganligi;
- texnologiya ta'limi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining o'quv reja va dasturlari mazmuni bilan umumta'lim tizimidagi ta'lim mazmuni orasida nomutanosibliklar mavjudligi;
- ta'lim muassasalari va o'qituvchilar sifatiga baho beruvchi tizim mexanizmi ishlamayotganligi;
- texnologiya ta'limi bo'yicha umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog va muhandis-pedagoglarning orasida nafaqat pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan kadrlar, balki, diplom bo'yicha mutaxassisligi mos kelmaydiganlar sonining ko'pligi;
- texnologiya ta'limi bo'yicha umumta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari, o'quv-uslubiy adabiyotlar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv qo'llanmalarini o'z vaqtida va sifatli yaratish ishlarini amalga oshiruvchi va muvofiqlashtiruvchi ixtisoslashtirilgan metodik markazning mavjud emasligi;
- o'qituvchi va tahsil oluvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini baholashning barcha ta'lim turlari uchun yagona va sodda reyting tizimi yaratilmaganligi;
- uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashning puxta mexanizmi ishlab chiqilmaganligi;
- texnologiya ta'limi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning amaliy ko'nikmalari etishmayotganligi va shu kabi ko'p sonli majmuaviy muammolar mavjudligidan darak bermoqda.



Har qanday pedagogik tadqiqot maxsus dastur asosida o'tkaziladi. Tadqiqot natijalari ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi zarur. Tadqiqot mantig'i turli bosqichlarni ko'zda tutadi.

Ilmiy pedagogik tadqiqot amaliyot uchun yangi muhim bilimlarni olishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyat jarayoni va natijasidir. Ilmiy pedagogik tadqiqot natijalari ta'lim-tarbiya tuzilmasi, mazmuni va texnologiyasi, tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishga imkon beradi.

Olimlar tomonidan ilmiy pedagogik tadqiqotlar quyidagicha uch guruhga bo'linishi e'tirof etilgan:

**I. Fundamental ilmiy tadqiqotlar.** Bu umumlashtiruvchi konsepsiyalar natijasida buyuk yutuqlarga erishiladi, avval noma'lum bo'lgan qonuniyatlar bog'liqlik asosida o'z echimini topadi.

**II. Amaliy (tajriba-sinov) harakterdagi tadqiqotlar** ta'lim-tarbiya jarayonining alohida qirralarini chuqur o'rganish, avval shakllantirilgan qonun va nazariyalardan amaliy foydalanish shart-sharoitlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

**III. Metodik ishlanmalar yoki amaliyotga yo'nalgan tadqiqotlar** - avvaldan ma'lum bo'lgan nazariy qoidalarni hisobga olgan holda aniq tavsiyalarni ilmiy uslubiy jihatdan asoslash. Bunday tadqiqotlar asosan alohida o'quv predmetlarini o'qitishni takomillashtirish sinfdan va ta'lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni imkon qadar samarali o'tkazishni ko'zda tutadi. Har qanday pedagogik tadqiqotlar eng kamida quyidagicha to'rt bosqichni o'ziga qamrab oladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi (tadqiqot dasturini tuzish, maqsad va vazifalarni belgilash, muammolarning nazariy va amaliy holatini aniqlash maqsadida manbalar bilan tanishish, o'z farazini ilgari surish, tadqiqot bosqichlarini belgilab olish);

2. Asosiy tadqiqotchilik tanlangan metodik majmuani qo'llash;

3. Miqdoriy va sifat tahlili bosqichi- olingan ma'lumotlarni qayta ishlash;

4. Yakuniy bosqich – tadqiq etilayotgan pedagogik jarayonning kechishini tavsiflovchi sabab, omil, shart-sharoitlari o'rnatiladi, tushuntiriladi va umumlashtiriladi.

**Pedagogik tadqiqot prinsiplari:** ob'ektivlik, ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik, uzviylik, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.

Pedagogik tadqiqotlar metodlari: ma'lumki, har qanday ilmiy bilish jarayoni quyidagicha uch o'zaro aloqador tarkibiy qismlardan tashkil topadi; bilish ob'ekti, o'rganuvchi sub'ekt va bilish metodi, ya'ni tadqiq etish instrumentariysi.

Metod (grekcha nimagadir erishish yo'li) maqsadga erishish usuli, ma'lum ma'noda tartibga keltirilgan faoliyat kabi umumiy ma'nolarni anglatadi.

Pedagogik tadqiqotlar metodlari, tadqiqotchi tomonidan real pedagogik voqelik haqidagi dalil va ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish va tahlil etish usullaridir. Pedagogik tadqiqot metodikasi deganda metodlar yig'indisi, aloqadorligi va ulardan foydalanish ketma-ketligi tushuniladi. Tadqiqot metodlaridan majmuaviy foydalanish bizni sub'ektiv ta'sirdan xalos etadi.

Pedagogik tadqiqot metodlari amalda nazariy va empirik turlarga bo'linishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan.



**1. Nazariy metodlar:** ilmiy pedagogik manbalarni tahlil qilish, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, turlash (shajaralash), analogiya, taqqoslash kabilar.

**2. Empirik metodlarga** ma'lumotlar olish va yig'ish (kuzatish, suhbat, anketa so'rovnomasi, test so'rovnomasi va shu kabilar); ma'lumotlarga ishlov berish (matematik, statik, grafik, jadval); baholash metodlari (o'zini-o'zi baholash, reyting, pedagogik konsilium); pedagogik tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish (tajriba-sinov ishlari, tajribaviy o'qitish, ommaviy o'qitish) kabilar. Tadqiqotchi aniq shart-sharoit va vaziyatga binoan maqbul metodlar uyg'unligini tanlaydi. Ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining prinsiplari, metod va usullarini bilish fanning metodologik asoslarini bilishni anglatadi.

Pedagogik jarayon yaxlit hodisa bo'lib, unda biologik, ijtimoiy, individual va jamoaviy jihatlar murakkab o'zaro munosabat hamda ta'sirda bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini harakatlantiruvchi kuch shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi va takomillashtirishi hisoblanadi.

Pedagogik jarayon ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish qonunlari haqidagi bilimlar asosida qo'yilgan maqsadga uyg'un holda tahsil oluvchilar faoliyatini tashkil etishdir. Pedagogik jarayon boshqa ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy – axloqiy va shu kabi jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning maqsadi, vazifasi, mazmuni, ishtirokchilarining hamkorlik faoliyati va natijalarida o'z ifodasini topadi.

Pedagogik jarayonga tashqi: tabiiy geografik, ijtimoiy, ishlab chiqarish, madaniy va shu kabi shart-sharoitlar ta'sir qiladi. Pedagogik jarayon o'zining maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari ishtirokchilarining o'zaro ta'siri, erishilgan natijasi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik jarayonning yaxlitligi maxsus o'quv dasturiga binoan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar birligini ta'minlash bilan amalga oshiriladi. Pedagogik jarayonning mazmun komponenti ma'lum o'quv dasturlari bilan aniqlanib, insoniyat jamiyatining ijtimoiy munosabatlar, g'oyalar, ishlab chiqarish, mehnat, fan va madaniyat sohalaridagi tajribalarini o'zida mujassamlashtiradi.

**2. Texnologik va kasb ta'limi mazmuni.** U yoki bu ta'lim texnologiyasining tanlanishi eng avvalo maqsadga, ya'ni qanday darajada bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarining o'zlashtirilishi nazarda tutilganligiga bog'liq.

Aniq maqsadni ko'zlamagan mashg'ulot samara bermaydi, chunki olingan natija bilan ko'zlangan maqsadni bir-biriga qiyoslab pedagogik jarayon (mashg'ulot) samaradorligini aniqlash mumkin, xolos. Yetarli darajada aniq bo'lmagan maqsadsiz mashg'ulot ishtirokchilarning ortiqcha hissiyotlarga berilishi, tahsil oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatiga undovchi rag'batning pasayishi, o'quv materialini, o'quv predmeti, tanlagan kasbiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishi kabilarga sabab bo'ladi.

An'anaviy ta'limda maqsadni pedagog faoliyati orqali ifodalashga intilgan. Masalan, "Qishloq xo'jalik mashinalari" o'quv predmeti bo'yicha "Erga asosiy ishlov berish mashinalari" mavzusini o'rganishda, dars maqsadi – "Pluglarning



turlarini bayon etish” – deb belgilangan. Maqsadni bunday ifodalash bir tomonlamalikni keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Ta'lim-tarbiya va tahsil oluvchi shaxsini rivojlantirish maqsadlarini ta'lim mazmuni, pedagog va tahsil oluvchining faoliyati orqali ifodalash bu sohada kutilayotgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Maqsadni tahsil oluvchilar xatti-harakatida ifodalanadigan aniq ko'rinadigan va o'lchanadigan natijalar orqali belgilash g'oyasi ilk bor R.Tayler tomonidan ilgari surilgan bo'lib, biz bu g'oyaga to'liq qo'shilamiz.

Kasbiy ta'lim maqsadi avvalo jamiyat va davlatning talab hamda ehtiyojiga binoan shakllantiriladi. Demak, u mashg'ulot (dars)ning ma'lum bosqichi maqsadidan to komil inson shaxsini shakllantirishgacha kengayib borishi mumkin.

Komil insonni shakllantirish jamiyatimizning oliy maqsadi bo'lib, u uzluksiz ta'lim jarayonida ta'minlanishi ko'zda tutiladi.

Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimining umumiy maqsadi quyidagi darajalarda aniqlashtirilishi mumkin:

1. Respublikamiz uzluksiz ta'limining global maqsadi – barkamol shaxsni shakllantirish;

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining maqsadi – mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali, keng ixtisosli mutaxassis kadrlarni tayyorlash.

3. Kasb-hunar kollejlarining maqsadi – aniq soha uchun DTS va TTS doirasida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega kichik mutaxassis kadrlar tayyorlash.

4. O'quv predmetlarining maqsadi – aniq sohaga oid texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining mohiyatini yorituvchi bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish.

Mavzu (mashg'ulot, dars)ning maqsadi - ilmiy tushuncha, dalil, xulosalar, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlar tizimini shakllantirish.

5. Aniq mashg'ulot (dars) va uni bosqichlarining maqsadi – motivlashtirish, shakllantirish, nazorat qilib baholash kabilar.

Amaliyotda maqsadlar vazifa sifatida ham talqin etiladi. Demak, maqsad va vazifa shunday aniq qo'yilishi kerakki, unga erishilganlik haqida aniq xulosa chiqarish imkoni mavjud bo'lsin. Buning uchun har bir vazifani shakllantirishda quyidagilarga amal qilish zarur:

- har bir vazifani (mashg'ulot)dars yakunida tahsil oluvchi quyidagilarni bajara olishi lozim...”deb boshlang;

- har bir vazifani raqamlang;

- har bir vazifani quyidagi amallar bilan boshlang: sanab o'ting, so'zlab bering, ko'rsatib bering, tanlang, hisoblang va hokazo.;

- har bir vazifani tahsil oluvchi so'zi bilan qo'ying;

- har bir vazifa faqat bitta natijani ko'zlasin, ikki yoki undan ortig'ini emas;

- har bir vazifani shunday qo'yingki, u “tahsil oluvchining o'zini keyinchalik qanday tutishi kerakligiga ishora qilsin”.

Ijtimoiy tajriba yoki madaniyatni maqsadga muvofiq pedagogik tilga o'girilishi, uni o'qituvchi tomonidan uzatilishi va tahsil oluvchilar shaxsiy



mulkiga aylanishiga imkon beruvchi omillar tizimiga pedagogik jarayon deb ataladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etuvchi muhim komponentlar sirasiga uning ishtirokchilari, maqsadi, mazmuni kiradi. Chunki bu tarkibiy qismlar (komponentlar)siz ta'lim-tarbiya va rivojlanish jarayoni meyorida kechishi mumkin emas.

Demak, pedagogik jarayonda tahsil oluvchi bilimi, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlaridagi o'zgarishlar bosh ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun ham kasbiy ta'lim-tarbiya ishi shunday tashkil etilishi zarurki, unda imkon qadar belgilangan maqsadga erishilsin, buning uchun empirik tasavvurlar va hayotiy tajribalar bilan chegaralanib qolish kamlik qiladi.

To'laqonli kasbiy ta'lim maqbul vaqt davomida belgilangan o'quv materialini tahsil oluvchilar tomonidan talab darajasida har tomonlama chuqur va puxta o'zlashtirilishini ta'minlab, jamiyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shuvchi yuqori malakali, keng ixtisosli, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashni anglatadi. Bundan kasb-hunar ta'limining aniq maqsadga yo'nalganligi kelib chiqadi. Ana shu maqsadga yo'nalganlik o'z navbatida jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, kasb-hunar ta'limi o'ziga xos ijtimoiy vazifani bajaradi.

Kishilik jamiyatining turli tarixiy davrlarida kasb-hunar ta'limining maqsadlari, mazmuni, hajmi, xarakteri, tashkil etish shakllari, amalga oshirish metod va vositalari turlicha bo'lgan.

Texnologik va kasbiy ta'lim mazmunining hajmi kishilik jamiyati tajribalari, madaniyati ko'lamiga, xarakteri esa uning darajasi, yo'nalishi va eng avvalo jamiyat tuzilmasiga bog'liq bo'ladi. Bundan jamiyat maqsadi, talab va ehtiyojlari, orzu-umidlariga binoan kasbiy ta'lim-tarbiya mazmuni, uning asosiy g'oyasi, tarkibi va yo'nalishi aniqlanishi kelib chiqadi.

Ta'lim jarayonida tahsil oluvchilar ta'lim (o'quv materialini) mazmunini o'zlashtiradilar. Bu mazmun qancha kam va tushunarli bo'lsa, kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni ham unga mos holda qisqa vaqt davomida amalga oshiriladi. Lekin bu jarayon samaradorligi aniq boshlang'ich va so'nggi holatiga ko'ra baholanadi. Umuman, ta'lim-tarbiya, shuningdek, kasb-hunar ta'limi jarayoni murakkab jarayonlar turkumiga mansubligi e'tirof etilgan. Chunki o'quv materialini o'zlashtirilishini ta'min etuvchi psixik jarayonlarni bevosita kuzatish imkoniyati mavjud emas. Ular to'g'risida tahsil oluvchilarning tashqi hatti-harakatlari va erishilgan natijaga binoan xulosa chiqarish mumkin xolos. Shuning uchun ham kasb-hunar ta'limining mohiyatini tushunish uning qonuniyatlari va qoidalarini bilishni talab etadi.

Biz texnologik va kasbiy ta'lim mazmuni deganda pedagogik tilda o'z ifodasini topgan jamiyat to'plagan tajribalarni tushunamiz. U bir paytning o'zida ta'lim maqsadlari, o'zlashtirish ob'ekti, ta'lim-tarbiya natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Professional ta'limi jarayonida maqsad, mazmun, o'zlashtirish qonuniyatlariga mos aniq maqsadlar shaklida tahsil oluvchilar oldiga vazifa sifatida qo'yiladi. Tahsil oluvchilar vazifalarning mohiyatini anglab, unga mos



o'quv-bilish faoliyatini amalga oshiradilar. Natijada tahsil oluvchilarning ongli, faol, mustaqil o'quv-bilish faoliyati orqali o'quv materialini o'zlashtirilishiga erishiladi.

O'qituvchi o'zlashtirish qonuniyatlari, prinsiplari, maqbul shart-sharoitlarini bilish orqali tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zlashtirish natijalari esa, o'z navbatida keyingi xatti-harakatlar xarakterini belgilaydi. Shunday qilib, kasb-hunar ta'limi ma'lum maqsadlarning qo'yilishi bilan boshlanadi. Maqsadning qo'yilishi va uning qabul qilinishi turlicha kechishi mumkin. Eng avvalo u diqqat-e'tiborini qaratish, eshitish, ko'rish, ushlab ko'rish, xatti-harakat usullarini bajarish, ya'ni idrok (his) etish darajasida amalga oshiriladi. Keyinchalik maqsadlar murakkablashib, turli vazifalar, topshiriqlar, savollar ko'rinishiga ega bo'lib, amaliy xarakterdagi ijodiy ishlarni bajarish darajasigacha oshib boradi. Maqsadlarni tahsil oluvchilarning to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita talab va ehtiyojlari, ya'ni materialning yangiligi, tahsil oluvchining mustaqilligi, o'ziga bo'lgan ishonchi kabilarni hisobga olgan holda qo'yish zarur.

Ta'limning keyingi bosqichi yangi axborotni idrok etish va mohiyatini tushunishni tashkil etishdir. Idrok etish turli yo'llar bilan tashkil etiladi, unda avvalgi o'zlashtirilganlarga tayanish va kelgusilariga ishora qilish holatlari bir paytning o'zida kechadi. Bunda yangi materialni o'zlashtirilishini tashkil etish: induktiv, deduktiv yoki traduktiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Keyingi bosqich idrok etilganni xotirada saqlash, yangi axborotlarni mustahkamlashdir. Lekin o'qituvchi uchun har doim o'zlashtirish jarayoni qanday kechayotganligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'z navbatida teskari aloqani amalga oshirish zarur. Teskari aloqa faqat o'qituvchiga o'zlashtirish natijalarini aniqlash uchungina emas, balki tahsil oluvchilar uchun o'zini-o'zi nazorat qilish, o'qib-o'rganishga nisbatan ongli munosabatda bo'lish uchun zarur. Shuning uchun ham o'zlashtirish natijasini nazorat qilish kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonining muhim bosqichi sifatida e'tirof etiladi.

Yuqorida zikr etilgan barcha bosqichlar birgalikda texnologiya ta'limining yaxlitligini ifodalaydi. Shuningdek, bu barcha bosqichlar ochiq-oydin o'zini ko'rsatadi, degan ma'noni anglatmaydi. Real ta'lim jarayonining u yoki bu bo'lagida (bosqichida) ular o'rin almashishi va turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat pedagogik mantiqqa tegishlidir. Ta'lim jarayonini harakatga keltiruvchi kuch sifatida jamiyatning yuqori malakali, keng ixtisosli, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabi bilan ularni haqiqiy tayyorgarlik darajasi orasida ziddiyatlar e'tirof etilgan. Bu ziddiyatli holatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida barcha ko'rinishda ta'lim mazmunini o'zlashtirish va tahsil oluvchini shakllantirish, rivojlantirish qonuniyatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Demak, kasb-hunar ta'limida jamiyat talablari asosiy omil hisoblanadi. Ularsiz kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni bo'lmaydi, bo'lishi ham mumkin emas. Jamiyatda yosh avlodni tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar kasbiy tayyorgarlik natijalarini baholash uchun o'ziga xos me'yor va mezon vazifasini o'taydi. Har doim ham talab bilan tayyorgarlik darajasi bir-biriga mos bo'lavermaydi, bunday



holat o'z navbatida uzoq tarix davomida isbotlangan va muntazam ravishda rivojlanib boruvchi tajribalarni tez fursatlar ichida o'rganish mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham har doim zikr etilgan ziddiyatli holat kasb ta'limini harakatlantiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. Bu ziddiyat turlicha shaklda o'z ifodasini topishi mumkin. Har bir shaxsga kasbiy ta'lim berishda harakatga keltiruvchi kuch, bir tomondan unga qo'yilgan talab, ikkinchi tomondan, undagi imkoniyat va motivlar orasidagi ziddiyatlar hisoblanadi. Ma'lumki, motivlarsiz kasbiy ta'lim jarayoni amalga oshmaydi. Demak, tahsil oluvchilarning motivatsiyasi ziddiyatlarning muhim komponentidir.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi-tahsil oluvchi, faol o'quv-bilish faoliyati hamda ta'lim mazmunining o'zaro ta'siri, aloqadorligi jarayonida sodir bo'ladi. Aynan mana shu holat ta'limning ikki tomonlamaligi, ya'ni mazmuniy va jarayoniy jihatlarining yaxlitligini ko'rsatadi

O'zlashtirish – ilgari tajriba bilan yangisini, yangi axborot bilan avval anglangan axborotlarni bir-biriga qo'shilishidir. O'zlashtirish – ijtimoiy tajribani shaxsiy mulkka aylanishini anglatadi. O'zlashtirish – tartibsiz va maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilishi mumkin. Agar katta yoshlilar bolalar diqqat-e'tiborini o'ziga tortib ma'lum ob'ekt xususiyatlarini tushuntirsa, maqsadga muvofiq o'zlashtirish jarayoni kechgan bo'ladi. Maqsadga muvofiq o'zlashtirish ham o'z navbatida mustaqil va maxsus tashkil etilgan jarayonda amalga oshadi.

Psixologik jarayonlar: idrok etish, fikr yuritish, xotira va uning natijasi o'laroq o'zlashtirish ham ma'lum faoliyat ko'rinishidir.

Yetuk psixolog olim L.S. Vygotskiy fikricha, individning mehnat faoliyati, eng avvalo, qurollarni anglab, jamoaviy tajriba to'plash natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu tajribani yosh avlod tomonidan o'zlashtirish doimo idrok etish orqali kechadi. Shunday qilib, ma'lum materialni o'zlashtirish shart-sharoitlari va vositasi avvalo tashqi moddiy, so'ngra ichki (psixologik) faoliyatlarni birlashish (tutashish) joyida sodir bo'ladi.

Idrok etish har qanday o'zlashtirishning boshlang'ich va zaruriy sharti hisoblanadi. U eng avvalo moddiy xatti-harakatlarda, so'ngra esa moddiylashtirilgan tasvirlarda, ob'ekt sari yoki belgilarda kechadi.

Idrok etish, tasavvur hosil qila olish va undan bilim, ko'nikma va malaka darajasiga rivojlantiriladigan mazmunga binoan o'zlashtirish darajalari farqlanadi. Pedagogik psixologiyada tushunchalar, ko'nikma, malaka fikrlash usullari farqlanadi. Bu faoliyatning har bir turi o'ziga xos o'zlashtirish usullarini talab etadi.

Bilimlarni o'zlashtirish: dalillarni idrok etish, fikrlash va xotirada saqlash jarayonida kechadi. Har qanday o'zlashtirish jarayonining zaruriy komponenti xotirada saqlash hisoblanadi.

Turli vaziyatlarda avval o'zlashtirilgan bilimlarga tayanish xotirada ularni mustahkamlaydi. Bilimlar, ma'lum tartibga solinsa, boshqa bilimlar bilan qonuniy bog'lansa, tizimli bilimning ma'lum bo'lagiga aylansa to'laqonli o'zlashtiriladi. Bunday holda material hajmi o'zlashtirishga to'siq bo'lmaydi. Bilimlar qancha aniq bo'lsa, sezgi tajribalari o'zlashtirishga asoslansa, ko'rsatmalilikning roli





shuncha ortadi. Sezgi organlari kancha chegaralangan, axborot mavhum va umumlashgan bo'lsa, unga mos ravishda tahsil oluvchidan yuqori darajadagi umumlashtirish va mavhumlashtirish faoliyati talab etiladi. Lekin har qanday umumlashgan faoliyatning asosi aniq dalil, tushuncha tizimidan tashkil topadi.

**“Tushuncha”** deganda o'rganilayotgan ob'ekt (predmet, buyum, hodisa, jarayon, tirik mavjudot)ning eng muhim xususiyatlari, aloqalari, munosabatlari kabilarni o'zida ifodalovchi fikr shakli tushuniladi. Amalda tushunchalar: so'z orqali (verbal), matn, jadval, grafik, shartli belgilar ko'inishida ifodalanadi. Bunday axborot har qanday tahsil oluvchilarda mavjud bo'lgan aniq bilimlar, sezgi va tasavvurlarga tayanadi.

To'laqonli o'zlashtirishning hal qiluvchi sharti tushunchaning anglanganlik darajasi hisoblanadi.

Bilish hali uddalay bilish degani emas. Xatti-harakat usullarini o'zlashtirish o'quv faoliyatining maxsus sohasi, bosqichidir. Tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan xatti-harakat usullari psixologiyada ko'nikma va malakalar deb e'tirof etiladi.

**Malaka** xatti-harakat usullarini aniq, tez va takomil darajada amalga oshirishni anglatadi.

Ko'nikma xatti-harakat usullari bo'lib, u bir qancha operatsiyalar ketma-ketligidan tashkil topadi va umumiy maqsadga yo'nalib, o'zlashtirgan bilimlarni turli vaziyatlarda asta-sekinlik bilan qo'llashni ko'zda tutadi.

Malaka turli darajada o'zlashtirilib, har doim ong bilan nazorat qilinadi.

Har qanday xatti-harakat usullari ko'nikma yoki malakaga aylanishi uchun bir necha marta takrorlanishi zarur. Bunda malaka uchun dastlab bir xil operatsiyalarni oddiy va keyinchalik esa turli sharoitlarda takrorlash zarur.

Amaliy ko'nikma va malakalar bevosita sezish organlariga tayangan holda o'zlashtirilishi mumkin, bunda eshitish, kuzatish, xatti-harakatlarni amalga oshirish, chamalash, ranglarni farqlash kabi sensor ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Motor ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun dastgohda ishlash, mashinada yozish, yo'riqnoma bo'yicha tajriba-sinov ishlariga tayyorlanish kabi harakatlanish mashqlarini bajarish talab etiladi.

Ba'zi bir ko'nikma va malakalar sensomotor o'zlashtirishni talab etadi. Masalan, xat yozish, chizma chizish, grafiklar tuzish kabilari.

Intellectual (aqliy) xatti-harakatlar ham ko'nikma va malaka deb e'tirof etiladi.

Aqliy va amaliy xatti-harakat usullarini qat'iy ravishda “Buyuk xitoy devori” bilan ajratish to'g'ri emas, chunki barcha amaliy xatti-harakat u yoki bu darajadagi aqliy xatti-harakatlarni nazarda tutadi.

Tabiiyki, bilimlarsiz ko'nikma shakllanmaydi va shakllanishi ham mumkin emas. Biror narsani ongli bajarish uchun eng avvalo nima, qanday va nima uchun kerakligini bilish zarur bo'ladi. Bu bilan bilimlarni qo'llash ularni yangi darajada o'zlashtirishga aylanadi. Bilimlarni qo'llashda faoliyatning zaruriy sharti va



tarkibiy qismi sifatida tafakkurlash (fikr yuritish) ishtirok etadi. Lekin fikrlash tajribasini o'zlashtirish maxsus faoliyat sohasidir.

Ob'ektiv olamning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini inson ongida bilvosita va umumlashgan holda aks etishi tafakkurlashni anglatadi.

Fikrlash eng avvalo tahlil etish va sintezlash vositasida amalga oshiriladi. Analitik – sintetik faoliyat barcha fikrlash operatsiyalarida qiyoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, turlash, aniqlashtirish kabilarda amalga oshiriladi: Har qanday qiyoslash qiyoslanayotgan ob'ektlarni sintezlashni, bo'laklashni ko'zda tutadi.

Fikrlash rivojlanish bosqichlariga ko'ra ko'rgazmali, obrazli va abstrakt, nazariy turlarga bo'linadi.

Fikrlash (tafakkurlash) ob'ektlarning xususiyatlari va munosabatlarini yoritish (ifodalash)ga oid faoliyatdir.

Pedagogik manbalarda ta'lim mazmuni haqidagi masala munozarali xarakterga ega. Bu tushunchani izohlashga ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, uning mohiyati va ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "mazmun" arabcha ibora bo'lib: 1. Aql, fikrlash bilan tushuniladigan, mantiqiy mundarija; boshqa belgi bilan ifodalangan ichki mundarija.

2. Ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarni belgilovchi asos, mohiyat.

3. Biror ob'ektning mohiyatini belgilovchi muhim element va o'zgarishlarning yig'indisi, asosi sifatida talqin etilgan.

Bilimlarni egallashga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni shaxsning ijtimoiylashuviga imkon berib, fan va ishlab chiqarish sohalari bilan tahsil oluvchini (tanishtiradi) muloqotini belgilaydi. Shuningdek, ushbu yondashuvga ko'ra, bilimlar tahsil oluvchilarning qadriyatlar yondashuvi I.Ya. Lerner, M.N. Skatkin, B.M. Bim-Bad va shu kabi pedagog olimlar tomonidan ta'lim mazmunining mohiyati aniqlangan. Yuqorida zikr etilgan olimlarning fikricha, ta'lim mazmuni faqat bilim va ko'nikmalardan iborat emas. Zero, bilim va xatti-harakat usullari ta'lim mazmunining muhim elementidir. Rus pedagog olimi I.Ya. Lerner bilimlarni quyidagi uch vazifa (funksiya)sini ajratib ko'rsatadi:

1. O'rganilayotgan real voqelik haqida umumiy tasavvur hosil qilish, jamiyat va insoniyatning yaxlit rivojlanishini ilmiy tasavvur etish;

2. Xatti-harakat usullarini mo'ljalgacha olish asoslarini yaratish yoki xatti-harakat usullarining yo'nalishini aniqlash;

3. O'qib-o'rganilayotgan ob'ektlarga nisbatan emotsional munosabatlar asoslarini shakllantirish, shu yo'l bilan dunyoqarashni tarbiyalash vositasi bo'lish.

Ijtimoiy tajribalar: bilim, xatti-harakat usullari, ijodiy tajriba yoki izlanuvchan faoliyat hamda emotsional qadriyat munosabatlarini o'ziga qamrab oladi.

Ta'limda uzluksizlikni ta'minlash o'quv predmeti qismlaridagi zarur va to'g'ri nisbatni o'rnatish zaruriyatidan kelib chiqadi. Shuningdek, uzviylik tushunchasi ta'limning turli bosqichi, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlarida bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarga qo'yiladigan



talablarni ko'zda tutadi. Uzviylik quyidagi ikki omilni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

1) fanning mazmuni va mantiq'i; 2) bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qonuniyatlari.

O'quv predmetini o'zlashtirishda birinchi omilning ahamiyati muhim bo'lib, tushuncha, dalil, qonunlar kabi o'quv predmeti mazmunini tashkil etuvchi tarkibiy element, ketma-ket, asta sekinlik bilan o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini imkon qadar anglab olishga shart-sharoit yaratadi. Ikkinchi omil ilmiy bilimlarga ishlov berishni talab etadi.

Shunday qilib, uzviylik faqatgina to'g'ri chiziqli emas, balki o'quv materiallarini tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi qulay bo'lgan holatda shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Uzviylikni ketma-ket amalga oshirilishi ta'lim istiqbol tavsifini beradi. Bunda alohida mavzular bir-biridan tubdan ajratilgan emas, balki birinchisi ikkinchisi uchun asos va ikkinchini mo'ljal sifatida hisobga olinishini ko'zda tutadi.

Amalda ta'lim mazmunini loyihalashtirish quyidagi ikki darajada amalga oshiriladi:

- blok modulli o'quv dasturi darajasida;
- aniq maqsadga muvofiq o'quv materiali sifatida.

Bunda ixtisoslik qaysi kasbga mansubligi, shuningdek, kasbning o'zi qanday faoliyat sohasiga yoki turiga tegishli ekanligini ham aniqlashtiradi.

Aniq yo'nalishda tanlab olingan ta'lim mazmuni yuqoridan pastga "qavatmaqavat" tahlil etiladi. Yuqori qatlam iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lsa, o'rta qavat kasb-hunarga va pastki qavat alohida ixtisosliklarga to'g'ri keladi. Bunday yondashuv zamonaviy kasb-hunar ta'limi mazmunini shakllantirish muammosi echimi sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki bunda kasb yoki ixtisoslik nuqtai nazaridan pastdan emas, balki aniq yo'nalish doirasidagi kasbiy ta'lim mazmuni yaxlit tizim sifatida yuqoridan pastga tomon tadqiq etiladi.

**3. Ta'lim mazmunini didaktik tahlili. Ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar.** Ta'lim mazmunini tanlab olishga umumiy yondashuvlar: I. Ta'limda uzviylik o'quv predmetining tashkiliy qismlarining to'g'ri nisbati va zaruriy bog'liqligini ta'min etadi.

O'quv materialining joylashishi va bu materialni o'zlashtirish usullarini tanlashdagi uzviylik quyidagi ikki omilni hisobga olish bilan amalga oshiriladi: Ushbu o'quv predmeti tegishli fan mazmuni va mantiqi hamda bilimlarni o'zlashtirish jarayonining qonuniyatlarini, fanning mazmuni va mantiqi o'quv predmetining uzviyligini ta'min etishda muhim ahamiyat kasb etadi: tushuncha, qonunlar va dalillar, o'quv predmeti mazmunining o'zagi hisoblanib, ketma-ket joylashadi va o'rganilayotgan sohaga oid bilimlarning kengayib borishini ta'minlaydi, oldingilari keyingilari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining qonuniyatlari omili ilmiy bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri o'quv predmeti mazmuni sifatida talqin etilishiga yo'l qo'ymaydi, unga didaktik ishlov berishni talab etadi. Shunday qilib, uzviylik



faqatgina to'g'ri chiziqli emas, balki o'quv materialini konsentrik joylashuvida ham amalga oshiriladi.

Tushunchalarni keng va chuqur aloqadorligini o'rganish mazmunini boyitishga uni o'zlashtirish shakllarining uzviyligini ta'min etadi.

Uzviylik alohida o'quv predmetlarinigina emas, balki turli o'quv predmetlarining va turli ta'lim bosqichlarining o'zaro munosabatlarini ham qamrab olishi zarur. Buning uchun turli o'quv predmetlarini o'rganishda ob'ektlarning turli jihatlarini ob'ektiv aloqadorligi asos hisoblanadi.

II. Ta'lim mazmuni avval DTS so'ngra o'quv reja va dasturi shaklida loyihalashtiriladi.

Ta'lim mazmuni ta'lim jarayonining asosiy elementi (tashkil etuvchi komponenti)ni o'zlashtirishi natijasida ijtimoiy maqsadlarga erishiladi. O'zlashtirilishi zarur bo'lgan ijtimoiy, madaniy tajribaning tavsifi va hajmi aniq shart-sharoit, makon, zamon, shuningdek, ta'lim muassasasining turi va darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim mazmunini tashkil etuvchi tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: a) samarali amaliy faoliyat tajribasi, ya'ni mehnat, iqtisodiyot, siyosat ijtimoiy va boshqa sohalaridagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish.

b) bilish tajribasi atrof olam rivojlanishi qonuniyatlarini anglash metodlari va natijalari; v) umumiy maqsadlarga erishish jarayonidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar tajribasi; g) axloqiy etik tajriba; d) ma'naviy- madaniy tajriba va shu kabilar.

O'qitish mazmuni muayyan ta'lim muassasalarida o'tiladigan o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi. O'qitish mazmunining tuzilmasi, ya'ni turli elementlarning o'zaro munosabatlari, ketma-ketligi, davomiyligini o'quv rejasi aniqlab beradi. Shu paytgacha o'qitish mazmunini shakllantirishga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan. Amalda o'qitish mazmuni bajariladigan vazifalarning murakkablik darajasi va mazmuniga binoan aniqlanadi.

Masalan, umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifasi insonni har tomonlama rivojlantirish, hayot va mehnat, kasb tanlashga va kelgusida kasb-hunar sir-sinoatlarini o'rganishga tayyorlashdan iborat.

Aniq kasb (ixtisoslik) bo'yicha ta'lim mazmunini integrativ yondashuv asosida tanlab olishda uning qaysi soha bo'yicha ishlab chiqarishga mansubligi hisobga olinadi.

Integrativ yondashuv asosida texnologik va kasb ta'limi mazmunini tanlab olishda me'yoriy asos DTS hisoblanadi.

Demak, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olishda dastlabki asos kasb-hunar turi hisoblanadi. Ajratib olingan ta'lim mazmuni yuqoridan pastga tomon tahlil etiladi. Yuqorigi qatlam sohaga va alohida ishlab chiqarish yoki faoliyat ko'rinishlariga mos bo'ladi. O'rta qatlam tutash kasblarga to'g'ri keladi; pastki qatlam esa alohida kasblar, ixtisosliklarga to'g'ri keladi. Tahlil borishida eng avval, umumiy ta'lim mazmuni, keyin xususiy mazmun, ya'ni kasb-hunarning o'ziga tegishli mazmuni tanlab olinadi. Bunday deduktiv tahlil mazmunning unifikatsiyalashgan qismlarini ajratib olib, kasbiy ta'lim mazmunini ilmiy asosda



ma'lum tizim yoki tuzilmaga keltirish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quv dasturlarini ishlab chiqish (tuzish) imkonini beradi.

Bloklar mazmunini tanlab olishda har bir oldingi blok keyingisiga tayanch sifatida qarab kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bu, o'z navbatida, uzviylik va yaxlitlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Texnologik va kasb ta'limi mazmunini tanlab olish va amalga joriy etishni umumiy holda quyidagicha (1-rasm) ifodalash mumkin:



1- rasm. Texnologik va kasb ta'limi mazmunini tanlab olish va amalga joriy etish

### Nazorat savollari.

1. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'lim-tarbiya va rivojlanishning birligi deganda nimani tushunasiz?
2. Texnologik va kasbiy ta'lim-tarbiya mazmuni qanday hujjatlarda o'z ifodasini topadi?
3. Texnologik va kasbiy ta'limda o'quv materialining zarur va etarlilik darajasi qanday omillarga binoan aniqlanadi?
4. O'quv materialini qanday xususiyatlariga ko'ra turlanadi? Umumta'lim o'quv predmetlaridan farqli ularoq kasbiy ta'lim mazmuni qanday manbalardan tanlab olinadi?

### Adabiyotlar

1. Abduqudusov O.A. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. T.: 2013.- 240 b.
2. Дидактика в схемах и таблицах, Учебное пособие, Korkina V.I., 2013. - 240 s.
3. Ximmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: O'zbekiston, 2018. – 168 b.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.



5. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2014. 389 b.
6. Olimov Q.T., Axmetjanov M.M., Uzoqova L.P., To'xtayeva Z.Sh. Kasbiy pedagogika. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. – 495 bet.
7. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
8. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: “DELTA PRINT SERVIS”, 2018. - 156 b.
9. Shuvalova M.A. Формирование профессиональных компетенций техников высокотехнологичной отрасли в дуальном образовании: Diss. ... kand. ped. nauk. – Krasnoyarsk.: 2016. – 195 s.
10. Ирхина И.В. Развитие дидактической системы учителя в профессиональной деятельности: Diss. ... dokt. ped. nauk. – Belgorod.: 2007. – 430 s.

### **3-Mavzu: Texnologik va kasb ta'limini tashkil etishga didaktik yondashuvlar.**

Reja:

1. Texnologiya va kasb ta'limi ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablar. Didaktik tizimlar va ularning turlari
2. Texnologik va kasb ta'limi jarayoni, tashkil etish shakllari, innovatsion metodlari hamda didaktik vositalari.

**1. Texnologiya va kasb ta'limi ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablar.** Har qanday ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, texnologiya va kasb ta'limida professor-o'qituvchilar va talabalar ushbu jarayonning asosiy va bevosita ishtirokchilari hisoblanadilar. Bu ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi natijasida, ya'ni ularning o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlari tufayli kasbiy ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshadi.

Pedagogik jarayonning mohiyati unda ishtirok etuvchi o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyati mazmunida o'z ifodasini topadi. Bunda o'qituvchining faoliyati tahsil oluvchilarni yo'naltirish, safarbar etishdan iborat bo'lib, ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi va qiziqtiruvchi vazifalar bilan belgilanadi, o'qituvchi o'quv materialini mohiyatini tahsil oluvchining ongiga etkazish uchun eng avvalo og'zaki nutq (so'z)dan, shuningdek, shart-sharoit, vaziyat, ta'limni tashkil etish shakli, amalga oshirish metod va vositalaridan foydalanadi.



Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etish, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilishda faqat o'qituvchi emas, balki ishlab chiqarish ta'limi ustasi, tajribali mutaxassis kabilar ham ishtirok etishi mumkin. Lekin, boshqa o'qituvchilardan farqli ravishda texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisi psixologik-pedagogik, sohaviy va mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlikni o'zida mujassamlashtiruvchi tizimli ma'lumot oladi.

1. Psixologik-pedagogik tayyorgarlik o'qituvchiga o'quv predmetini mustaqil ravishda loyihalashtirish, mazmunini tanlab olish va uni o'qitish metodikasini ishlab chiqish malakalarini egallash imkoniyatini beradi.

2. Sohaviy tayyorgarlik esa ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini tashkil etish, amalga oshirishda rahbarlik qilish va natijalarini nazorat qilib baholash ishlarining mohiyatini anglab etishga imkon beradi.

3. Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisi yoki ishlab chiqarish ta'limi ustalarining lavozimiy vazifalari esa mutaxassislikka oid bilim, ko'nikma va malaka hamda shaxsiy fazilatlarini talab etadi.

Rossiyalik olimlar Ye.I. Serkova va V.D. Simonenkolarning ko'rsatishicha texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik tarkibiy qismlari orasidagi maqbul munosabatning 60 foizini sohaviy tayyorgarlik, 27 foizini psixologik-pedagogik tayyorgarlik va 13 foizini mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik tashkil etadi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish mumkinki, pedagogik jarayonning markazida uning teng nufuzli ishtirokchilari - o'qituvchi va tahsil oluvchilar turadi. Bu ishtirokchilarning birini ikkinchisiga nisbatan yuqori nufuzga ega deb e'tirof etish o'ziga xos bir yoqlamalikka olib keladi. Ular orasidagi ongli o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, o'zaro munosabat, ularning bir-biriga ko'rsatadigan aks ta'sirlarini hisobga olish zarur.

Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha mutaxassislik mazmuni bir-biridan 60 foizdan ortiq miqdorda farq qiladi. Shuning uchun ham oliy ta'lim tasniflagichiga mutaxassislikni sohalar bo'yicha turlashda alohida nom va kodlar kiritish talab etiladi.

Hozirgi paytda respublikamizda ko'p bosqichli kasbiy pedagogik ta'lim tizimi mavjud. Ular mazmuni va o'qish muddatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisiga mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish talabi ularning kasbiy tayyorgarlik darajasining yuqori bo'lishiga ishoradir. Shu o'rinda ijtimoiy pedagogik shart-sharoit, muhit bir vaqtning o'zida kasbiy pedagogik rivojlanishni talab etuvchi motiv va rag'bat bo'lib xizmat qilishini yodda tutish zarur.

Barcha turdagi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va uning natijalarini nazorat qilib, baholovchi asosiy shaxs o'qituvchi hisoblanadi. Demak, o'qituvchilar ta'lim-tarbiya qonuniyatlari asosida faoliyat ko'rsatib, o'z burch va vazifalarini sifatli bajarishga javobgar shaxs hisoblanadilar. Har bir tahsil oluvchi, yosh avlod jamiyat va davlat taqdiri uchun javobgarlik his-tuyg'ulari o'qituvchi vazifasini tavsiflaydi. O'qituvchi mehnatining bugungi natijasi bilan jamiyatimizning ertangi istiqboli bevosita bog'liq. Sabr-



toqat va kelajakka ishonch o'qituvchining muhim kasbiy fazilatidir. Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisining ishi juda murakkab ko'rinishdagi inson-inson; inson-texnika va texnologiya munosabatlariga tegishli. Shuningdek, kasbiy pedagogik jarayon ishtirokchilari hamkorlik nuqtai nazaridan chegaralangan.

Pedagogik vazifa - kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini qo'llash borasidagi faoliyatni amalga oshirishdir. Buning natijasi o'laroq tahsil oluvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va rivojlanadi.

O'qituvchining bosh vazifasi ta'lim-tarbiya, shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat etish hamda baholash hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi faoliyati faqatgina tahsil oluvchini o'qitish emas, balki o'qib-o'rganishga yo'naltirish; tarbiyalash emas, balki tarbiyalash jarayonlarini boshqarishga qaratilgan. Shuning uchun ham pedagog-murabbiyni Suqrot - "fikrlar doyasi" deb atagan edi. O'qituvchi tayyor ma'lumotni etkazishi emas, balki tahsil oluvchilar ongida tushuncha, tasavvur, xulosa hosil qilishi zarur.

O'qituvchilar nima bilan shug'ullanishi va ular mehnatining o'ziga xos xususiyatlari ko'p sonli tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan. Ulardan biriga, o'qituvchining bosh vazifasi pedagogik boshqaruvchilik, deb biluvchilarga e'tiborimizni qaratsak. Boshqaruv vazifasini aniqlashtirish uchun "pedagogik loyiha" tushunchasidan foydalanamiz, "Pedagogik loyiha" deganda har qanday o'ylangan va oxiriga etkazilgan o'qituvchi faoliyati tushuniladi. Masalan, dars, mavzu yoki bilimni o'rganish, viktorina tashkil etish, ekologik ekspeditsiya uyushtirish va shu kabilar. Bu ishlarning barchasini o'qituvchi bajaradi. Bunda boshqaruv qanchalik o'ylab, sinchkovlik bilan amalga oshirilsa, shuncha xatolarga kam yo'l qo'yiladi va natijada yuqori sifat hamda samaradorlikka erishiladi.


Pedagogning birinchi vazifasi loyihani shakllantirish davridanoq paydo bo'ladi va u ma'lum maqsadni ko'zda tutadi. Ma'lumki, maqsad pedagogik faoliyatda muhim omil, bu jarayon ishtirokchilarini ma'lum ma'noda hamkorlikdan umumiy natijaga chorlaydi va yo'naltiradi.

Ta'lim-tarbiya ishida boshqarish, eng avvalo, tahsil oluvchilarning bilimlariga asoslanadi; ularning tayyorgarlik darajasi, imkoniyatlari, tarbiyalanganligi, rivojlanishiga tashhishlash asosida erishiladi. Tahsil oluvchilarning jismoniy o'ziga xos jihatlari va ruhiy rivojlanganligi ularning aqliy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi, yashash shart-sharoitlari kabilarni bilmasdan turib, to'g'ri maqsad qo'yib ham, unga erishish vositalarini tanlab ham bo'lmaydi. Demak, o'qituvchi pedagogik vaziyatlarni tashhishlash va bashorat etish metodlarini mukammal bilishi kerak. U metodlar odatda ilmiy tadqiq etish metodlarini takrorlaydi. Bundan tashhishlash bilan bashorat etishning uzviy bog'liqligi kelib chiqadi. O'qituvchidan aniq shart-sharoitga asoslangan holda faoliyat natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati talab etiladi. O'zining faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olmagan pedagogni tavakkaliga ish ko'radigan yo'lovchiga, ongsiz o'rgimchakka o'xshatish mumkin, xolos. Yuqorida zikr etilgan fikrlarni muxtasar holda I.P. Podlasъy quyidagicha jadval shaklida ifodalash mumkinligini ko'rsatadi (1-rasmga qarang).





1-rasm



O'qituvchi o'zining hamkorlari, shart-sharoitini tashhislaydi hamda istiqbolni oldindan tasavvur etib, ta'lim-tarbiya faoliyatini loyihalashga kirishadi.

O'qituvchining loyihalovchilik vazifasi to'la amalga oshiriladigan faoliyatning modelini ko'rishdan, ushbu shart-sharoit hamda ajratilgan vaqt omillari hisobga olingan holda maqsadga eltuvchi yo'l va vositalarni tanlash, maqsadga erishish uchun aniq bosqichlarni ajratish, ularning har biri uchun xususiy vazifalarni belgilash, erishilgan natijani nazorat qilish metodlari va baholash ko'nikmalari hamda shakllarini aniqlash kabilardan iborat.

Haqiqiy o'qituvchi auditoriyaga rejaning barcha ikir-chikirlarini batafsil, aniq bilmasdan, o'ylamasdan kira olmaydi. Bunda rejaning hajmi emas, balki mohiyati, ya'ni uning o'qituvchi ko'z o'ngida gavdalanishi muhimdir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, o'qituvchi faqat bitta emas, balki bir qancha reja variantlarini tuzishi zarur, chunki ko'z ilg'amas, hisobga olinmay qolgan omillar ham bo'lishi mumkin.

Tashhishlash, bashorat etish, loyihalash, rejalashtirish har qanday ta'lim-tarbiya faoliyatida o'qituvchining tayyorgarlik ko'rish bosqichidagi asosiy vazifadir.

Ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning navbatdagi ikkinchi bosqichida o'qituvchi tashkilotchilik, axborotchilik, nazoratchilik, baholovchilik va o'zgartirishlar kirituvchilik vazifalarini bajaradi.

O'qituvchining tashkilotchilik vazifasi ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida tahsil oluvchilarning diqqat-e'tiborini jalb etish, ularni maqsad sari safarbar etish, hamkorlik faoliyatida ishtirok etishdan iborat.

O'qituvchini axborotchilik vazifasining mohiyati ayni makon va zamonda o'qituvchiga asosiy axborot manbai sifatida qarash (tasavvur etish)ni ko'zda tutadi. U takomil darajada hamma narsani, ya'ni o'qitadigan predmetini, psixologiyani, fiziologiyani, pedagogikani biladi, ularga asoslanib kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshiradi, deb faraz qilinadi.

Texnologiya va kasb ta'lim-tarbiya jarayoni va uni loyihalashtirish.


“Loyihalash” iborasi pedagogikaga texnika sohasidan kirib kelgan bo'lib, reja tuzish ma'nosini anglatadi. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirish zaruriyati uning mazmuni, amalga oshirish shart-sharoitini murakkabligi bilan bog'liq.

Loyihalashtirish pedagog kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, u tashkilotchilik, bilish (gnostik), muloqotga kirishuvchanlik (kommunikativ) va



boshqa vazifalar bilan uzviy bog'liq. V.S. Bezrukovaning fikricha, kasb ta'limi o'qituvchilari loyihalashtirish uchun 28 foizga yaqin ish vaqti sarflar ekanlar.

Pedagogik loyihalashtirishning vazifalari turlicha bo'lib, samarali pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etishga imkon beradi. Loyihalashtirish hisobiga ta'lim-tarbiya jarayoni texnologiyalanuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Loyihalashtirish malakasini egallash pedagoglarga samarali omillarni izlab topish imkoniyatini beradi. Pedagogik loyihalashtirish vazifalarini chizma shaklida quyidagicha ifodalash mumkin (2-chizma).



Pedagogik loyiha eng avvalo, model bo'lib, ideal va pedagogik amaliyotda pedagogik faoliyatni qiyoslash yo'li bilan ilmiy bilishning samarali vositasidir. Loyihalash asosida kelgusida ta'lim jarayonining rivojlanishini ilmiy bashorat etish mumkin. Shuningdek, loyihalashtirish pedagogika nazariyasi bilan amaliyotni bog'lab turuvchi omildir. U ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy komponentlaridan, shu jumladan, pedagogning intellektual imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Pedagogika nazariyasi pedagogik loyihalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Loyihalar o'z o'rnida pedagogik amaliyotni takomillashtiradi.

Pedagogik loyiha ob'ektlari pedagogik tizimlar, pedagogik texnologiyalar, pedagogik jarayon, ta'lim-tarbiya muhiti, pedagogik vaziyatlar bo'lishi mumkin.

Pedagogik tizim markazida uning ishtirokchilari, maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari va natijasini yaxlit holda mujassamlashtirilib, u ishtirokchilarning bevosita o'zaro bog'liq ta'siri natijasida tahsil oluvchilarni rivojlantirish maqsadida loyihalashtiriladi.

Pedagogik vaziyat pedagogik jarayon doirasida ma'lum vaqtda bu jarayonning holatini tavsiflovchi loyihalashtirish ob'ektidir. Pedagogik vaziyat bexosdan kelib chiqishi yoki maxsus loyihalashtirilishi mumkin.

Pedagogik vaziyat real shart-sharoitni hisobga olgan holda pedagogik jarayonni aniqlashtirish maqsadida loyihalashtiriladi.

Pedagogik texnologiyalar loyihalashtirish ob'ekti bo'lib, pedagog tomonidan turli metod, shakl va vositalardan foydalanilgan holda xatti-harakatlar ketma-ketligini belgilaydi.


Ta'limiy makonni loyihalashtirish yangi turdagi o'quv binolari qurish, ularni jihozlash va shu kabilar uchun amalga oshiriladi.

Pedagogik loyihalashtirish texnologiyasi pedagogik tizimlar, jarayonlar, texnologiyalarni loyihalashtirish murakkab va ko'p bosqichli faoliyatdir. V.S. Bezrukova fikricha u: modellashtirish, loyihalashtirish va konstruksiyalashtirish bosqichlaridan iborat.

Pedagogik modellashtirish ob'ektning ideal obrazini shartli ravishda ishlab chiqish bo'lib, uning muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Modellar yozma matn, grafik va faraziy tarzda bo'lishi mumkin. Ularda pedagogik maqsadlar, vazifalar, samarali shart-sharoit, ob'ektning tarkibiy qismlari va ularning faoliyat ko'rsatish usullari o'z aksini topadi.

Loyihalashtirishning ikkinchi bosqichi loyiha tuzish bo'lib, bunda model pedagogik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan darajaga etkaziladi. Pedagogik loyihalashtirishning uchinchi bosqichi konstruksiyalash bo'lib, unda loyiha batafsil qismlarga bo'linadi, real shart-sharoitga yaqinlashtiriladi, ya'ni bunda asosan metodik ishlar bajariladi.

Pedagogik loyihalashtirishda quyidagi tartibdagi xatti-harakatlar bajariladi:



Loyihani ekspert baholash, o'zgartirishlar kiritish, loyihadan foydalanish mumkinligi haqida qaror qabul qilish kabilar. Yuqorida zikr etilgan har bir xatti-harakatlar o'z navbatida aniq maqsad va nisbatan kichik mantiqiy ketma-ket xatti-harakatlardan iborat bo'lishi tabiiy hol.

Loyihalash ob'ektini tahlil qilish. Eng avvalo, uning tuzilmasini ko'rish, tarkibiy qismlarining har birini alohida qarab, holatini va o'zaro aloqalarini aniqlash kabi juda muhim bo'lgan amallar nazarda tutiladi.

O'qituvchiga qo'yilgan talablar: Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisining vazifasini kasbiy pedagogik va ijtimoiy o'ziga xosligi har doim o'z shogirdlari, ota-onalar, keng jamoatchilik nigohida bo'lishi, ular shaxsiga, axloqiy qiyofasiga yuqori talablar qo'yadi. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar qat'iy kasbiy sifatlar tizimi bo'lib, kasbiy pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi.



Eng avvalo, shuni unutmaslik zarurki, amaliy pedagogik faoliyatning faqatgina yarmi oqilona texnologiyaga asoslanib quriladi. Qolgan yarmisi esa, san'atdir. Shuning uchun ham pedagog kasbiga qo'yilgan birinchi talab pedagogik qobiliyatlarning mavjudligidir. Bunday yondashuvga asoslanib biz pedagogda maxsus pedagogik mahorat mavjudmi, degan savolni qo'yishga majbur bo'lamiz. Pedagogik qobiliyatlar bolalar bilan ishlashga moyillik, bolajonlik, ular bilan muloqot va munosabatda bo'lib, qoniqish hosil qilish kabilarning mujassamligini ko'rsatuvchi shaxsiy fazilatlardir.

Ko'pchilik hollarda pedagogik qobiliyatni chiroyli gapirish, ashula ayta olish, rasm chizish, bolalarni tashkillashtirish kabi tor doiradagi xatti-harakatlarni bajarishga almashtiriladi. Olimlar tomonidan pedagoglarni quyidagi bosh qobiliyatlari ajratilgan:

1. **Tashkilotchilik**-tahsil oluvchilarni o'zaro jipslashtirish, ularning shaxsiy burchlarini bilish, ishlarini rivojlantirish olish, bajarilgan ishga yakun yasash kabi o'qituvchilik malakalarida ko'zga tashlanadi
2. **Didaktik**-o'quv materialini, ko'rsatmalari, jihozlarni tanlay olish va tayyorlash, aniq, lo'nda, tushunarli va ketma-ket bayon eta olish, o'qib-o'rganish va ma'naviy qoniqish hosil qilishga qiziqira olish, o'quv-bilish faoliyatini oshirish kabilari
3. **Persepsiv**-tahsil oluvchilar qalbiga yo'l topa olish. Ularning emotsional holatlarini ob'ektiv baholay olish, psixikaning o'ziga xos jihatlarni aniq olish kabilarda namoyon bo'ladi
4. **Kommunikativ**-o'qituvchining tahsil oluvchilar, ularning ota-onalari, o'zining kasbdoshlari, ta'lim muassasalari rahbarlari bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlar o'rnatishda o'z aksini topadi
5. **Suggestiv**-tahsil oluvchilarga emotsional irodaviy ta'sir ko'rsata olish
6. **Tadqiqotchilik**-pedagogik vaziyat va jarayonlarni bilish va ob'ektiv baholay olish qobiliyati.
6. **Ilmiy bilish**-tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o'zlashtira olish qobiliyati.

Yuqorida zikr etilgan va shu kabi boshqa qobiliyatlar pedagogning amaliy faoliyatida birday muhimlik darajasiga egami? So'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlarning "asosiy" va "ikkinchi darajali yordamchi" turlarga ajratishga imkon beradi. Ko'p sonli so'rovlar natijasida muhim pedagogik qobiliyatlar sirasiga pedagogik kuzatuvchanlik, didaktik, tashkilotchilik, ekspressiv qobiliyat kabilarning kirishi haqida fikrlar bildirilgan.

Pedagogik ta'lim muassasalariga qabul qilishda shu paytgacha pedagogik iste'dod (qobiliyat, o'quv) hisobga olinmay, umumiy tanlovga asoslanildi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalariga tasodifiy shaxslar kelib qolmoqda.

Ana shu bois ham, biz pedagogning muhim kasbiy fazilatlari sifatida mehnatsevarlik, ishchanlik, tartib intizomlilik, javobgarlik, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ya olishlik, unga erishishda oqilona yo'llarni tanlay olish, tirishqoqlik, kasbiy mahorat darajasini muntazam oshira borishlik, mehnat sifatini oshirishga intiluvchanlik kabi kasbiy fazilatlarni e'tirof etamiz. Zikr etilgan talablar orqali pedagog o'z burchini mutaxassis sifatida amalga oshiradi.



Texnologiya va kasbiy ta'lim o'qituvchisi ko'p mutaxassislik va mutaxassisliklarga ega. Ta'lim sohasida "mutaxassislik" tushunchasi (iborasi) ta'lim yo'nalishi va mazmunini o'zida aks ettiruvchi kategoriya sifatida qaraladi. Mehnat sohasida esa u kasb-hunar doirasida mehnatning yo'nalishi va o'ziga xos mazmuni deb talqin etiladi.

Pedagogik faoliyatning asosiy ob'ektlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Ta'lim-tarbiya muhiti, ta'lim-tarbiya beruvchi jamoa, tahsil oluvchilar faoliyati va ularning individual o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik faoliyatning maqsadi bevosita quyidagi ijtimoiy pedagogik vazifalar echimini topish bilan bog'liq: tarbiyaviy mehnatni shakllantirish; tahsil oluvchilar faoliyatini tashkil etish; tarbiyalovchi jamoani tuzish; shaxsiy sifat va fazilatlarni rivojlantirish.

Kasbiy pedagogik faoliyat - bu integrativ faoliyat bo'lib o'ziga psixologik, pedagogik va ishlab chiqarish texnologik komponentlarni qamrab oladi. Kasbiy pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi tahsil oluvchilarni kasb-hunar sir-asrorlariga o'rgatish va shaxsiy rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat.

Kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida eng kamida quyidagi ikki turdagi munosabatlar sodir bo'ladi:

Pedagogning pedagogik ta'sir vositasi va predmetiga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi sub'ekt-ob'ekt munosabatlari; pedagogik o'zaro tasir jarayonidagi sub'ekt-sub'ekt munosabatlari.

Pedagogik o'zaro ta'sir maqsadlarini amalga oshirish o'z navbatida tahsil oluvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalari va usullarini tanlash hamda qo'llash bilan bog'liq.

Mavjud bilimlarga asoslangan holda pedagog, vositalar va o'z xatti-harakat usullarini qiyoslaydi.

Pedagogik masalalar echimini topish usullarini tanlab, o'qituvchi har bir tahsil oluvchining individual sifatlarini mo'ljallashi, jamoadagi shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini, jihozlanganlik darajasini, pedagogik jarayon davomiyligini hisobga olishi zarur. Bundan pedagogik masalalarning echimini topish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga va uning kasbiy mahoratiga bog'liqligi kelib chiqadi.

Tahsil oluvchining kasbiy rivojlanishi kasbiy pedagogik faoliyatning asosiy natijasidir.

Pedagogning kasbiy layoqati muhim shaxsiy komponentdir. U integrativ xususiyatga ega bo'lib, mutaxassisning ishchanlik va shaxsiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi hamda bilim, ko'nikma, malaka va tajribalar darajasida o'z ifodasini topadi.

**Texnologiya va kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining muhim fazilatlari.** Pedagog shaxsining tuzilmasida kasbiy fazilatlar muhim ahamiyatga ega. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: maqsadga intiluvchanlik, shaxsiy faollik, o'z- o'zini boshqara olish, tahsil oluvchilar bilan ishlash xohishining mavjudligi, ekstremal vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik, to'g'riso'zlik, haqgo'ylik, zamonaviylik, insonparvarlik, bilimdonlik, pedagogik takt sohibi ekanlik, intizomlilik, pedagogik ishonchlilik.



O'qituvchining muhim kasbiy pedagogik fazilatlaridan biri mantiqiy fikrlash qobiliyati hisoblanadi. Bunday xislat tushunchalarni tahlil etish, sintezlash, turlash, mantiqiy aloqalarini o'rnatish, operatsiyalarini bajarishga yo'naltirilgan mantiqiy fikrlash usullarini yaxlit shakllanganligi kabilarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagog professiogrammasiga artistik qobiliyati ham kiradi. Bu qobiliyat obrazga kirib fikr va echimlar topishni qamrab oladi.

Shaxsning muhim kasbiy fazilatlari uning aqliy, emotsional, irodaviy tavsifi sifatida kasbiy pedagogik faoliyat natijalariga ta'sir ko'rsatadi, pedagogning individual ish uslubini belgilaydi.

## **2. Texnologik va kasb ta'limi jarayoni, tashkil etish shakllari, innovatsion metodlari hamda didaktik vositalari.**

Pedagogikaga oid adabiyotlarda ta'lim (o'qitish)ni tashkil etish shakllari deganda ta'lim-tarbiyaning ma'lum bo'lagigina konstruksiyasi sifatida tashkil etilib, unda o'qituvchining boshqaruvchilik va tahsil oluvchilarning boshqariladigan o'quv-bilish faoliyatlarining uyg'unligi natijasida ma'lum o'quv materialini o'zlashtirish va xatti-harakat usullari o'z mulkiga aylantirilishi mumkinligi bayon etilgan.

Yakka tartibda va guruh shaklida o'qitish:

Individual guruh shaklida o'qitish (XVI asrdan boshlab) da o'qituvchi yaxlit guruh bilan shug'ullanadi, lekin o'quv ishlari avvalgiday individual xarakterga ega bo'ladi. O'qituvchi turli yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi tahsil oluvchilarga saboq beradi. U tahsil oluvchilardan navbat bilan o'tilgan materialni so'ragan, shuningdek, har biriga yangi materialni tushuntirgan, ularga individual vazifalar bergan. Bu holat tahsil oluvchilar ta'lim muassasalariga turli vaqtlarda va yilning turli paytlarida kelishlari uchun imkon bergan. O'qituvchi juda oz hollarda o'zining barcha tahsil oluvchilarini yig'ib jamoaviy suhbat o'tkazgan.

Sinf-dars tizimi XVII asrda Y.A. Komenskiy tomonidan ilmiy asoslangan.

Bell - Lankaster tizimida kam sonli o'qituvchilar bilan ommaviy yoppasiga bolalarni o'qitish mumkinligini isbotlashga harakat qilingan. Bu holatni chet ellik mutaxassislar tomonidan trening seminarlar tashkil etib, trenerlar tayyorlash va tajribalarni ommaviylashtirishga o'xshatish mumkin.

XIX asrning oxirida tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi. Bunda o'qituvchi avval jamoa bilan, so'ngra ma'lum muddat yaxshi o'zlashtiruvchi, ya'ni a'lochi tahsil oluvchilar bilan mashg'ul bo'lgan.

1905 yil individuallashtirilgan ta'lim tizimi (laboratoriya yoki ustaxona tizimi deb atalgan shakl) AQSh Massachusette shtatining Dalton shahri amaliyotida qo'llana boshlandi. Tahsil oluvchilarga yozma yo'riqnoma va maslahat berilib, mustaqil va individual rejaga binoan ishlashlari ko'zda tutilgan. Unga ko'ra individuallashtirilgan ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka erishish uchun tahsil oluvchilar barcha zaruriy qo'llanmalar, ko'rsatmalar bilan ta'minlanishi kerak edi.

Sayohat, maslahat, uy ishi, o'quv konferensiyalari, qo'shimcha mashg'ulotlar, seminar - praktikumlar, sinov va imtihonlar, darsdan tashqari mashg'ulotlar turlicha bo'lib, o'qituvchidan ijodiy yondashuv, eruditsiyani talab etadi.



Biz, sayohat bir paytning o'zida ham dars, ham alohida tashkiliy shakl bo'lishi mumkin, deb o'ylaymiz. Agar sayohat belgilangan o'tkazilish vaqti, ishtirokchilari bilan chegaralangan qat'iy jadvalga binoan aniq mavzu bo'yicha o'tkazilsa, u sayohat darsi deb e'tirof etiladi.

O'qituvchi sayohatni tashkil etishiga qaramay, ayrim hollarda o'zining ob'ekti (predmet, hodisa, jarayon, voqea, shaxslar va ularning o'zaro munosabatlari kabilar)ni mukammal bilmasligi mumkin. Bunday hollarda mashg'ulotni maxsus shartnomaga ko'ra belgilangan mutaxassislar o'tkazishi, ya'ni o'tkazish muddatining aniq chegaralanmaganligi, ya'ni mashg'ulot jadvaliga ma'lum ma'noda amal qilinmasligi tufayli u ta'lim-tarbiyaning maxsus shakli sifatida tan olinadi. Odatda, sayohatlar atrof olam va tabiatni kuzatish, sanoat va qishloq xo'jalik ob'ektlari va ijtimoiy hamda maishiy munosabatlar, san'at, adabiyot sohalarini o'rganish maqsadlarini ko'zda tutib tashkil etiladi. Sayohatlarni tashkil etishda ularning nazariy va amaliy mashg'ulotlar bilan o'zaro uzviy aloqadorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Avval aytib o'tilganidek, kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridanoq, ya'ni yoshi ulug', hayotiy tajribasi katta kishilar yoshlarga ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob beradigan qilib ta'lim-tarbiya berish shakllarini topishga uringanlar. Buning natijasida dastlab individual ta'lim tarkib topgan bo'lib, u vaqtlar o'tishi bilan ustoz-shogird tizimi darajasigacha rivojlantirilgan. Hozirgi paytda bu qadimiy shakl bilan bir qatorda XVI asrda Ya.A. Komenskiy tomonidan asoslangan sinf (guruh) - dars shakli va zamon hamda istiqbol talablarini o'zida aks ettiruvchi noan'anaviy (bahs, munozara, kichik guruhlarda ishlash, seminar- trening, laboratoriya amaliy mashg'uloti, sayohat, davra suhbat, viktorina, fakultativ, o'yin kabi) shakllardan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Sinf-dars tizimida mashg'ulot tahsil oluvchilar yoshi va tayyorgarlik darajasiga binoan (tabaqalashtiriladi), ma'lum o'quv dasturi va jadval asosida o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladi. Hozirgi paytda darslarni tashkil etib o'tkazishga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalarining aniqligi, o'zaro bog'liqligi hamda psixologik, pedagogik, fiziologik nuqtai nazardan maqbulligi.
2. Darsning mazmunan va tuzilmaviy jihatdan yaxlitligi.
3. Ishtirokchilarining ongli o'zaro hamkorlik faoliyatining ta'minlanganligi.
4. Tahsil oluvchilarning o'qib-o'rganishlari, tarbiyalanishlari va rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
5. Barcha didaktik va xususiy prinsiplarga asoslanganligi.
6. Tahsil oluvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning faolligi, erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi kabilarga shart-sharoit yaratilishi kabilar.


Hozirgi paytda ham ta'lim-tarbiyani yakka tartibda tashkil etish shakli o'zining muhim jihatlari ko'ra saqlanib qolgan bo'lib, ayniqsa undan tahsil oluvchilarning ehtiyoji, xohishi, qiziqishlari, ba'zan o'zlashtirmaslikni bartaraf etish, uzoq vaqtlar davomida tibbiyot xodimlari nazoratida bo'lgan yoshlarga ko'maklashish maqsadida ham foydalanilmoqda



Shunday qilib texnologiya va kasb ta'limini tashkil etish shakllarini turlanishini chizma tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

1-chizma

Texnologiya va kasb ta'limini tashkil etish shakllarining turlari



Texnologiya va kasbiy ta'limda yuqori sifat va samaradorlikka erishish uchun darslarni turlarinigina bilish kamlik qiladi. Buning uchun o'qituvchidan qanday darslardan qachon foydalanish mumkinligini ham bilish talab etiladi.

Pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya metodlarini tanlash markaziy masalalardan biridir.

“Metod” – ob’ektiv olamni bilish, tadqiq qilish yo‘li (usuli)dir. Ta’lim metodi ilm-fan, texnologiya va kasb-hunar yoki alohida o‘quv predmetiga oid bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni o‘zlashtirish maqsadida qo‘llaniladigan o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning hatti-harakat usullari tizimidir.

Ta’lim metodlari pedagogik jarayonida ko‘zlangan maqsadga binoan pirovard natijani ta’min etuvchi yo‘l (usul)lar tizimidir. Metodlar – o‘z navbatida usullardan tashkil topadi. Ta’lim-tarbiya metodlarida pedagogikaning ob’ektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, prinsiplari, shakllarida o‘z ifodasini topadi.

Yu.K. Babanskiyning tadqiqot ishlarida 27 foiz o‘qituvchilar ta’lim metodlarini tanlashda ma’lum qiyinchiliklarga duch kelishlari ko‘rsatilgan.

Pedagogik amaliyotda ko‘pchilik o‘qituvchilar odatda “Barchasidan kam”, “Barchasidan teng”, yoki “Rasm bo‘lgan”, metodlar prinsipi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadilar.





Ta'lim metodlarini maqbul tanlash uchun ularning barcha turlarini bilish, muhim xususiyatlariga ko'ra shajaralash, ya'ni turlash, ulardan samarali foydalanish omillarini bilish zarur.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqador hamkorlik faoliyatlari - ta'lim metodlari deb yuritiladi. Har qanday ongli faoliyatni o'zaro aloqador tashkil etish, qiziqtirish, amalga oshirish va nazorat qilish bosqichlaridan iborat bo'lganligi bois, Yu.K. Babanskiy ta'lim metodlarini ham quyidagi uch guruhga ajratadi:

- o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyatiga rag'batlantirish metodlari;
- o'quv-bilish faoliyati samaradorligini nazorat qilish metodlari.

I. Ta'lim metodlari axborotlarni uzatish va idrok etish manbaiga ko'ra quyidagicha turlanadi:

1. Og'zaki (hikoya, suhbat, ma'ruza, bayon etish, tushuntirish, so'zlab berish kabilar);
2. Ko'rsatmali (rasmlar, diagrammalarni ko'rsatish, kinofilm, diafilmlarni namoyish qilish);
3. Amaliy (tajriba-sinov ishlari, mashq, o'quv ishlab chiqarish mehnati kabilar). Bu metodlar – bundan 3500 yil muqaddam Konfutsiy tomonidan “Aytsang unutamam, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarib uning mohiyatini anglab etaman” – deb talqin etilgandi.

II. Axborotlarni uzatish va idrok etish mantiqiga ko'ra ta'lim metodlari: induktiv, deduktiv va traduktiv bo'ladi.

Induksiya – xususiy, juz'iy hodisa va dalillardan umumiy xulosaga kelish usuli, deduksiya esa umumiydan xususiy xulosa chiqarish yo'lidir.

Traduksiya-xususiyydan xususiy yoki umumiydan umumiy xulosa chiqarish yo'li ekanligini psixolog olimlarning so'nggi yillardagi tadqiqotlari isbotlamoqda (qarang V.I. Volynkin):

III. O'quv materialini o'zlashtirishda tahsil oluvchilarning fikr yuritish mustaqilligi darajasiga ko'ra:

1. Mahsulsiz (tahsil oluvchilar nafaol ishtirokchi sifatida qatnashadilar).
2. Mahsulli (tahsil oluvchilarning faol izlanuvchan o'quv-bilish va ishlab chiqish faoliyatida ishtirok etishlarini ko'zda tutadi).

II. O'quv ishlarining boshqarilish darajasiga ko'ra:

1. O'qituvchining bevosita rahbarligi ostidagi o'quv ishlari;
2. Tahsil oluvchilarning o'z ustilarida mustaqil ishlashlari: (kitob) manbalar bilan ishlash; yozma ishlarni bajarish; laboratoriya ishlari; mehnat vazifalarini bajarish kabilar).

III. O'qib-o'rganishga qiziqtirish metodlari.

1. O'quv-bilish o'yinlari;
2. O'quv munozaralari;
3. Emotsional - axloqiy vaziyatlar.

VI. Burch va javobgarlikka rag'batlantirish metodlari:



1. O'qib-o'rganishning muhimligiga ishontirish;

2. Talablar qo'yish;

3. Talablarning bajarilishi yuzasidan mashq qildirish;

4. Rag'batlantirish va jazolash;

VII. Og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari:

individual so'rov; yoppasiga so'rov; og'zaki sinov; og'zaki imtihon;

mashinali yoki mashinasiz nazorat; og'zaki, yozma va amaliy o'z-o'zini nazorat qilish.

VIII. Yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari: yozma nazorat ishlari; yozma sinov ishlari; yozma imtihonlar; yozma dasturlashtirilgan ishlarni bajarish; yozma o'z-o'zini nazorat qilish.

IX. Laboratoriya amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari:

1. Laboratoriya amaliy nazorat ishlari;

2. Mashinali yoki mashinasiz nazorat ishlari;

3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun mo'ljallangan laboratoriya amaliy ishlarini bajarish.

X.. Shaxsiy his-tuyg'ularni shakllantirish (tarbiya) metodlari: suhbat, namuna bo'lish, ma'ruza, munozara.

XI. Ijtimoiy axloqiy tajribalar va amaliy faoliyatni tashkil etishni shakllantirish metodlari: pedagogik talab; jamiyat fikr-mulohazalari; odatlantirish; mashqlantirish; tarbiyaviy vaziyatlarni yuzaga (vujudga) keltirish.

XII. Odob- axloq va xulq- atvorni rag'batlantirish metodlari: Musobaqa; 2. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish; 3. Jazolash.

Real pedagogik jarayonda metodlarning qanday turlari bor yoki yo'qligini bilishgina emas, balki ulardan samarali foydalana olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim metodlari yoki ta'lim jarayonini amalga oshirish usullari o'qitish va o'qishdan iborat binar xususiyatga ega bo'lganligi uchun M.I. Maxmutov uni ikki tomonlama deb e'tirof etadi.

**O'qitish: maqsad qo'yish va tahsil oluvchilar faoliyatining mazmuni va tartibini aniqlash; o'zining o'qituvchilik, o'rgatuvchilik faoliyati, tahsil oluvchilarning bilish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatlariga rahbarlik qilish; nazorat qilib baholash; xulosa chiqarish kabilarni ko'zda tutadi.**

**O'qish-tahsil olish; diqqat bilan tahlil qilib nazardan o'tkazmoq; mutolaa qilmoq; ma'lumotga ega bo'lish kabilarni anglatadi.**

Yuqorida zikr etilgan metodlar guruhlarining har biri ham qator aniq ta'lim metodlaridan tashkil topadi. Masalan o'quv-bilish faliyatini tashkil etishda eng avvalo og'zaki (so'zlab berish, ma'ruza, suhbat va shu kabilar), ko'rsatmali (priborlarni namoyish etish, illyustratsiyalarni ko'rsatish kabilar), amaliy (mashq, laboratoriya tajribalari, mehnat xatti-harakatlari va boshqa) metodlar qo'llaniladi. Bu barcha metodlar o'quv axborotini o'qituvchi tomonidan uzatish va tahsil oluvchilar tomonidan idrok etish: eshitish, kuzatish, amaliy xatti-harakatlar orqali his etishni ta'minlaydi. Shu o'rinda o'quv axborotini jonli nutq, ya'ni



o'qituvchining so'zi orqali tahsil oluvchilar ongiga etkazish eng muhim o'rin tutishini yodda saqlash zarur.

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari induktiv, deduktiv va traduktivga bo'linib, o'quv materiali qanday mantiqiy tartibda yoritilishini, ya'ni xususiyydan umumiyga yoki aksincha umumiydan xususiyyga shuningdek, xususiyydan xususiyyga va umumiydan umumiyga tomon rivojlanishini belgilaydi.

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari guruhi o'z navbatida muammoli izlanuvchan va mahsulsiz metodlarga bo'linadi. Bunda o'quv materiali tahsil oluvchilar tomonidan muammo bo'yicha mustaqil fikr yuritish yoki o'qituvchi uzatgan tayyor axborotlarni faqat xotirada saqlab qolishni ko'zda tutadi. Shunday qilib, birgina suhbatning o'zi og'zaki, deduktiv va izlanuvchan ta'lim metodi sifatida talqin etilishi mumkin bo'ladi. Ta'lim metodlari tahsil oluvchilar o'quv-bilish faoliyatining mustaqillik darajasiga ko'ra: o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida yoki mustaqil holda o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlariga bo'linadi. Bu metodlarning har biri ham ma'lum ma'noda tahsil oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatiga qiziqtirishi va faollashtirishi mumkin. Shuningdek, pedagogik amaliyotda tahsil oluvchilarning o'qib-o'rganishga qiziqishini ta'minlash va o'qib-o'rganishga bo'lgan javobgarligini oshirish yo'nalishida ham qator maxsus metodlar qo'llaniladi. Bunday metodlar o'qib-o'rganishga qiziqtirish va motivlashtirish nomi bilan yuritilib, ularga bilish o'yinlari, o'quv munozaralari, rag'batlantirish, o'qishda muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, o'quv talablarini qo'yish kabilari misol bo'ladi.

Pedagogik tadqiqotlar ta'lim-tarbiya ishida muvaffaqiyatlarga erishish uchun nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Nazorat: og'zaki, yozma, laboratoriya, individual, yoppasiga, mashinali, mashinasiz, bevosita, bilvosita kabi turlarga bo'linadi.

O'qituvchi barcha metodlarning imkoniyatlari va qo'llanish hollarini yaxshi bilgan holdagina ulardan o'z o'rnida foydalanib, yuqori samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. Bunda, eng avvalo, shuni yodda tutish zarurki, pedagoglar tomonidan ta'lim metodlari turli darajalarda tanlanadi. Ularning ba'zi birlari faoliyatida shakllangan (stereotip) taqlid qilish, ya'ni bir qolipda ish yuritishga asoslansalar, ikkinchilari ichki his-tuyg'uga asoslanib, uchinchilari o'zaro aloqadorliklarga binoan, to'rtinchilari qo'llab-tekshirib ko'rish kabilarga ko'ra ta'lim metodlarini tanlaydilar. Hayot esa ta'lim metodlarini pedagog tomonidan ilmiy -metodik tavsiyalar asosida ongli ravishda ilg'or pedagoglar tajribalariga tayangan, o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashni talab etadi. Ta'lim metodlari majmuasi haqida tasavvurlar har doim aniq bo'lishi zarur, chunki ulardan ma'lum holatda foydalanish muvaffaqiyatli bo'lsa, boshqa holatda ular shart-sharoitga to'g'ri kelmasligi mumkin. Masalan, og'zaki metodlar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni uzatish bilan birga tahsil oluvchining abstrakt tasavvurlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga ulardan bir tomonlama, ya'ni monologik hamda ko'rsatmali obrazli va hatti-harakatlar orqali tahsil oluvchilar tomonidan o'quv materialini tushuntirishni qiyinlashtiradi. Chunki ular etarli



darajada ko'nikma va malakalarni rivojlantirmaydi. Ularning eng asosiy kamchiligi qisqa vaqt davomida bir marta zuhr bo'lishi, ya'ni takrorlanmasligidir.

Ko'rsatmali metodlar axborotni ko'rsatmali obrazli idrok etishga qaratilib, tahsil oluvchilarda ta'lim samaradorligini oshiradi. Lekin undan haddan tashqari ko'p foydalanish abstrakt tafakkur, nutq va o'z fikrini bir-biri bilan bog'lash mahoratini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Amaliy metodlar kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning asosi bo'lib, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi. Lekin bu metodlar bilan ham barcha masalalarning echimini topish mumkin emas. Chunki ulardan foydalanilganda nazariy bilimlarni o'zlashtirish nutq va abstrakt tafakkurni rivojlantirish imkoniyatiga nisbatan past darajada bo'ladi.

Mahsulsiz ta'lim metodlaridan o'quv axborotini tez fursatda xotirada puxta saqlab qolish maqsadida foydalaniladi. Lekin ular tahsil oluvchilarning mustaqil izlanuvchan o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etishlariga imkon bermaydi. Shuning uchun ham ulardan amaliyotda dasturlashtirilgan ta'lim sharoitida testlar shaklida foydalaniladi. Mahsulsiz ta'lim metodlari o'quv materialini elementlari bo'yicha xotirlab qolish va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishini individuallashtirish, bilimlarni individual o'zlashtirish sur'atini aniqlash maqsadlarida foydalaniladi. Dasturlashtirilgan ta'lim elementlari odatda o'quv materialini mantiqan tugallangan qismlarga bo'lingan hollarda tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini bevosita boshqarish kerak bo'lgan va tez fursatlarda axborotni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash zarur bo'lgan paytlarda qo'llaniladi.

Shunga qaramasdan bunday metodlardan foydalanish nisbatan ko'p vaqt talab etadi. Zarur darajada tafakkurlash qobiliyatini rivojlantirmaydi. Mustaqillik, izlanuvchan faoliyat ko'rsatishga imkon bermaydi. Ulardan haddan tashqari ko'p foydalanish materialning asl mohiyatiga tushunmay, ko'r- ko'rona yod olishga olib keladi. Demak, ulardan muammoli izlanuvchan metodlar bilan uyg'un holda foydalanish ko'zlangan natijani beradi.

Muammoli izlanuvchan ta'lim metodlaridan tahsil oluvchilarning mustaqil izlanuvchan o'quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi. Bunday metodlar o'quv materialini mustaqil ravishda mohiyatiga tushungan holda o'zlashtirilishiga imkon beradi.

Ulardan asosiy tushuncha, qonun va nazariyalarni shakllantirishni ko'zda tutuvchi materiallarni o'rganishda foydalanish samaralidir.

Muammoli izlanuvchan metodlar daliliy materiallarni bayon etish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, yangi materialni o'rganish, mazmuni tahsil oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan, ob'ektlar orasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini ko'rsatish, umumlashtirishlar talab etilgan hollarda yuqori samara bermaydi.

Tahsil oluvchilarning mustaqil ishi – bu ideal faoliyat, chunki kelajakda mutaxassis butun umri davomida ana shunday faoliyat bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil ishning o'zni va rolini oshirishga harakat qilish zarur. Lekin u o'z-o'zicha emas, balki o'qituvchining



bevosita rahbarligi ostida bajariladigan ishlar bilan uyg'un holda qo'llanilganda ko'zlangan natijani beradi.

Bundan mustaqil ishlarga ma'lum tayyorgarlik ko'rish zarurligi kelib chiqadi, aks holda mahsulsiz o'quv vaqtlar sarfiga olib keladi. Uning haddan oshib ketishi ham ortiqcha zo'riqishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mustaqil ishlarning hajmi o'quv materialining xususiyatlari, tahsil oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, yaratilgan shart-sharoit kabilarga binoan tanlangan bo'lishi zarur.

Ta'lim-tarbiya metodlarini tanlashga ta'sir etuvchi omillar:

- birinchidan, mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari;
- ikkinchidan, o'quv materiallarining xususiyatlari;
- uchinchidan, tahsil oluvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, tayyorlik darajalari kabilar;
- to'rtinchidan o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi, o'z ishiga ijodiy yondashishi, javobgarlikni his etishi kabilar;
- beshinchidan, shart-sharoit;
- oltinchidan, o'qib-o'rganish uchun ajratilgan vaqt;
- ettinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy ta'minoti va shu kabilar.

### Nazorat savollari.

1. Texnologiya va kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonining ikki tomonlama xususiyatlari deganda nimalarni tushunasiz?

2. Texnologiya va kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi kimlar bilan bevosita hamkorlik faoliyatida ishtirok etadi? Hamkorlik deganda nimani tushunasiz?

3. Texnologiya va kasbiy ta'lim o'qituvchilari umumta'lim o'quv predmetlari o'qituvchilarining qaysi muhim jihatlari bilan farqlanadi?

4. Texnologiya va kasbiy ta'lim didaktikasi va metodikasi qanday masalalarni hal etadi?

5. Texnologiya va kasbiy ta'lim-tarbiya ishida individual yondashuvning mohiyati nimadan iborat?

6. Zamonaviy dars tuzilmasida o'quv materialini dolzarblashtirish qanday maqsadni ko'zda tutadi?

7. Polilogik ta'lim deganda nimani tushunasiz. Uni sxematik ravishda ko'rsatib, mohiyatini tushuntiring.

8. Monologik ta'limni sxematik tasvirlab, undan qaysi hollarda foydalanilishi, afzallik va kamchiliklarini bayon eting. Tahsil oluvchilarning auditoriya va undan tashqaridagi mustaqil ishlarini tashkil etishdan qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?

### Adabiyotlar

1. Abduqudusov O.A. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. T.: 2013.- 240 b.



2. Дидактика в схемах и таблицах, Учебное пособие, Korkina V.I., 2013. - 240 s.
3. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 168 b.
4. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.
5. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo‘ysinov O.A. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2014. 389 b.
6. Olimov Q.T., Axmetjanov M.M., Uzoqova L.P., To‘xtayeva Z.Sh. Kasbiy pedagogika. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. – 495 bet.
7. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
8. Qo‘ysinov O.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: “DELTA PRINT SERVIS”, 2018. - 156 b.
9. Shuvalova M.A. Формирование профессиональных компетенций техников высокотехнологичной отрасли в дуальном образовании: Дисс. ... канд. пед. наук. – Красноярск.: 2016. – 195 с.
10. Ирхина И.В. Развитие дидактической системы учителя в профессиональной деятельности: Diss. ... dokt. ped. nauk. – Belgorod.: 2007. – 430 s.

#### **4- Mavzu: Texnologik va kasb ta’limida o‘quv-ishlab chiqarish ta’limining o‘rni.**

Reja:

1. Texnologik va kasb ta’limida o‘quv-ishlab chiqarish ta’limining o‘rni.
2. Texnologik va kasb ta’limi jarayonida predmetlararo aloqadorlik masalalari STEAM-ta’limi.

**1. Texnologik va kasb ta’limida o‘quv-ishlab chiqarish ta’limining o‘rni.** Ishlab chiqarish ta’limi malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining ajralmas muhim tarkibiy qismidir.

Ma’lumki, kasbiy tayyorganlik yoki insonni ma’lum aniq sohada ishlashga, ya’ni mehnat qilishga o‘rgatish quyidagi ikki yo‘l orqali amalga oshirilishi e’tirof etilgan:

a) tahsil oluvchini malakali mutaxassis bilan bevosita hamkorlikda ishlash jarayonida, ya’ni usta-shogird tizimida;



b) maxsus muassasalarda tashkil etilgan texnologik va kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'rgatish.

Usta-shogird yo'li uzoq vaqt, ko'p miqdordagi o'qituvchilar talab etilganligi va samaradorligining nisbatan pastligi sababli hozirgi vaqtda nisbatan kamroq qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim qismidir. Xalqaro kasbiy ta'lim tasnifida 40:60 nisbat qabul qilingan bo'lib, kasbiy tayyorgarlik jarayonining 40 foizida nazariy ta'lim 60 foizida esa amaliy ta'lim tashkil etishi zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham respublikamizda kasbiy tayyorgarlik uchun ajratilgan umumiy vaqtning 40-50 foizi ishlab chiqarish ta'limiga ajratiladi. U mohiyatiga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan muhandis-pedagog yoki ishlab chiqarish ta'limi ustasi bilan tahsil oluvchilarning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladigan faoliyatlarida o'z aksini topadi. Bunday faoliyatning natijasi bo'lib, tahsil oluvchilarda tarkib topgan amaliy bilimlar, kasbiy xatti-harakat usullari (ko'nikma, malaka) hamda shaxsiy fazilatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ta'lim-tarbiya ishining barcha umumiy qonun-qoidalariga qat'iy amal qiladi, shu bilan birga uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

Tahsil oluvchilarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etishlari ishlab chiqarish ta'limining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi, bu o'z navbatida uning mazmunini, tashkil etish shaklini, o'qitish vositasi va uslubini aniqlaydi.

Har qanday ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lganidek ishlab chiqarish ta'limida ham tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatining ikki tomoni, ya'ni ichki va tashqi tomonini hisobga olish muhimdir. Ishlab chiqarish ta'limida tahsil oluvchilar faoliyatining tashqi tomoni – ularning o'quv-bilish faoliyatlarida ma'lum kasbiy xatti-harakat usullarini bajarishda, mahsulot tayyorlashlarida mexanizmlarni roslash va sozlashda, mashinalarni ishga va saqlashga tayyorlashda hamda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilgan holda ularni ishlatishlarida o'z aksini topadi. Ichki (intellektual) faoliyat esa ishlab chiqarish ta'lim ustasi ko'rsatmalarini qabul qilish, idrok etish, fikr yuritish, berilgan vazifalarni rejalashtirish, ularni bajarishning maqbul variant va usullarini belgilash, bajarilgan ish sifatini aniqlash va baholash hamda o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish kabilarda namoyon bo'ladi. Tahsil oluvchilar faoliyatining bu ikki tomonini o'zaro birgalikda uzviy bog'liq holda o'quv materialiga jalb etish natijasida ularda amaliy jihatdan muhim kasbiy ish-harakat usullari muvaffaqiyatli shakllanadi.

Tahsil oluvchilarning yuqorida ko'rsatilgan o'quv-bilish faoliyatlarining ichki va tashqi tomonini boshqarish, ma'lum kerakli tomonga o'zgartirish yoki yo'naltirish ishlab chiqarish ta'limini amalga joriy etuvchi muhandis-pedagoglar faoliyatining mohiyatini tashkil qiladi, ya'ni nimani qanday o'qitish kerakligini aniqlaydi.



Shuningdek, muhandis-pedagog, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, yo'riqchining ish faoliyatiga o'quv materialining mazmuni, tahsil oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, mashg'ulot o'tkaziladigan sharoit, yo'riqchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi va shunga o'xshash ko'plab omillar ham ta'sir qiladi.

Odatda texnologik va kasbiy ta'lim bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari laboratoriyalarda, o'quv ustaxonalarida, o'quv-mashq maydonlarida, otaliq xo'jalik hamda korxonalarda o'tkaziladi. Amalda ishlab chiqarish ta'limi: o'quv amaliyoti va ishlab chiqarish amaliyoti sifatida ham talqin etiladi.

Shu o'rinda har qanday mashg'ulot kabi ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari ham muhandis-pedagogning ko'plab omillariga muvofiq hal etadigan ijodiy ishi ekanligini unutmaslik lozim. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini yuqorida zikr etilgan joylarda tashkil qilishning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni oqilona uyg'unlikda tashkil etish va o'tkazish uchun muhandis-pedagog eng avvalo o'quv materialining mazmunini, mashg'ulot maqsadi va o'tkazish shart-sharoitlarini bilishi lozim. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi va mazmuni tayyorlov yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik malaka tavsifnomasi hamda o'quv dasturlarida o'z ifodasini topadi.

Ishlab chiqarish ta'limi dastlab o'quv laboratoriyalari va ustaxonalarida tashkil etilib, ularda tahsil oluvchilar ilk bor kasbiy mahorat sir-sinoatlarini egallashga kirishadilar.

Korxonalarda tashkil etilgan ishlab chiqarish mashg'ulotlari tahsil oluvchilarda o'zlari tanlagan mutaxassislik bo'yicha kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini zamonaviy asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollaridan foydalanilgan holda tarkib topishiga sharoit yaratadi.

Bunday mashg'ulotlar haqiqiy amaliyotga mumkin qadar yaqin sharoitda tashkil etilganligi sababli tahsil oluvchilarni tanlagan kasbiy mehnatini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan yaqindan tanishtiradi, mustaqillik darajasi va ijodiy faolligini oshiradi.

Har qanday ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari (darslari) quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

- muhandis-pedagogning boshlang'ich (kirish) ko'rsatma yoki yo'l-yo'riq berishi;
- tahsil oluvchilarning mustaqil ish bajarishlari, mashq qilishlari, ayni vaqtda muhandis-pedagog faoliyati, joriy yo'l-yo'riq berishdan iborat bo'ladi;
- mashg'ulot yakunida tahsil oluvchilar faoliyatini baholash uchun yakuniy yo'l-yo'riq berish.

Yo'l-yo'riq berish (instruktaj) - o'qituvchi yoki muhandis-pedagogning tahsil oluvchilarga berilgan topshiriq (vazifa)ni xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'liq rioya qilgan holda amalda bajarish tartibi haqida tahsil oluvchilar diqqat-





e'tiboriga havola etiladigan yo'l-yuriqlar, talablar va ogohlantirishlar mazmuniga ega bo'lgan fikrini bayon qilish shaklidir.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida, ayniqsa muhandis-pedagog foydalanadigan ish qurollari, asbob-uskuna va moslamalarining sifati, ulardan to'g'ri foydalanish tartibi, rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya qoidalari, pedagogning bajariladigan ish sifati hamda samaradorligiga bo'lgan talablarini buzilishining oldini olish haqida beradigan ko'rsatmalari muhim ahamiyatga ega.

Tahsil oluvchilarning darsga qiziqishi va o'quv materialiga diqqat- e'tiborini tortish uchun ishlab chiqarish ta'limi ustasi hayotiy misollar, asosli dalillar keltirishi, ushbu mashg'ulotda tarkib topishi ko'zlangan bilim va xatti-harakat usullarining kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini ko'rsatib o'tishi lozim.

Odatda ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarida kirish yo'riqnomasini berish quyidagi tartibda olib boriladi: yangi o'rganiladigan mavzu va mashg'ulot maqsadi bayon etiladi; oldin o'tilgan mavzular bo'yicha tahsil oluvchilar egallagan bilimlari va xatti-harakat usullarining shakllanganlik darajasi aniqlanadi: bajarilishi ko'zda tutilgan vazifa, topshiriq yoki ishning amaliy ahamiyati, xususiyatlari va bajarilish tartibi bayon etiladi: texnik-texnologik chizma va, xaritalar hamda talablar ko'rsatiladi: foydalaniladigan material, asbob-uskuna, moslamalar va shunga o'xshashlar bilan qanday ishlash kerakligi tushuntiriladi; vazifani bajarishning maqbul (oqilona) shart-sharoitlari, usullari va tartibi bayon etiladi: vazifani bajarishda tahsil oluvchi yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularni o'z vaqtida oldini olish chora-tadbirlari ko'rsatiladi. Shu o'rinda kirish yo'riqnomasini tahsil oluvchilar qanday darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish, har bir tahsil oluvchiga shaxsiy vazifa berish va ularni ish o'rinlariga taqsimlash, shuningdek, vazifani bajarishda rioya qilinishi lozim bo'lgan mehnat xavfsizligi qoidalariga alohida e'tibor beriladi.

Tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonuniyatlar, qoidalarga binoan tuzilgan tizim bo'lib, texnologik jihatdan ma'lum ketma-ketlikda ko'zlangan bilim va xatti-harakat usullarini egallashni nazarda tutadi. Mashg'ulotning bu bosqichida ishlab chiqarish ta'limi ustasi tahsil oluvchilarning xatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, ularning ishiga rahbarlik qiladi, kerak bo'lgan vaqtda bir necha marta ma'lum maqsadni ko'zlab ish o'rinlarini aylanib chiqadi, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, bunday ko'rsatma berish vaqtida barcha tahsil oluvchilar bir vaqtda vazifani bajarishga kirishganliklarini tekshirish, ularni har birlari o'z ish o'rinlarini qanday tashkil etganliklarini nazorat qilish, o'quv, texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy va shunga o'xshash didaktik materiallar hamda hujjatlardan to'g'ri foydalanishlarini tekshirish kabi maqsadlarni ko'zda tutadi. Bir so'z bilan aytganda, joriy ko'rsatma berish tahsil oluvchilarni amaliy bilimlar va kasbiy xatti-harakat usullarini egallashlari hamda texnologik jarayon va operatsiyalarni sifatli bajarishlariga qaratilgan bo'ladi.



Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining bu bosqichida muhandis-pedagog quyidagilarga alohida e'tibor berishi kerak:

- barcha tahsil oluvchilar ishini e'tibordan chetda qoldirmagan holda, har bir tahsil oluvchi ishiga sinchkovlik bilan qarash;
- zaruriyat bo'lmagan hollarda tahsil oluvchilarning ishiga aralashmaslik;
- tahsil oluvchilarda o'z faoliyatini tahlil qilish, yo'l qo'ygan xatolarining sabablari va ularni o'z vaqtida bartaraf etish yo'llarini iloji boricha mustaqil holda fikr yuritib topishlari uchun sharoit yaratish;
- tahsil oluvchilarning o'z vazifalarini oxiriga etkazmay tashlab ketish kabi mas'uliyatsizliklariga qarshi kurashish;
- bajarilgan ishni baholashda avvalo tahsil oluvchilarning yutuqlarini so'ngra esa kamchiliklarini ko'rsatish.

Bunday mashg'ulotlarda yakuniy ko'rsatma berish ham muhim ahamiyatga ega.

Yakuniy ko'rsatma berishning mazmuni, tashkil etish shakli va o'tkazish uslubi muayyan aniq mashg'ulot natijalariga ko'ra aniqlanadi va uning maqsadi tahsil oluvchilarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Biz yuqorida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarining umumiy o'ziga xos bosqichlari va tarkibiy elementlari bo'lgan ko'rsatmalarning mohiyati, maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan qisqacha tanishtirishga harakat qildik. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bunday ko'rsatma berish sxemasi qat'iy va majburiy bo'lmay, balki, o'quv materialining xususiyatlariga, muhandis-pedagogning tayyorgarlik darajasi va tajribasiga, tahsil oluvchilarning tayyorgarlik darajasiga, mashg'ulot o'tkazish shart-sharoitlariga qarab mos ravishda ijodiy hal etilishi mumkin.

Texnologik va kasb ta'lim bo'yicha tayyorgarlik maxsus tashkil etilishi, kasbiy tayyorgarlik va malakali o'qituvchilar, zamonaviy vositalar yordamida amalga oshirilganligi yuqori samaradorlik imkonini beradi.

Malakali mutaxassislar tayyorlashda o'quv jarayoni umumilmiy, umumkasbiy va maxsus fanlar turkumlaridan tashkil topadi.

1. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi – tahsil oluvchilarda ma'lum aniq kasb, ixtisoslik bo'yicha kasbiy mahorat asoslari bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.

2. Tahsil oluvchilarning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlariga bo'ysundirilgan ishlab chiqarish mehnatlari ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi.

3. Tahsil oluvchilarda egallanayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish – ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi.

4. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

5. Ishlab chiqarish ta'limi nazariy ta'limga nisbatan faol jarayondir. Shu sababli o'qituvchining vazifasida axborot uzatish funksiyasi kamroq bo'lib, rahbarlik qilish, yo'naltirish va yo'l-yo'riq ko'rsatish vazifalari esa kuchaytirilgan bo'ladi.



6. Ishlab chiqarish ta'limining maqbul tashkil etilib, o'tkazilishi uchun o'qitishning texnik vositalari, eng avvalo moddiy-texnik baza, jihozlar, shuningdek, o'quv-ishlab chiqarish ob'ektlarining to'g'ri tanlanganligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

**Bilim** - ob'ektiv olamni ongli idrok etish natijasida xotirada tizimlashtirilgan va mustahkamlangan tasavvurlar hamda o'rganilayotgan ob'ekt haqidagi tushuncha, dalil, xulosa va hukmlar tizimidir.

**Ko'nikma** - tahsil oluvchilarning mehnat va xatti-harakat usullarini ongli hamda to'g'ri bajarishga tayyor bo'lish qobiliyatidir.

**Malaka** - kasbiy xatti-harakat usullarini maqsadga muvofiq maksimal darajada aniq, tez va talab darajasida bajarishdir.

1. Ishlab chiqarish mehnati – ishlab chiqarish ta'limining asosi hisoblanadi, lekin ishlab chiqarish ta'limi ishlab chiqarish mehnati bilan chegaralanib qolmaydi.

2. Ishlab chiqarish ta'limi jarayoni – o'quv jarayonidir, uning har bir bosqichida kasbiy tayyorgarlikning o'ziga xos vazifalari o'z echimini topadi. Tahsil oluvchilarning ishlab chiqarish mehnati har doim o'quv vazifalariga bo'ysundirilgan bo'ladi.

3. Ishlab chiqarish ta'limi maqsad va vazifalari ustuvorligini ta'minlash uchun, avvalo tahsil oluvchilarga kasb-hunar asoslarini o'rgatish zarur.

4. Ishlab chiqarish ta'limi samaradorligi o'quv va ishlab chiqarish vazifalarining o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi tizimi deb bo'lajak mutaxassislarda kasbiy ko'nikma va malakalarni maqbul darajada tarkib toptirish maqsadida o'quv materialini, maqsadga muvofiq tizimlashtirilgan holda, tahsil oluvchilar mulkiga aylantirish izchilligiga aytiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi tizimi ijtimoiy munosabatlar, ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga ko'ra o'zgaradi. Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ishlab chiqarish ta'limining quyidagi tizimlari qo'llanilganligi pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan:

a) **predmet tizimi** – shogird tomonidan buyumning izchil ravishda, muayyan miqdorda, butun murakkabligida boshidan oxirigacha tayyorlanish jarayonini qamrab oladi. Bu tizimning kamchiliklari: shogird o'zi tanlagan kasbi bo'yicha boshlang'ich kasbiy (elementar) ko'nikmalarga ega bo'la olmaydi, shuningdek, mazkur tizim tahsil oluvchilarda tegishli ixtisoslik bo'yicha to'laqonli bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish imkoniyatiga ega emas. Undan foydalanishda didaktik prinsiplarga to'laqonli amal qilinmaydi, o'quv dasturidan foydalanish imkoniyati deyarli mavjud emas. Nazariy va amaliy ta'limning aloqadorligi hisobga olinmaydi.

b) **operatsiya tizimi** – mehnat jarayonlarini aniq operatsiyalarga bo'lishga asoslanadi. Unga 1868 yilda Bauman nomidagi oliy texnika bilim yurtida asos solingan. D.K. Sovetskiy, V.P. Markov va ularning maslakdoshlari bu tizimning asoschilari hisoblanishadi. Bu tizim pedagogik manbalarda "rus tizimi"deb ham yuritiladi va quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda, tahsil oluvchilar o'quv ustaxonalarda operatsiyalarni bajarishni o'zlashtirsa, ikkinchi



bosqichda ular bevosita buyum, mahsulot (tovar) ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar. Operatsiya tizimining joriy etilishi bilan mehnat operatsiyalarining murakkablashishi, ta'lim tizimida ishlab chiqarishning ilmiyligi va o'quv dasturlarini yaratish, ta'limda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi kabi didaktik prinsiplarga amal qilinishiga shart-sharoit yaratadi, shuningdek, operatsiya tizimining ham o'ziga xos quyidagi kamchiliklari e'tirof etilgan:

Ustaxona sharoitida operatsiyalarning o'zlashtirilishida iste'mol qiymati bo'lmagan predmetlardan foydalaniladi;

Istiqbolda mustahkamlanmaydigan ko'p sonli operatsiyalarga o'rgatiladi;

Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning nomenklaturasi bozor talablariga bog'liq bo'lib, birinchi ish kunidanoq murakkab operatsiyalarni bajarishga imkon bermaydi va shu kabilar.

Yuqoridagi kamchiliklar mavjudligi sababli bu tizim kasb-hunar ta'limi tizimida keyinchalik qo'llanilmadi.

v) operatsiya – predmet tizimi – XIX asrning 90-yillarida S.A. Vladimirskiy tomonidan taklif etilgan. Ushbu tizim ishlab chiqarish ta'limini yanada takomillashtirdi. Chunki bu tizim tahsil oluvchilar tomonidan mehnat operatsiyalarini o'ylab, tanlangan buyumlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Buyumlar tanlashda oddiydan murakkabga, osondan qiyinga prinsipiga amal qilinadi. U mahsulot ishlab chiqishni ko'zda tutganligi sababli qiziqarli kechadi va tahsil oluvchilarda yanada unumliroq ishlashga qiziqish his-tuyg'usini uyg'otadi. Bu tizim o'zining quyidagi kamchiliklariga ega: tahsil oluvchilar ba'zi operatsiyalarni to'laqonli o'zlashtirmay, ya'ni etarli darajada mashq qilmay, tegishli malakaga ega bo'lmay qolar edilar; egallangan ko'nikma va malakalar nozikligi bilan ajralib turmas, ya'ni buyum ma'lum shablon asosida tayyorlanar edi.

g) mashq motor tizimi – Markaziy mehnat instituti tomonidan 1927- 1930 yillarda operatsion tizimning qayta ishlab takomillashtirilgan shaklidir. Bu tizimda ta'lim quyidagi besh davrga bo'linadi:

1. Asosiy mehnat faoliyati va xatti-harakat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashq mashg'ulotlari;

2. Mehnat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar o'z ichiga avval o'rganilgan xatti-harakatlarni qamrab oladi;

3. Mehnat operatsiyalarini bajarishga oid mashqlarda o'rganilgan usullar qo'llaniladi;

4. Oddiy detallarni yasash jarayonidan majmuaviy ishlarni bajarishgacha o'zlashtirilgan xatti-harakat usullari murakkablashtirib boriladi;

5. Korxonalarda ish o'rinlarida tanlangan kasb bo'yicha xarakterli ishlar bajariladi va h.k..

Shu bilan birga mashq-motor tizimining afzalliklari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ish mazmunini kasbiy faoliyatga oid operatsiya va usullarning aniq va ravshanligi; yo'riqnomalarning ilmiy xarakterda ekanligi; mashqlarni maxsus qurilmalarda amalga oshirilishi va hokazo.



Demak, operatsion majmua tizimi bu avval zikr etilgan barcha tizimlarning takomillashtirilgan shaklidir. Bu tizim majmuaviy harakterdagi ishlarni nazarda tutadi, shuning uchun ham uni takomillashtirish zaruriyati mavjud. Bu sohada K.N. Katxanov, M.A. Jidelev, I.S. Figanov, A.E. Pyadochkin, S.Ya. Batyishev kabi chet el va A. I. Vorobyov, Ya. Haydarov, K.J. Mirsaidov, R.Q. Choriev kabi vatandosh pedagog - olimlarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Ishlab chiqarish ta'limi avval zikr etilganidek maxsus joylarda o'tkazilganligi bois ularga o'ziga xos talablar qo'yiladi. Quyida ana shular haqida qisqacha fikr yuritiladi.

**O'quv ustaxonalarini tashkil etish va ularning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish.** O'quv ustaxonalarining jihozlariga qo'yiladigan bosh talab ularning o'quv dasturlariga mos kelishi, konstruksiyalarining zamonaviyligi, universalligi, energiya sarfining kamligi, tannarxining nisbatan arzonligi, o'lchamlarining katta bo'lmasligi, ishlatish va xizmat ko'rsatishga o'ng'ay bo'lishi, xavfsizlik texnikasi qoidalarini ta'min etishi kabilardir. Shuningdek, o'quv jihozlari korxonalar texnik jihozlariga mos bo'lib, ilg'orlar tajribalarini o'zlashtirishga imkon berishi zarur.

O'quv ustaxonalari jihozlarining nomenklaturasi va soni maxsus me'yornomalarda ko'rsatiladi. Ustaxonalarda asosiy jihozlar bilan birga yordamchi jihozlar ham bo'lib, ular tahsil oluvchiga qisqa muddatli yordamchi operatsiyalarni bajarishga, shuningdek, har bir ish o'rnini tashkiliy texnik ta'minlashga imkon berishi kerak.

Ishlab chiqarish ta'limi dasturida tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, xatti-harakat usullari va ish turlarining ro'yxati ko'rsatiladi. U yoki bu mavzuni o'rganish jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan bajariladigan ish ob'ektlari kollej muhandis-pedagoglari tomonidan o'rnatiladi. Tahsil oluvchilar tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimini ongli va puxta o'zlashtirilishini ta'minlash uchun mutaxassislik bo'yicha mustaqil ishlar muhim ahamiyat kasb etadi va o'quv ishlarini jiddiy o'ylab tanlashni ko'zda tutadi.

Ma'lumki, o'quv ishlarining ro'yxati tahsil oluvchilarning tanlagan kasblari va ixtisosliklari bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi dasturiga binoan qanday aniq o'quv-ishlab chiqarish vazifalarini bajarishlari zarurligini aniqlash maqsadida ishlab chiqiladi.

O'quv ishlarini tanlashda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

- buyum tayyorlash o'quv dasturidagi mos mavzularni o'rganish ketma-ketligini ta'minlashi zarur;
- o'quv ishlari sifatida shunday buyum tanlab olinishi kerakki, u ma'lum qiymatga ega bo'lsin, ya'ni amalda qo'llash uchun yaroqli bo'lsin;
- buyumlarning o'lchamlari unchalik katta bo'lmay, tahsil oluvchilarning o'zlari ularni o'rnidan qo'zg'atish, bir joydan ikkinchi joyga olib borish, o'rnatish kabi ishlarni mustaqil holda bajara olsinlar;

Ro'yxatni tuzishda kasbiy tavsifnoma, o'quv dasturi, didaktik prinsiplarning hisobga olinishi asosiy shart hisoblanadi.

**O'quv ishlarining ro'yxati** - bu tahsil oluvchilarning ishlab chiqarish ta'limini rejalashtirish bo'yicha asosiy hujjatdir. Har bir mavzu bo'yicha o'quv ishlari

ro'yxatiga bitta emas, balki bir necha real ishlar kiritiladi, ular ushbu kasb bo'yicha ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun etarli bo'lishi, asta sekin murakkablashib, o'quv vaqtida bajarilish imkoniyati mavjud bo'lishi, murakkabligi va aniqligi tahsil oluvchilarni jismoniy imkoniyatlariga va olgan bilimlariga mos bo'lishi muhimdir. O'quv-ishlab chiqarish ishlarining shakli quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq: rejalashtirilgan ish hajmi o'quv rejasida ushbu mavzuni o'rganish uchun ajratilgan vaqt miqdoriga mos bo'lishi zarur; har bir tayyorlanadigan buyum uchun texnik hujjatlar (chizmalar yo'riqnoma yoki texnologik xarita kabilar) va o'quv davriga ko'ra vaqt me'yori aniqlanadi. O'quv ishlari shunday tanlanishi zarurki, unda kasbiy operatsiyalar takroriy bajarilishi bilan kasb-hunar sir-sinoatlarini puxta va mukammal o'rganish mumkin bo'lsin. Kasbiy xatti-harakat usullarini asosiy va ikkinchi darajalilarga ajratish imkoniyati mavjud bo'lsin.

Ma'lumki, kasbiy xatti-harakat usullarini takomillashtirish, ya'ni ko'nikma va malaka darajasida shakllantirish maqsadida mashqdan foydalaniladi.

Mashq – o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida ma'lum xatti-harakatlarni ongli ravishda ko'p marta takror bajarilishidir. Mutaxassislarni mashqlarni mahsulsiz, mahsulli (izlanuvchan) va ijodiy turlarga bo'ladilar.

Mashq moslamalari, jihozlari, qurilmalari, texnik, texnologik ob'ektlar tuzilishi va vazifalarini modellashtiradi; nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqasini ta'minlaydi, avariya va nosozlik (buzilish) xavfini chetlagan holda tahsil oluvchilarni aniq ishlab chiqarish sharoitlariga yaqinlashtiradi; texnik-texnologik ob'ektlarning turli ish rejimlarini ko'p marta takroriy bajarib ko'rish, murakkab texnologik jarayonlarni kechishini anglab olish imkonini beradi; o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Mashqlar didaktik jihatdan: o'quv mashg'ulotlari, o'quv-ishlab chiqarish va ishchi mashqlarga bo'linadi.

Mashqlarga qo'yiladigan asosiy talablar V.A. Skakun va Sh.Avazov tomonidan qo'yidagicha bo'lishi ko'rsatilgan (1-rasm).





O'quv mashqlari odatda tayyorgarlik davrining boshlarida qo'llanib, tahsil oluvchilar ish usullari yoki xatti-harakat usullarini o'rganishlari uchun qo'llaniladi. Buning uchun ish jarayonidan alohida usullar ajratib olinadi va ular mashq ob'ekti sifatida qaraladi. Bunda har bir xatti-harakat usuli ko'p marta takrorlanadi va boshqalari bilan qo'shilmaydi.

Malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'quv-ishlab chiqarish mashqlarining o'rni muhim ahamiyatga ega ishlab chiqarish jarayoniga juda yaqin sharoitda amalga oshiriladi va ishlab chiqarilgan mahsulot real qiymatga ega bo'ladi. Demak, mashqlar imkon qadar ishlab chiqarish shart-sharoitlari, yuksak mustaqillik darajasi, foydali mahsulot ishlab chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. O'quv-ishlab chiqarish mashqlari eng avvalo shtat ish o'rinlarida o'tkaziladi.

Buning uchun tahsil oluvchilar ma'lum bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari shart .

**2. Texnologik va kasb ta'limi jarayonida predmetlararo aloqadorlik masalalari STEAM-ta'limi.** Pedagogika fanida predmetlararo aloqadorlik muammosining qo'yilishi, eng avvalo, asosiy diqqat-e'tiborni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv predmetlari(fan)ni o'rganishni muvofiqlashtirish va tahsil oluvchilarda mazmunan mukammal, mantiqan tugal tizimli bilim, xatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Predmetlararo aloqadorlik ta'lim mazmunining tarkibiy va mantiqiy jihatlariga ahamiyat berishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan u didaktik muammo, prinsip, shart-sharoit, vosita, metod kabi yo'nalishlarda tadqiq etilib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga joriy etilishi zarur. Predmetlararo aloqadorlik masalasini nazariya va amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etilayotganligini ko'rsatadi.

1. Muammoning nazariy asoslari – P.R. Atutov, S.Ya. Batyishev, A.P. Belyaeva, M.I. Maxmutov va shu kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

2. O'quv dasturiy hujjatlar tuzilmasida aloqadorlik imkoniyatlarini tadqiq etish – P.M. Badueva, G.S. Gutorov, X.F. Rashidov, B.F. Boyarchuk, I.I. Babkin, A.P. Belyaeva, V.I. Andriyanova, I.D. Kolochkov, Yu.K. Vaselev, I.Ya. Kuramshin, Q. Olimov, K.A. Zoyirov, O.A. Abduqudusov va ularning ko'p sonli maslakdoshlari tomonidan amalga oshirilgan.

3. Predmetlararo aloqadorlik prinsipidan foydalanishning turli shakl, usul va vositalarining imkoniyatlari – P.G. Kulagin, V.A. Polyakov, L.V. Saveleva, I.Ya. Kuramshin, A. Aliev, L.G. Davydova, V.I. Palamarchuk, V.A. Skakun, G. Jumashva, G.S. Gutorov, O'. Tolipov, A.Z. Shakirzyanov, B.I. Muranov, B.M. Mirzaxmedov, O.L. Musurmonov, F. Musaev, O. Abduxalilov, G.F. Fedores, N.M. Berulova, A .Ibragimov, I. Aliev, R. Zaynobiddinova va boshqalar tadqiqotlarida yoritilgan.

Shuningdek, predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirishda ko'proq umumilmiy, umumkasbiy va mutaxassislik o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlik tadqiq etilayotganligi ham ma'lum. Bunday aloqadorlik tabiiy hol bo'lib, sun'iy



qurilmalar va texnologiya jarayonlari asoslarini ilmiy ravishda anglashga imkon beradi.


V.A. Skakun texnologiya va kasb ta'limini o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda predmetlararo aloqadorlikni quyidagicha tasniflab tadqiq etishni tavsiya etadi:

1. O'quv materialining mazmuni bo'yicha;
2. Shakllanishi ko'zda tutilgan xatti-harakat usullari (ko'nikma va malakalar) bo'yicha;
3. Ta'lim metodlari va vositalari bo'yicha;

Predmetlararo aloqadorlikning turli jihatlariga ko'ra tasniflab ularning roli va o'rmini baholash ularni amalga oshirish usullarini aniqlash imkonini beradi. Predmetlararo aloqadorlikdan zamonaviy darsning barcha: dolzarblashtirish, yangi materialni o'rganish, qo'llash, nazorat qilish, uyga vazifa berish kabi bosqichlarida foydalanish imkoniyatlari mavjud.

S.Ya. Batyshhev predmetlararo aloqadorlikning rolini yuqori baholash bilan birga ularni amalga oshirishda o'quv predmetlarining birini ikkinchisiga bo'ysundirib qo'ymaslik, ya'ni har bir o'quv predmeti o'zining mustaqilligini saqlab qolishi lozimligini alohida qayd etgan. L.S. Fridman va E.M. Volyanskiylar fikricha umumilmiy o'quv predmetlari bilan ixtisoslik o'quv predmetlarining aloqadorligini amalga oshirish ilmiy, texnik va texnologik tushunchalar tizimlari orasidagi aloqadorlikni aniqlash yo'nalishida tadqiq etilishi zarur. Bu fikrni chizma shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

1-chizma



Amaliyotda predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirilishiga quyidagilar ma'lum ma'noda to'sqinlik qiladi:

1. O'quv predmetlarida o'zaro muvofiqlashtirilmagan atama (termin) va tushunchalarning qo'llanilishi;
2. O'quv materialidan asosiy g'oya, nazariya, masala yoki tushunchalarning ajratib olinmaganligi yoki ko'rsatilmaganligi;
3. Ilmiy bilimlarning ichki aloqadorligini hisobga olinmaganligi (bilimlarda mantiqiy tugallikning hisobga olinmaganligi);





4. O'quv predmetlarining tarqoqligi (yaxlit holda tashkil etilmaganligi va aniq yagona maqsadni ko'zda tutmaganligi), ularning mazmunan uzviy bog'lanmaganligi va izchil o'rganilmaganligi;

5. Tahsil oluvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, predmetlarni o'zaro aloqadorlikda o'qitishga munosabati va shu kabilar.

Predmetlararo aloqadorlik keng va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida uni pedagogik amaliyotga joriy etishga qiziqish yanada kuchaydi. Bu muammo yo'nalishda ko'p sonli maqolalar yozilgan, nomzodlik va hatto doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Ularning fikricha predmetlararo aloqadorlik ta'limning ilmiylik, tushunarlilik hamda tizimlilikini oshirishga imkon berib, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtiradi, bilimlari sifatini oshiradi. Bu, olimlar talqinicha predmetlararo aloqadorlik mohiyati va vazifasiga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayoniga oid pedagogik nazariya yoki bosh qoida bo'la olmaydi.

Predmetlararo aloqadorlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish omili bo'lishiga qaramay shu paytgacha u ilmiy jihatdan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi tufayli texnologiya kasb-hunar pedagogikasida ham etarli darajada tadqiq etilmagan hisoblanadi.

Shu paytgacha predmetlararo aloqadorlik iborasiga to'laqonli izoh berishda ham ma'lum to'xtamga, ya'ni yakdillikka kelingani yo'q. Predmetlararo aloqadorlik tushunchasini qanday pedagogik kategoriyaga kiritish haqida yagona fikr yo'qligiga qaramay, u o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Biz predmetlararo aloqadorlikni pedagogik muammo sifatida talqin etib, uning yordamida tahsil oluvchilar tomonidan kasbiy bilim va xatti-harakat usullarini tizimli o'zlashtirishlarini aniqlashga harakat qilamiz. Chunki predmetlararo aloqadorlikni o'rnatish, belgilab olish (qayd etish) va amalga oshirishning zarurligi har tomonlama bilimdon, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassis shaxsni tarkib toptirish maqsadini ko'zda tutadi.

Genetik jihatdan predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan ob'ektlar aloqadorligi (predmetlar, insonlar, hodisalar va jarayonlar)dan kelib chiqadi. Predmetlararo aloqadorlikning metodologik asosi moddiy olamning yaxlitligi, nazariya va amaliyotning birligi, olam, jamiyat va tafakkurning o'zgarishi va rivojlanishi hisoblanadi.

Predmetlararo aloqadorlikning psixofiziologik asosi inson tafakkuri, ya'ni fikr yuritish tabiatidan kelib chiqadi. Chunki predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan ob'ektlarning yangi qirralarini bilishga imkon beradi va ko'lam jihatdan keng va chuqur, mohiyatiga ko'ra yaxlit tizim shaklidagi bilim, xatti-harakat usullari hamda shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik nuqtai nazardan olib qaraganda, predmetlararo aloqadorlik o'qituvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyati jarayonida o'rganilayotgan ob'ektlarning mazmuni va mohiyatini ochib beradi. Predmetlararo aloqadorlikning didaktik jihatdan muhimligini N.I.Dumchenko quyidagicha ifodalagan:



1. "Predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirish mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirish va rivojlantirishning zaruriy shartidir;

2. Moddiy dunyoning yaxlitligiga asoslangan holda, dialektik dunyoqarashni shakllantirishda ta'lim mazmunining barcha tarkibiy qismlari organik aloqadorlikni talab etadi;

3. U zamonaviy texnika, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari, mulkchilikning shakllari, yangicha xo'jalik yuritish va shu kabilarning ilmiy asoslari mazmuni hamda mohiyatini anglab etishga imkon beradi;

4. O'rganilayotgan o'quv predmetlarini mazmunan o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi;

5. Predmetlararo aloqadorlik o'quv materialini takrorlanishiga chek qo'yish, o'quv vaqtini iqtisod qilish kabilar bilan shaksiz tashkiliy-iqtisodiy samara beradi;

6. Ta'lim-tarbiya jarayonini majmuaviy muvofiqlashtirib, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini oshishiga imkon beradi" Turli o'quv predmetlarini o'qitadigan o'qituvchilar, psixolog olim P.Ya. Galperin asoslab bergan xatti-harakat usullarining mo'ljalga olish asoslari va aqliy ish-harakatlar bosqichli shakllantirish nazariyalariga muvofiq amaliy faoliyatda quyidagilarga rioya qilsalar metodik jihatdan predmetlararo aloqadorlik muvaffaqiyatli amalga oshiriladi va yuqori samara beradi:

Mo'ljalga olish-umumiy maqsadga binoan predmetlararo aloqadorlikni aniqlash metodlari: mavzular va komponentlar bo'yicha o'quv materialini tahlil qilish metodlari; belgilab qayd etish (matn, grafik, sxematik va jadval) shakllarida, shakl, metod va vositalarni tanlab olishni o'ziga qamrab oladi.

Shu o'rinda akademik M.I. Maxmutov o'quv materialini didaktik, tarkibiy, mantiqiy, psixologik va tarbiyaviy ahamiyatini aniqlashda tahlilning muhimligini quyidagicha ko'rsatganligini ta'kidlash joizdir. Biz quyida bunday tahlil qilish nimalarga imkon berishi haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz:

- har bir mavzu yoki mashg'ulot (dars)ning didaktik (ta'limiy), tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini aniq belgilab, ularga mos ta'lim shakli, metodi va vositalarini tanlab olish uchun o'quv materialni tarkibiy tahlil etiladi. Dasturiy o'quv materialini tarkibiy tahlil etish ushbu mashg'ulot (dars)da tahsil oluvchilar nimalarni o'zlashtirishi, bunda nimalarga asoslanishi (tayanishi) va nimalarni kengaytirish kerak, degan savolga javob beradi va quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- darsning didaktik maqsadini, ya'ni yangi o'rganiladigan material hajmini, uni oldingi o'rganilganlar bilan aloqadorligini aniqlashga;

- o'quv materialidan asosiy g'oya (masala)ni ajratib olib muhim va ikkinchi (yadro - qobiq) darajaliga ajratishga;

- yangi o'zlashtirilayotgan yoki oldindan o'zlashtirilganlarni qandaydir yangi qirralari ochilishi va qiyinlik darajasini belgilab olish, unga mos ta'lim-tarbiya ishini tashkil etib o'tkazish va shu kabilar.

Dasturiy materialni tahsil oluvchiga qanday izchillik va ketma-ketlikda etkazilishi ham ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya ishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday masalani hal qilish maqsadida o'quv materiali mantiqiy jihatdan tahlil



etiladi. Mantiqiy tahlilning asosiy masalasi materialning ziddiyatli jihat va xususiyatlarini oldindan aniqlab olish va unga mos ravishda hamkorlik faoliyatini uyushtirishdan iborat.

O'quv materiali uning tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi muhim bo'lgan jihatlarni aniqlab olish, unga mos o'quv-bilish faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik tahlil mantiqiy tahlil funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Psixologik tahlil o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda uni dolzarblashtirish, yangi tushuncha va xatti-harakat usullarini shakllantirish, mustahkamlash va boshqa bosqichlarda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish hamda ular echimini topish usullarini belgilab olishga imkon beradi.

O'quv materiali qanday tarbiyaviy ahamiyatga egaligini aniqlash maqsadida tahlil qilinib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar uyg'unligiga erishiladi.

2. Amalga oshirish - oldindan belgilab olingan aloqadorlikni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishni ko'zda tutadi.

3. Nazorat qilish bosqichi ko'zda tutilgan maqsad bilan olingan natijalarni qiyoslab xulosa chiqarish va unga mos ish ko'rishni talab etadi. Bu bilan oldingi bosqichlarga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish imkoni ham hosil bo'ladi.

Mo'ljalga olish bosqichining maqsadi mazmunan o'zaro aloqador predmetlar mazmunidan muhim (g'oya, masala, muammoni ajratib olish va uning asosida) bilimlar tizimini tarkib toptirish shakli, metod, vositalari kabilarni aniqlashdan iborat.

Bu bosqichlar turlicha murakkablikdagi va hajmdagi mehnatni taqozo etishiga qaramay, ularning barchasi birgalikda uyg'un bo'lishi shart, chunki ularning birortasisiz umuman insonning ongli faoliyatini ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Texnologiya va kasb ta'limi jarayonida (amaliyotida) predmetlararo aloqadorlikni amalga oshirish muammosini tadqiq etish bu borada bir qancha to'siqlar mavjud ekanligidan darak beradi.

-o'quv rejasining ko'p predmetlilik (yil sayin o'quv predmetlari yoki maxsus kurslarning soni ortib bormoqda);

-umumilmiy, umumkasbiy va mutaxassislikka oid ixtisoslik o'quv predmetlarini o'rganish vaqti, mazmunining hajmi va o'rganish sur'ati bo'yicha bir-biriga muvofiq lashtirilmaganligi;

-predmetlararo aloqadorlik ta'minlanmaganligi sababli turli o'quv predmetlarini o'rganishda ma'lum o'quv materialining bir necha marta takrorlanishi;

-amaliy mashg'ulotlarda, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlarda tahsil oluvchilarning nazariy jihatdan o'zlashtirgan bilim va xatti-harakat usullarini ko'p hollarda etarli darajada hisobga olinmasligi;

-kasbiy ta'limning uzviylik, kasbiy yo'nalganlik, barqarorlik va dinamik o'zgaruvchanlik, politexnizm, reduksiyalash va motivatsiya kabi o'ziga xos prinsiplariga etarli darajada e'tibor berilmasligi;



-dasturiy materialda tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga etarli darajada e'tibor berilmaganligi va shu kabilar.

Shuningdek, ko'p hollarda o'qituvchilar ham predmetlararo aloqadorlikni amalga tatbiq etish borasida metodik jihatdan etarli darajada tayyorgarlikka ega emaslar. Bu holat ularni yangi texnika, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi, xo'jalik yuritish usullari kabilarning mohiyatini chuqur bilmasliklari, qolaversa, o'z ishlariga loqaydlik bilan qarashlari natijasida kelib chiqadi.

Predmetlararo aloqadorlikni quyidagi jihatlarga ko'ra turlash va amaliyotda qo'llash mumkinligidan dalolat beradi:

I. Xronologik vaqt mezoni jihatdan:

1. Oldin (avval) o'rganilgan;
2. Bir vaqtning o'zida parallel o'rganiladigan – yo'ldosh;
3. Kelajakda o'rganiladigan.

Predmetlararo aloqadorlik ko'p qirrali murakkab pedagogik muammo sifatida faqat vaqt bo'yicha amalga oshirilishi bilan chegaralanmasdan, balki o'quv materialining mazmunini tashkil etuvchi dalillar, tushunchalar, qoidalar, nazariyalar va shu kabilar bilan ham tavsiflanadi, umumiyliги bo'yicha aloqadorlik esa:

- o'quv materiali tarkibiga kiruvchi dalillar, tushunchalar hukm, xulosa va nazariyalar tarkib topishi uchun zaruriy tayanch hisoblanadi va o'rganilayotgan ob'ektning eng muhim jihatlari, aloqalari, munosabatlarini to'liq idrok etilishini ta'minlaydi;

- tushunchalar o'rganilayotgan ob'ektlarning eng muhim jihatlari, aloqalari, munosabatlariga oid aloqa va munosabatlarni o'zida aks ettirib, nazariy umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi.

II. O'rganishda qo'llaniladigan ilmiy metodlarning umumiyliги bo'yicha aloqadorlik.

III. Aqliy faoliyat xarakterining umumiyliги bo'yicha aloqadorlik

IV. Integrativ aloqadorlik kabilarga bo'linadi.

Predmetlararo aloqadorlik mohiyati, ko'laminig kengligiga ko'ra uzviy, o'zaro va integrativ aloqadorlikdan ustun turadi, chunki uning yo'nalishi vaqt bo'yicha ham, mazmun bo'yicha ham, qo'llaniladigan metodlar va shu kabilarga ko'ra ham chegaralanmagan. Lekin bizning tadqiqotimiz integrativ aloqadorlik yaxlit tugallanganligi, dasturiy material holatiga keltirilganligi va shu kabi jihatlarga ko'ra o'ziga xos yangi bilish metodlarini talab etishini ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatiga chuqurroq kirib borishga imkon beradi.

Shuningdek, predmetlararo aloqadorlik tashkiliy-iqtisodiy, tuzilmaviy jihatlarga ham ega. Ulardan unumli foydalanish o'quv vaqtini iqtisod qilishga; o'quv rejasi, dastur darslik va shu kabilarning mantiqiy tuzilishini aniqlashga imkon berib, ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yo. Haydarov "Predmetlararo bog'liqlik" tushunchasi tarkibida ikki muhim belgi: bog'lanish tarkibi va bog'lanish yo'nalishini farqlashni tavsiya etadi.



Muallifning fikricha, bog'lanish tarkibi deganda o'qitish jarayonida ma'lum qoidalar yoki belgilar bo'yicha bir-biri bilan qiyoslanadigan o'quv mavzulari va aniq masalalarning majmui tushuniladi.

Bog'lanish yo'nalishi deganda esa biror ma'lumotning bir o'quv predmetidan boshqasiga o'tishi tushuniladi, bir tomonlama hamda ikki tomonlama bog'lanishlarni farqlash mumkin.

Predmetlararo aloqadorlik muammosiga bag'ishlangan ishlarda ushbu masala qanday darajada tadqiq etilganligini qat'iy baholamagan holda, uning yangidan-yangi qirralariga diqqat-e'tiborni qaratish lozim. Chunki muammoni pedagogik, didaktik va metodik nuqtai nazardan tadqiq etishdan maqsad tahsil oluvchilar bilimlarini kengaytirishga, chuqurlashtirishga, rivojlantirishga qaratilib, shu bilan bir vaqtda ta'lim mazmunida takrorlashlarga chek qo'ygan holda, tahsil oluvchilarning o'quv yuklamalarini imkon qadar kamaytirishga yo'naltirilgandir.

Texnologiya va kasb ta'limi jarayonida mazmunan (tutash) bir-birini kengaytiruvchi, to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi, o'zaro aloqador ixtisoslik o'quv predmetlarini mantiqan tugal yaxlit holga keltirib, ya'ni integratsiyalashtirib o'rganish hisoblanadi. Bunday yondoshuv (fikrni amalga oshirilishi)ning zarurligi, didaktik nuqtai nazardan, shuningdek, ilmiy bilimlar tuzilmasining asl mohiyatidan ham kelib chiqadi. Bir so'z bilan aytganda mazmunan aloqador o'quv predmetlarini integratsiyalashtirib o'rganilishi ta'lim-tarbiya ishi (dars)ning samaradorligini oshishini ko'plab tadqiqotlar natijasida tasdiqlangan.

Predmetlararo aloqadorlik asosida bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi o'quv predmetlarini mazmun va mantiqiga ko'ra yaxlit holatga keltirish, ya'ni tizimlashtirish, ularni Davlat ta'lim standarti doirasida muvofiqlashtirishni, uyg'unlashtirishni ham ko'zda tutadi.

Tarixan ma'lumki, bir necha yuz yillar davomida fanlarning tabaqalanish (differensiatsiya) jarayoni kechmoqda. Bunda fanlarni tadqiq etish yo'nalishlari qat'iy chegaralangan bo'lib, kimyogarlar moddalarning kimyoviy tarkibini va xususiyatlarini, fiziklar ob'ektlarning makroskopik holati, fizik xususiyatlari, biologlar tirik organizmlarning morfologiyasi, turlari va yashash sharoitlarini o'rgandilar.

Tabiatdagi ob'ektlarni tadqiq etish shu darajaga borib etdiki, masalan, o'simlik va hayvonlarning ichki tuzilishi, hayotining fiziologik qonuniyatlarini o'rganish kabilarni faqatgina biologik bilimlardan foydalanish uning asl mohiyatiga tushunib etishga imkon bermay qo'ydi. Shu munosabat bilan fanlarning tabaqalanishiga teskari bo'lgan yo'nalish mazmunan bog'liq va tutash o'quv predmetlarini integratsiyalab o'rganish g'oyasi tarkib topa boshladi.

Integratsiyalashtirish g'oyasi turli sohada faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassis olimlarning qarashlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilganligi natijasida "gibridlashgan-qo'shma mazmunli" "integrativ" o'quv predmetlari yuzaga kela boshladi. Integrativ o'quv predmetlari mazmunida bir-birini kengaytiruvchi, to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi turli sohaldagi tushuncha, dalil, qonun, nazariyalar ichki aloqalari, ya'ni mazmunan tutashligiga ko'ra tizimlashtiriladi.



Bunga yorqin misol sifatida qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishga oid o'quv predmetini ko'rsatish mumkin.

Har qanday mashina, shuningdek, qishloq xo'jalik mashinalarining ham yaratilishi eng avvalo hayotiy talablardan kelib chiqib, insonning jismoniy va aqliy mehnatini engillashtirish, mahsulot sifat va samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgandir. Inson mehnatini maqsadga muvofiq engillashtirish uchun esa, u (mashina) inson hayoti va sog'ligi uchun xavfsiz, tuzilishi jihatidan murakkab bo'lmay, balki oddiy, kam mablag' va material talab etadigan (engil, arzon, puxta, ishonchli ishlaydigan); ish unumi va sifati yuqori bo'lishi kerak. Amaliyotda ishlatiladigan mashina va qurollarning yuqoridagi va boshqa xususiyatlarini ijobiy tomonga o'zgartirish borasida ixtirochi olimlar tomonidan tinmay izlanishlar olib borilmoqda. Buning natijasida keng qamrovli tezkor faol ish organli mashinalar ishlab chiqilmoqda. Mashinalarning ish sifatini oshirishda faol(aktiv) ish organlarining o'rnatilishining muhimligi chet elda ishlab chiqarilayotgan mashinalarda o'z ifodasini topdi.

Yuqoridagi misolda biologiya, ximiya, agronomiya, texnika, texnologiya, iqtisodiyot, ekologiya va shu kabilar haqidagi bilimlarni integratsiyalashganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu, albatta, tahsil oluvchilarda turlicha yo'nalishlar bo'yicha bilim va xatti-harakat usullarini tarkib toptirishga qaratilgan.

Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki integratsiyalashtirishda turli fan asoslarini (o'quv predmetlari mazmunini) oddiy mexanik biriktirish emas, balki ularni ichki mantiqiy aloqadorligini uyg'unlashtirish maqsadida yaxlit, mazmunan mukammal holda tizimlashtirishni ko'zda tutadi.

Integrativ bilimlar o'rganilayotgan ob'ektlarning turli muhim jihat va xususiyatlarini mumkin qadar chuqurroq anglab etishga imkon beradi.

Ma'lumki, tabiat-olamni tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlar: tirik jonzotlar, predmetlar, hodisalar va jarayonlar o'zaro aloqador, bir-biri bilan uzviy bog'langan jihatlariga ega. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda agar tabiat o'zaro aloqador yaxlit ekan, uni tadqiq etuvchi, ya'ni o'rganuvchi fanlarning ham faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi ham o'zaro aloqadorlikka amal qilishi kerak.

Shunday qilib, ilmiy bilishning rivojlanish dialektikasi bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisini taqozo etuvchi differensiya (tabaqalanish) va integratsiya (mujassamlanish) jarayonlarida namoyon bo'ladi. Bu hozirgi zamon va istiqbol fani rivojlanishining muhim xususiyatidir.

Mazmunan integratsiyalashgan o'quv predmeti uchun o'quv materialini tanlab olish va tizimlashtirish ishiga, murakkab ichki hamda tashqi aloqalarga ega jarayon sifatida qarash kerak. Bu tizimning tuzilishi ma'lum ma'noda barqaror deb qaraladi.

Mutaxassislikka oid maxsus fanlarni integratsiyalashtirishda, mavzular blokini tuzish istiqbolli ko'rinadi. Har bir blokning etakchi g'oyasi (qoidasi, masalasi)ni ajratib olib, ularni tahsil oluvchilar mulkiga aylantirish chora-tadbirlari ko'riladi:

mazmunan mukammal, mantiqan tugal mavzular bloki - bu mavzuni ilgari o'rganilgan bilimlar va tajribalarga asoslangan holda tushunchalar apparatini turli



o'quv predmetlari bo'yicha umumiylikini ta'minlashga va eng muhimi har tomonlama chuqur yaxlit bilimlar tizimini shakllantirishga qaratiladi.

Integratsiya-o'rganilayotgan o'quv predmetining etakchi g'oyalari (masalasi)ni ajratib olib, ularni yaxlit tizim sifatida qarab, ana shunga tayanib ish ko'rishni ko'zda tutadi.

O'quv materialini sifat va miqdoriy jihatlarining sintezi - ta'lim-tarbiya jarayonida real ob'ektning mohiyatini tushunish uchun zarur va etarli miqdoriy ko'rsatkichlarga tayanadi. "Sifat jihatdan turli hodisalarni miqdoriy ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan baholash deyarli barcha o'quv predmetlari mazmunini o'rganishning muhim vazifasini tashkil etadi".

Bu fikr integrativ o'quv predmetlariga ham bevosita taalluqlidir. O'quv materialining muhimligi (qimmat) avvalo uning o'rganilayotgan o'quv predmetidagi o'rniga, ya'ni ichki aloqalariga binoan aniqlanadi.

Bilimlarni amaliy qo'llash sohasini kengaytirish, ulardan majmuaviy foydalanish zarurligidan kelib chiqadi. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mutaxassislikka oid maxsus o'quv predmetlarini integratsiyalab o'rganish:

- ta'lim mazmunini maqbullashtirish, kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni har tomonlama chuqur va puxta o'rganish;

- ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning izchilligi va uyg'unligini ta'minlash;

- o'zlashtirilgan bilim va kasbiy-pedagogik xatti-harakat usullarini oldindan ma'lum bo'lmagan holatlar va vaziyatlarga "ko'chirish", ya'ni tahsil oluvchilarda mantiqiy tafakkur, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, umuman olganda mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga imkon beradi.

Integratsiyalab o'qitish faqatgina mazmunni muvofiqlashtirishni emas, balki o'qitishning tashkiliy shakllari, metod va vositalarini ham ilmiy asoslangan holda tanlashni nazarda tutadi.

**Steam-ta'lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san'at, Mathematics – matematika) xususiyatlari.**

STEAM-bu ta'limiy yondashuv bo'lib, ta'lim oluvchilarning tadqiqotchilik, kommunikativlik va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integrallashgan holda o'rgatishning innovatsion shaklidir.



Yakuniy natija - tajriba-sinovda ishtirok etayotgan ta'lim oluvchilar muammolarni hal qila oladi, hamkorlikda ishlay va ijodiy fikr yurita oladi. Bular esa 21 asrning novator pedagog va rahbarlaridir.



STEAM abbreviaturasi inglizchada **S-science, T-technology, E-engineering, A-art** va **M-mathematics** ma'nolarini anglatib, tarjimada tabiiy fanlar, texnologiya, muxandislik san'ati, ijod va matematika sohalarini nazarda tutadi.

Mazkur fanlar hozirgi kunda dunyoda eng zarur va mashhur hisoblanmoqda. Shu bois ham STEAM asosiy trendlardan biri sifatida rivojlanmoqda.

STEAM ta'lim fanlararo va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta fanni yagona o'quv sxemasiga singdirishga asoslanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2011 yildan boshlab STEAM kasblarga talab darajasi 17% ga oshgan, an'anaviy kasblarga bo'lgan talab esa atigi 9,8% ga oshgan, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talab borligini ko'rsatadi.

Ammo bunday yuqori talabning sababi nimada? Ko'pgina mamlakatlarda STEAM ta'limi quyidagi sabablarga ko'ra ustuvor hisoblanadi:

- yaqin kelajakda dunyoda muhandislar, yuqori texnologiyali tarmoqlar bo'yicha mutaxassislar va boshqalarning keskin taqchilligi yuzaga keladi;


- uzoq kelajakda tabiiy fanlar bilan bir uzvda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, xususan, bio va nanotexnologiya mutaxassislariga talab katta bo'ladi.

- Mutaxassislarga texnologiyalar, tabiiy Fanlar va muhandislikning turli sohaları bo'yicha har tomonlama tayyorgarlik va bilim kerak bo'ladi.

Xo'sh, bu ta'lim tizimi fanni o'qitishning an'anaviy usulidan qanday farq qiladi? **STEAM** - ta'lim ta'lim oluvchilar ilmiy usullarni amalda qo'llashni tushuna boshlaydigan aralash muhitni o'z ichiga oladi. **STEAM dasturi asosida** ta'lim oluvchilar matematika va fizikadan tashqari robototexnikani ham o'rganadilar, o'z robotlarini dasturlashtiradi va loyihalashtiradilar. uchun ishlatiladigan.

Mashg'ulotlarda maxsus texnologik jihozlardan foydalaniladi.

Shunday qilib, kelajak texnologiyaga tegishli bo'lib, o'z navbatida texnologiyaning kelajagi noto'g'ri xulosa chiqarmaydigan, rasmiy yondashuvni qabul qilmaydigan va ta'lim oluvchilarga bilimlari bilan "aqliy zarba" bera oladigan va ularning dunyoqarashini cheksizlikka







qadar kengaytiradigan yangi formatdagi o'qituvchilarga tegishli. Kelajak **STEAMning** buyuk ustozlariga bog'liq!

Muxtasar qilib aytganda, zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan fanlar.).



Bugungi kunda STEAMning rivojlanishi jahon ta'limi tizimining asosiy trendlaridan biridir. STEAM o'quv dasturi fanlararo va amaliy yondashuv yordamida talabalarga ta'lim berish g'oyasiga asoslanadi. Beshta fanni har birini alohida o'rganish o'rniga

STEAM ularni yagona o'quv sxemasiga birlashtiradi.

STEAM 21-asrning innovatsion texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda yangi tafakkur turini rivojlantirishdan iborat. Bu an'anaviy maktab ta'lim modelidan juda farq qiladigan va ijodiy va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga asoslangan mutlaqo yangi yondashuvdir).

Pirovardida STEAM yondashuv, avvalo, o'qituvchi tomonidan berilgan materialni yodlashdan ko'ra, o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. U quyidagilarga asoslanadi: yangi g'oyalarni yarata olish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalari, jamoa bo'lib ishlash, xatolarni doimiy tuzatish va o'quv vazifalarini hal qilish.

Mashg'ulotlarda STEAM yondashuvining tarkibiy qismlari:

- ✓ (fanlararo bog'liqlik, predmet sohaslarining o'zaro munosabati),
- ✓ (21-asr ko'nikmalarini rivojlantirish),
- ✓ (amaliy muammoga yo'naltirilganlik),
- ✓ (loyihaviy yondashuv va jamoaviy ish),
- ✓ (ochiq va muammoli vazifalar echimi),
- ✓ (javob va echimlarni topishda, tadqiqotchilikda izlanishda talabalar mustaqilligining yuqori darajasi),
- ✓ (o'qituvchi ko'makchi yoki murabbiy),
- ✓ (zamonaviy va istiqbolli kasblar sohasida samarali kasbkorga yo'naltirish.)

STEAM ta'limi an'anaviy fanlar va matematika ta'limiga o'qitishdan qanday farq qiladi? U aralash o'quv muhitini nazarda tutadi va talabalarga ilmiy metodning kundalik hayotga qanday tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi. STEAM maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o'quv tadqiqot ishlarini amalga oshirish yo'nalishlaridan biridir.

Bunday darslarda ta'lim oluvchilar tabiiy qiziqishlarini rivojlantirish, keyinchalik har qanday fanni o'rganishda foydali bo'ladigan tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

### Nazorat savollari.

1. Texnologik va kasb ta'limida o'quv-ishlab chiqarish ta'limining o'rni va ahamiyati.
2. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?



3. O'quv ustaxonalarini tashkil etish va ularning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish.
4. Predmetlararo aloqadorlik nima, u qanday maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi?
5. Umumkasbiy va ixtisoslik o'quv predmetlari bo'yicha predmetlararo aloqadorlik qanday usullar bilan o'rnatiladi va qanday shakllarda ular qayd etiladi?
6. Predmetlararo aloqadorlikni qanday darajalari e'tirof etilgan?
7. Steam-ta'lim xususiyatlari bayon qiling.

### Adabiyotlar

1. Abduqudusov O.A. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. T.: 2013.- 240 b.
2. Дидактика в схемах и таблицах, Учебное пособие, Korkina V.I., 2013. - 240 s.
3. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorganlik diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – T.: O'zbekiston, 2018. – 168 b.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.
5. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. – Toshkent: TDPU, 2014. 389 b.
6. Olimov Q.T., Axmetjanov M.M., Uzoqova L.P., To'xtayeva Z.Sh. Kasbiy pedagogika. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. – 495 bet.
7. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
8. Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: “DELTA PRINT SERVIS”, 2018. - 156 b.
9. Shuvalova M.A. Формирование профессиональных компетенций техников высокотехнологичной отрасли в дуальном образовании: Дисс. ... канд. пед. наук. – Красноярск.: 2016. – 195 с.
10. Irxina I.V. Развитие дидактической системы учителя в профессиональной деятельности: Diss. ... dokt. ped. nauk. – Belgorod.: 2007. – 430 s.



## 5-Mavzu: Texnologik va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish.

Reja:

1. Texnologik va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish.
2. Texnologik va kasb ta'limi sohasida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish omillari.
3. Texnologik va kasb ta'limi natijalarini nazorat qilish metodlari va baholash mezonlari.

**Tayanch tushunchalar.** *uslubiy ishlar, G'oyaviy yo'nalganlik, ijtimoiy hamkorlik, Ilmiy pedagogik kengash, nazorat qilish metodlari va baholash mezonlari.*

**1. Texnologik va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarish.** Texnologiya va kasb ta'limining oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarilishi bevosita u erda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog'liqligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir.

Fan-texnikaning jadal taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng ko'lamda joriy etilishi, bozor munosabatlariga o'tish kabilar pedagoglardan tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirish omillaridan oqilona foydalanib, mashg'ulotlar va sinfdan tashqari tadbirlar samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Ana shuning uchun ham texnologiya va kasb ta'limida uslubiy ishlar tashkil etilib o'tkaziladi.

Bunday ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad: rahbarlar, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik mahoratlarini oshirish yo'li bilan pedagogik jarayon sifat va samaradorligini oshirishdan iborat.

Texnologiya va kasb ta'limida uslubiy ishlar odatda yakka tartibda va jamoaviy shakllarda tashkil etilib, quyidagilarni ko'zda tutadi:

- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ularni ommalashtirish maqsadida targ'ib qilish;
- o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga uslubiy yordam ko'rsatish;
- axborot resurslari markazi imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga o'z imkoniyatlarini namoyon etishlariga shart-sharoit yaratish;
- namunaviy yoki ochiq dars tashkil etib o'tkazuvchi o'qituvchilarga ko'mak berish;
- pedagogik jamoani yangiliklar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
- fan yutuqlarini amaliy tajriba- sinovidan o'tkazish;
- tahsil oluvchilarni olimpiadalar, ko'rik-tanlovlar va turli tadbirlarga tayyorlashga ko'maklashish kabilardan iborat.



Texnologiya va kasb ta'limida tashkil etilib, o'tkaziladigan uslubiy ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi.

1. **G'oyaviy yo'nalganlik - uslubiy ishlar zamon talablariga hamnafas chuqur g'oyaviylikka ega bo'lishi kerak.**

Buning uchun yoshlar bilan ishlayotgan o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari, tarbiyachilar bilan olib boriladigan metodik ishlarning mazmuni ham davr va istiqbol talablari darajasida bo'lishi muhimdir.

2. **Ilmiylik - uslubiy ishlarni ilmiy g'oyalar, nazariyalarga tayangan holda olib borishni ko'zda tutadi.** Shuning uchun pedagoglar, muhandis-pedagoglar, tarbiyachilar yoshlarning psixologiyasi, fiziologiyasi va gigienasini, o'qitadigan o'quv predmeti mazmunini, ta'lim-tarbiya nazariyasini, qonuniyatlarini, prinsiplarini, tashkil etish shakllarini, amalga oshirish metod va vositalarini mukammal bilishi zarur. Ular kasbiy pedagogik mahoratlarini oshirishlari uchun muntazam ravishda o'z ustida mustaqil ishlab, ijod qilishi darkor.

3. **Maqsadga muvofiqlik va tizimlilik-** dolzarb pedagogik muammolarning maqbul echimlarini topishni rejalashtirishda shart-sharoit, imkoniyat, talablar muvofiqligini ta'minlash va amalga oshirish tizimini yaratishda o'z ifodasini topadi.

4. **Ijodiylik va mustaqillik - kollej rahbariyati har bir o'qituvchi, muhandis-pedagog, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, tarbiyachilarning o'z qobiliyati va iste'dodlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratib, ko'mak berishlarini ko'zda tutadi.** Chunki uslubiy ishlar ijodkorlik, faollik, novatorlikka asoslangandagina ko'zlangan natijalarni beradi.

5. **Ta'sirchanlik va oshkoralik - uslubiy ishlarning ta'sirchanligi eng avvalo, tahsil oluvchilarga ta'lim va tarbiya berish sifati bilan aniqlanadi.** Agar tahsil oluvchilarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalari sifati hamda darajasida ijobiy siljishlar bo'lmasa, uslubiy ishlarning samarasi past hisoblanadi. Bu borada sustkashlikka yo'l qo'yish mumkin emas. Shuning uchun uslubiy ishlarning ta'sirchanligi ko'p jihatdan rejalashtirilishiga, rejalarning aniqligiga, amalga oshirilgan ishlarning hajmiga va boshqa omillarga bog'liq. Shuningdek, texnologiya va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etish va boshqarishda oshkoralikka e'tiborni qaratish zarur, bunda har bir xodim mehnatining natijalarini o'z vaqtida xolisona ko'rsatish, rag'batlantirish, tanqid qilishni me'yorida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Odatda uslubiy ishlar ma'lum aniq rejaga binoan bajariladi. Bu holat ayrim ishlarni bir necha marta takrorlanishini bartaraf etib, pedagoglar orasida ishlarni maqbul taqsimlanishini ham ta'minlaydi.

Texnologiya va kasb ta'limida uslubiy ishlarni tashkil etib o'tkazish uchun odatda haftaning aniq bir kuni ajratiladi. Misol uchun texnologiya va kasb ta'limida tashkil etiladigan uslubiy ishlar uchun haftaning chorshanba kuni ajratilsa, har chorshanba kuni jamoaviy uslubiy ishlarning aniq bir ko'rinishi muntazam ravishda o'tkazilishiga imkon beradi: masalan, har oyning birinchi chorshanba kunlari ilmiy pedagogik kengash, ikkinchi chorshanba kunlari uslubiy kengashlarning yig'ilishlari, uchinchisida pedagog va muhandis-pedagoglarning



malakasini oshirish kabilar rejalashtirilishi mumkin. Uslubiy ishlar rejalashtirilgan kunga kasb-hunar kollejida boshqa hech qanday tadbir rejalashtirilmaydi. Texnologiya va kasb ta'limida o'quv yilining istalgan birinchi yoki ikkinchi yarim yilligi uchun mo'ljallab tuzilgan uslubiy ishlarning umumiy rejasida: ilmiy-pedagogik kengash, uslubiy kengash, seminar-praktikumlar, ochiq darslar, pedagogik o'qishlar, ilg'or pedagogik tajriba maktablari kabilar o'z ifodasini topadi. Quyida texnologiya va kasb ta'limida tashkil etilib o'tkaziladigan yakka va jamoaviy uslubiy ishlarning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Yakka tartibdagi uslubiy ishlar:** texnologiya va kasb ta'limining rahbarlari, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, ular bilan muntazam ravishda individual uslubiy ishlar olib borishlari talab etiladi. Bunday ishlar ko'zlangan darajada samara berishi uchun rahbar har bir xodimning kuchli va kuchsiz tomonlarini, imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur. Kafedra mudiri o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining imkoniyatlarini bilishi uchun quyidagilar asos sifatida olinishi mumkin: lavozimiy vazifalari va tahsil oluvchilarga nisbatan munosabati, mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, malaka oshirishning turli shakllarida ta'lim olishi, ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarining mohiyatini tushunishi, o'z shaxsiy tajribasini turli nuqtai nazardan tahlil eta bilishi, uslubiy ishlanmalar ishlab chiqishga qiziqishi, muntazam ravishda o'z ustida mustaqil ishlashi, tayanch ma'lumoti kabilar. Amaliyotda o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining uslubiy ishlariga individual ravishda rahbarlik qilishlarida asosiy metod sifatida maslahatdan keng ko'lamda foydalaniladi.

Maslahatlar quyidagi masalalar yuzasidan bo'lishi mumkin:

- tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirish omillari;
- jihozlar va mashq qurilmalaridan samarali foydalanish yo'llari;
- predmetlararo aloqadorlikni o'rnatish va amalga oshirish metodikasi;
- tahsil oluvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan tipik xatolarni oldini olish;
- ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti davrida tahsil oluvchilarni tarbiyalash;
- o'quv materialidan muhim, tizim hosil qiluvchi tarkibiy qismlarini tanlab olish;
- turli ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari;
- noan'anaviy (nostandart, zamonaviy) darslarni o'tkazish metodikasi kabilar.

Shu o'rinda maslahat faqat mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki yangiliklar kiritish, ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantirishni ham ko'zda tutishi zarurligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Texnologiya va kasb ta'limida jamoaviy shaklda tashkil etilib, o'tkaziladigan uslubiy ishlarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ilmiy-pedagogik kengash; uslubiy kengash; kafedra yig'ilishlari; ilmiy-amaliy konferensiyalar; pedagogik o'qish; ilg'or pedagogik tajriba maktablari; seminarlar, seminar-treninglar; ochiq darslar; fan haftaliklari va hokazo.

**Ilmiy pedagogik kengash** ishining mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:



- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, ta'lim muassasalar rahbariyati kabi boshqaruv idoralari ta'lim- tarbiya ishlari bilan bog'liq bo'lgan qarorlari, farmonlari, farmoishlari, nizomlari, buyruq va ko'rsatmalarini bajarish yuzasidan texnologiya va kasb ta'limi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini, respublikaning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot darajasi, istiqbollari, fan va texnikaning yutuqlari asosida takomillashtirish;
- samarali ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;
- amaldagi o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- mahalliy ishlab chiqarish, mehnat bozori talablari va mavjud shart-sharoitni hisobga olib, mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojni o'rganish;
- texnologiya va kasb ta'limida malakali mutaxassislarni tayyorlash dasturini va uning bajarilishini muntazam ravishda muhokama qilib borish;
- o'quv reja va dasturlarning bajarilishini, tashkil etilib, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning sifati, o'quv predmetlari kesimida tahsil oluvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish;
- guruhlar kesimida ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning holati to'g'risida o'qituvchilarning hisobotini eshitish;
- turkum o'quv predmetlari uyushmalari faoliyatini o'rganish va tahlil qilish;
- o'quv yili yakunlari bo'yicha tahsil oluvchilarni kursdan kursga o'tkazish masalalarini ko'rib chiqish va uning natijalarini tahlil qilish, sayoz o'zlashtiruvchi tahsil oluvchilarning bilim saviyasini ko'tarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining faoliyatini ichki nazorat va davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra rag'batlantirishga tavsiya etish;
- tahsil oluvchilar safidan chiqarish yoki ularni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar berish;
- kafedra o'qituvchilari, ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan tayyorlangan ilmiy-uslubiy ishlanmalar, o'quv qo'llanmalar, tavsiyanomalar, didaktik materiallarning dolzarbligini o'rganib chiqib nashr ettirishga oid tavsiyalar berish;
- yakuniy nazorat, davlat attestatsiyasini yuqori darajada o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish;
- kafedraning o'quv-tarbiyaviy, o'quv-amaliy ishlari va istiqbol rejalarini, moddiy-texnik va ilmiy-uslubiy bazasini mustahkamlash;
- tahsil oluvchilarni sog'lomlashtirish, sport va yoshlarni chaqiriqqacha tayyorgarligiga oid davlat dasturlarini bajarish borasida olib borilayotgan ishlarni o'rganish va ularni takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- tahsil oluvchilarning o'qishi, yashashi va madaniy dam olishlari uchun yaratilgan sharoitlarni yaxshilash;



- yosh o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganish, ularga zarur uslubiy yordam ko'rsatish, malakasini oshirish kabilar.

Kafedraning pedagogik kengashi uslubiy ishlarning muhimi bo'lishi bilan birga kafedra faoliyatini boshqarishda o'ziga xos omil hisoblanadi.

Kafedraning pedagogik kengashi odatda har oyda o'z yig'ilishlarini o'tkazishi rejalashtiriladi. Unda o'qituvchilar tomonidan yaratilgan uslubiy tavsiyalar, qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, majmualar, dars ishlanmalari kabilarni amalga joriy etish masalalarini muhokama etib xulosalar beradi. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish maqsadida yosh o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatadi.

**Uslubiy komissiyalar** – har bir kafedra qoshida tashkil etiladi. Ularning asosiy vazifasi tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashda davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim shakllari, metodlari va vositalarini tanlashga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, ularda o'qituvchilarning ijodiy ishlari muhokama etilib, amaliy ko'mak ham beriladi.

**Seminarlar, seminar-treninglarning maqsadi** – o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan tahsil oluvchilar shaxsini rivojlantirishga oid pedagogik-psixologik, fiziologik, gigienik, estetik va texnik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Odatda seminar mavzulari pedagogik jamoaning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Seminar-treninglarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalariga dolzarb muammolarni tezkor hal etishga imkon beradi.

**Ilmiy-amaliy konferensiyalar** - ilmiy ish natijalari, ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini ommaviy muhokama etib, ularni amalga joriy etishga oid qarorlar qabul qilish maqsadida o'tkaziladi.

Shu o'rinda konferensiyalar aniq mavzular, muammolar, yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilib, o'tkazilishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlash zarur.

**Pedagogik o'qishlar** – ayni zamonda dolzarb bo'lgan muammolarni ommaviy tarzda muhokama qilish maqsadida o'tkaziladi.

Pedagogik o'qishlarda eng dolzarb va maqbul echim berilgan deb tan olingan ma'ruzalar viloyat, respublika pedagogik o'qishlariga tavsiya qilinadi. Respublika miqyosida tan olingan ma'ruzalar esa ilg'or tajribalar sifatida umumlashtirilib, amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etiladi.

Yuqorida zikr etilgan uslubiy ishlar an'anaviy xarakterga ega bo'lib, hozirgi kunda ular bilan birga noan'anaviy deb e'tirof etilayotgan quyidagi uslubiy ishlardan ham keng ko'lamda foydalanilmoqda:

**Ko'rik tanlovlar** – pedagogik jarayon natijalari sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, “Yilning eng yaxshi o'qituvchisi”, “Mohir usta”, “Ilg'or guruh rahbari” “Namunali murabbiy” kabi mavzularda ko'rik tanlovlar o'tkazish mumkin. Ko'rik-tanlovlarni o'tkazish tartibi har bir kollej, viloyat yoki respublika miqyosida belgilanadi hamda uning g'oliblari rag'batlantiriladi.



**Ilg'or tajriba maktabi** – eng avvalo o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustalarida pedagogik jarayonni yaxlit holda takomillashtirishga oid tajribalarni o'rganish, ommalashtirish kabilarni ko'zda tutadi.

**Kitobxonlar konferensiyasi** – texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchilari, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining faol ishtirokida o'tkaziladi. Konferensiyaga muhokama etiladigan materiallarni tayyorlagan mualliflar bilan birga ilmiy-tadqiqot institutlari va turdosh oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, ishlab chiqarish korxonalaridan vakillar taklif etiladi.

Kitobxonlar konferensiyasida ilmiy-uslubiy adabiyotlar, ularning dolzarbligi, amaliy masalalarni echishdagi ahamiyati, yangiligi, ularni pedagogik jarayonga joriy etishdan kutilayotgan samaralar nuqtai nazaridan tahlil etilgan holda baholanadi.

**Namunaviy yoki ochiq dars** - uslubiy ishlarning keng tarqalgan shakli. Bunda o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ochiq darslarda ishtirok etishi va o'zaro darslarga kirishi muhim ahamiyatga ega.

Odatda, namunaviy (ochiq) darslar va o'zaro darslarga kirish o'qituvchilarga kasbiy pedagogik mahoratini yuqori ekanligini ko'rsatib berish bilan birga yosh o'qituvchilarga o'rnak ko'rsatishdan iboratdir. Unda yosh o'qituvchilarning ishtirok etishlaridan ko'zlangan maqsad – tajriba almashish, darsni tashkil etishning yangi shakllari, amalga oshirishning samarali metod va vositalarini tanlay bilishga o'rgatishdan iborat. Ta'lim jarayonida sodir bo'layotgan o'zgarishlar tufayli namunaviy (ochiq) darsni muhokama qilish jarayonida tahsil oluvchilarning faolligi, mustaqil fikr yuritish, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi, o'quv materialining hayot va amaliyot bilan bog'liqligi, predmetlararo aloqaning ta'minlanganligi, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirilganligi, tahsil oluvchilarning ijodiy izlanishga yo'naltirilganligi, ta'lim-tarbiya va rivojlanishning mushtarakligini ta'minlanganligiga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish zarurki, mashg'ulotlarni ochiq dars deb atash shartli bo'lib, ularni namunaviy dars deb yuritish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Shuningdek, o'quv yilida bir yoki ikki ochiq dars tashkil etib o'tkazish bilan ham chegaralanib qolmasdan, barcha mashg'ulotlarni namunaviy darajada o'tkazishga intilish zarur. Ta'lim muassasalarida tashkil etilib, o'tkaziladigan barcha darslar ochiq, oshkoralik ruhida o'tkazilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Namunaviy yoki ochiq darslar o'tkazilar ekan ularda qatnashuvchilarga nazariy va amaliy darslarni tahlil etish metodikasini ham o'rgatish zarur.

**Ijodiy tajriba-sinov laboratoriyalari** - kafedralar qoshida hamda kollejlarda miqyosida tashkil etiladi. Ularning asosiy vazifasi dolzarb va istiqbolli muammolarni ijodiy hal etishdan iborat. Ijodiy tajriba-sinov laboratoriyalarida har bir o'qituvchi o'z ijodiy ishlarini amalda ko'rsatib berish imkoniga ega bo'ladi va pedagogik jamoaning ijodiy faolligini oshiradi. Texnologiya va kasb ta'limida an'anaviy va noan'anaviy uslubiy ishlardan uyg'un holda foydalanish, o'quv-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, ta'limni jadallashtirish, samarali ta'lim texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda tatbiq qilish kabilarga imkon beradi.





**2. Texnologik va kasb ta'limi sohasida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish omillari.** Ijtimoiy muloqot ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanib, u ijtimoiy, iqtisodiy, manaviy-marifiy, texnik-texnologik va shu kabi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Hayotiy tajribalar va tahlillarimiz ijtimoiy hamkorlik bevosita texnologiya va kasb ta'limi sohasi uchun ham xos xususiyat ekanligidan dalolat bermoqda. Bu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada yorqinroq namoyon bo'lib, hamkorlikni teng huquqlilik, manfaatdorlik asosida amalga oshiriladi. Manfaatlarni muvofiqlashtirishda eng avval moddiy rag'bat sifatida ish haqi, tomonlar kelishuvi, shart-sharoit, tomonlar burchi va huquqlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga binoan ishlab chiqiladi va u ish beruvchilar va ta'lim muassasalari bilan cheklanib qolmasdan, boshqa ko'plab tomonlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Chunki tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi: yuqori malakaliligi, keng ixtisosliligi, yangi shart-sharoitga tez fursatlarda moslashishi, mustaqilligi, ishbilarmonliligi, faolligi, ijodkorligi kabilar bozor munosabatlari sharoitida mutaxassisni ijtimoiy himoyalash omillari sifatida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Hamkor** – 1. biror ishni bajarishda bir-biriga ko'mak beradigan; ahil, yordamchi, ko'makdosh.

Ijtimoiy hamkorlik deganda jamiyat yoki ma'lum ommaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ehtiyojlarini qondirishga oid faoliyat bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda bir-biriga ko'mak berish tushuniladi.

Demak, yuqorida sanab ko'rsatilgan xislatlar kasbiy tayyorgarlik ko'rish jarayonida shakllanishi zarur. Bunga faqat davlat tomonidan ajratilgan mablag' bilan to'liq erishish imkoniyati mavjud emasligi ko'pchilikka ma'lum. Shuning uchun ham mustaqil respublikamizda kechayotgan tub o'zgarish va bozor munosabatlari bilan uyg'un (mos, mushtarak, adekvat) likni ta'min etuvchi ijtimoiy hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish hamda amalga joriy etish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Ishlab chiqarishning mutaxassis kadrlarga qo'ygan talablari shubhasiz texnologiya va kasb ta'limida asosiy mo'ljal (maqsad va vazifa) bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda bevosita inson omilini ishtirok etishi o'z navbatida ijtimoiy muloqot, munosabat va o'zaro kelishuvni talab etadi.

Ishlab chiqarish korxonalarining ta'lim tizimi faoliyatidagi o'rni kerakli materiallar, uskunarlar, dastgohlar bilan ta'minlash, bitiruvchilarni ishga joylashtirish kabi o'ta muhim muammolar bevosita bog'liq bo'lganligi bois bugungi kunda aksariyat ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy sabablarni bahona qilib, hamkorlikda ishtirok etmayptilar. Bir so'z bilan aytganda texnologiya va kasb ta'limi tizimi oldida turgan muammolarni faqat ta'lim muassasasi jamoasi yordamida echimini topish mumkin emasligini hayotni o'zi isbotlamoqda.

Shuning uchun ham texnologiya va kasb ta'limi sohasida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yishda oliy va o'rta maxsus ta'limi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari, ularning joylardagi organlari, bandlik masalalari bo'yicha xizmatlar, ish beruvchilar, hokimlik, kasaba uyushmalari,



fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari (mahalla) kabilarni bu ishga jalb etish vaqti allaqachon etgan. Bu hamkorlikni ta'min etish bilan texnologiya va kasb ta'limining nufuzi ko'tarilib, mavqei ham mustahkamlanishi mumkin.

Texnologiya va kasb ta'limi sohasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy hamkorlik ishlarini shartli ravishda quyidagicha ikki guruhga, ya'ni shartnomaviy va tashkiliy guruhlariga bo'lish mumkin.

Shartnomaviy shakl ikki va undan ortiq, ya'ni ko'p tomonlarning o'zaro manfaatdorlik asosidagi hamkorligining barcha turlarini qamrab oladi, tashkiliy shakllar esa qo'shimcha organlar–maslahat kengashlari va boshqalarni tashkil etish orqali faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasalarining shartnomalardan foydalanishi avvaldan ma'lum, biroq, so'nggi paytlarda ularning mavzu doirasi juda kengayib ketdi. Ilgari bunday shartnomalarning ob'ektlari quyidagilar sanalar edi:

- tahsil oluvchilarning ishlab chiqarish ta'limi va amaliyotini tashkil etish;
- o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari stajirovkasi va ularning malakasini oshirish;
- tanlovlar va ko'rgazmalarni birgalikda tashkil etish;
- korxonalariga axborot va konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- marketing xizmatlarini ko'rsatish;
- pudrat shartnomalari bo'yicha ishlar bajarish;
- ilmiy tadqiqot va texnik-texnologik ishlarni amalga oshirish.

Hamkorlikning tashkiliy shakllari ijtimoiy hamkorlar bilan o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatishning ancha yuqori darajasi hisoblanadi. Ular maxsus vakolatlariga ega bo'lgan va ustav hujjatlariga hamda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan boshqa tartibga soluvchi hujjatlarga asoslanib harakat qiluvchi tashkiliy tuzilmalarni yaratishni taqozo etadi. Bular ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limning boshqaruv organlarini, bandlik xizmati, ish beruvchilar, kasaba uyushmalarini o'z ichiga oluvchi kengashlar (maslahat, kasb-hunar, vasiylik) va boshqalardir.

Kengashlar faoliyatining barcha yo'nalishlarini shartli ravishda ikki kesimda maslahat va vasiylik guruhga ajratish mumkin. Shunga muvofiq ravishda ijtimoiy hamkorlik tashkiliy tuzilmalarining asosiy turlari deb maslahat va vasiylik kengashlarini ko'rsatish mumkin.

Texnologiya va kasb ta'limi sohasida ijtimoiy hamkorlarning quyidagi asosiy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ish beruvchilar;
- xodimlarning birlashmalari (kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari);
- davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan bandlik xizmati.

Ta'lim muassasasi darajasida ushbu ro'yxat ta'lim xizmatlari bozorining sub'ektlari hisobiga to'ldiriladi. Ya'ni, biz faqat ishlab chiqarish korxonalarini va mehnat bozorini tartibga soluvchi institutlarnigina emas, balki boshqa ta'lim muassasalarini, shu jumladan, ta'limning boshqaruv organlarini ham ta'lim muassasaining ijtimoiy hamkorlari sifatida qarashimiz kerak.



Shu tariqa, ta'lim muassasasi darajasida ijtimoiy hamkorlarning ikki toifasi, ikki turi haqida gapirish mumkin: mehnat bozori vakillari va ta'lim xizmatlari bozorining vakillari. Bunday bo'linish prinsipial xususiyatga ega bo'lib, faqat o'zaro hamkorlikning xususiyati va usuligina emas, balki ana shu hamkorlik davomida amalga oshiriluvchi manfaatlar tizimi ham turlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

An'anaviy ravishda ish beruvchilar har doim ta'lim muassasaining asosiy hamkori sifatida qaralgan, chunki ular o'quv muassasasi «mahsuloti»ning asosiy iste'molchilari hisoblanadi va ta'lim muassasasining rivojlanish istiqboli ko'p jihatdan ularga bog'liq. So'nggi paytlarda mehnat bozorida paydo bo'layotgan ishlab chiqarish korxonalarining turli-tumanligi ijtimoiy hamkorlik tizimini yaratish bo'yicha ish boshlayotgan ta'lim muassasaining vazifasini murakkablashtiradi.

Ish beruvchilar bilan ishni rejalashtirishda faqat korxonaning mulkchilik shaklini, uning mehnat bozoridagi o'rnini emas, balki mazkur korxonada ishlayotgan iqtisodiyot sektorining o'zini ham rivojlanish istiqbollari hisobga olishi zarur.

Bandlik xizmati bilan hamkorlikning ijobiy tajribasi mehnat bozorini birgalikda o'rganish va tahlil qilish, korxonalarining ehtiyojlarini taxmin qilish hamda ishsizlarni qayta tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining bazalaridan foydalanishdan iboratdir.

Ta'lim muassasalari bilan bandlik xizmati, mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida mavjud bo'lgan ularning yangi sharoitlarda ta'lim muassasalari ishining sifatiga ishonchining yo'qolishiga, texnologiya va kasb ta'limi tizimining obro'sini tushib ketishiga asoslangan ziddiyatlar texnologiya va kasb ta'limining bundan keyingi taraqqiyoti ko'p jihatdan ularga bog'liq bo'lgan eng asosiy hamkorlar o'rtasida muloqotning yo'qligidan dalolat beradi.

Mehnat bozorining sub'ektlari bo'lgan jamoat tashkilotlariga tadbirkorlarning assotsiatsiyalarini turli korxonalarni va kasaba uyushmalarini birlashtiruvchi birlashmalarini kiritish mumkin. Afsuski, ijtimoiy hamkorlarning ushbu toifasi hozircha ta'lim siyosatini shakllantirishda faollik ko'rsatmayapti. Sheriklarning ushbu toifasi bilan hamkorlikni rivojlantirish jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga, ularning texnologiya va kasb ta'limini tashkil etishdagi mas'uliyatini oshirishga, texnologiya va kasb ta'limiga oid qonunchilik jarayonlariga ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishning ichki omillari jumlasiga to'g'ridan to'g'ri ta'lim muassasasining o'ziga, uning ta'lim xizmatlari bozorida o'zining yangi mavqei anglab etishga va qabul qilishga, eng avvalo, texnologiya va kasb ta'limi rivojining mehnat bozori talablarini qondirishga qaratilgan yangi paradigmasini qabul qilishga, ikki yoqlama va ko'p yoqlama aloqalarni yo'lga qo'yish ijtimoiy hamkorlikning tashkiliy tuzilmalarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishga tayyor ekanligiga bog'liq.

Ta'lim muassasasining ijtimoiy hamkorlar bilan ishining samaradorligi va natija berishi eng avvalo, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat bo'lgan o'z manfaatlarini amalga oshirish darajasi bilan belgilanadi. Bugungi



kunda ta'lim muassasaining asosiy ijtimoiy vazifasi mehnat bozorida talab qilingan bitiruvchilarni tayyorlashdir. Demak, ta'lim muassasaining ijtimoiy hamkorlar bilan olib borayotgan ishining samaradorligini faqat ana shu ish boshlangan vaqtdan keyin muayyan davr o'tgandan so'ng, aniqrog'i o'quv muassasasida shakllangan ijtimoiy hamkorlik tizimi sharoitlarida ta'lim olgan bitiruvchilar mehnat bozoriga chiqib, muayyan muddat ishlaganidan so'ng baholash mumkin. Shu sababli boshlang'ich bosqichda faqat mazkur yo'nalishdagi oraliq natijalar haqida gapirish mumkin.

Ta'lim muassasasining ijtimoiy hamkorlik sohasidagi ishning natijasi va samaradorligining indiktorlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar xizmat qilishi mumkin:

- bitiruvchilarning mehnat bozorida talab qilinishi. Ishga joylashishning aniq ravshan foizlari haqida gapirish ancha qiyin, chunki mehnat bozoridagi vaziyat juda o'zgaruvchan va ko'p omillarga bog'liq. Shunga qaramay, masalan, ta'lim muassasasining yangi sheriklik aloqalari o'rnatish bo'yicha ish boshlangan paytdan boshlab o'tgan davr mobaynida bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha ijtimoiy hamkorlikning mutaxassislar tayyorlash sifatiga ta'siriga qandaydir baholar berish mumkin;

- ta'lim muassasaining ta'lim xizmatlari bozorida talab qilinishi va sh.k.

Ijtimoiy hamkorlik tizimi ishining samaradorligiga mazkur o'quv muassasasi ishlayotgan ta'lim xizmatlari bozori segmentining kengayib borayotganligiga qarab baho berish mumkin. Bu o'rinda so'z tahsil oluvchilar kontingentining ko'payishi, qo'shimcha tarzda turli toifadagi tinglovchilarning-talabalar va tahsil oluvchilardan tortib ishsizlarga va kasb-hunar bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tishga intilayotgan aholigacha jalb etish haqida boradi. Tabiiyki, turli ta'lim dasturlari milliy va mintaqaviy ta'lim muassasasi va bandlik xizmatlari byudjetlaridan tortib to fuqarolarning shaxsiy mablag'larigacha turli moliyalashtirish manbalariga ega bo'lishlari mumkin.

- Har xil turdagi ta'lim xizmatlarini amalga oshirish hisobiga byujetdan tashqari moliyalashtirishning amalga oshirilishi.

Turli toifadagi ijtimoiy hamkorlarning vakillari bilan shartnomalarning mavjudligi ta'lim muassasai ishining samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin. Tabiiyki, shartnomaviy munosabatlar amaliy xususiyatini baholash mumkin bo'lishi uchun bunday ko'rsatkich boshqa indiktorlar bilan bir majmuada qaralishi lozim. Bunday shartnomalarga quyidagi bitmlar kiradi:

- tahsil oluvchilarga amaliy bilim berish;
- o'quv muassasasi xodimlarining ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi;
- bitiruvchilarni ishga joylashtirilishi;
- o'quv-uslubiy va o'quv-tarbiyaviy ishlar sohasida hamkorlik;
- ijtimoiy hamkorlar ishtirokida o'qituvchilar attestatsiyasi;
- uzluksiz ta'lim va hakoza.



Ta'lim muassasasining rejalashtirish va me'yoriy xujjatlarida ijtimoiy hamkorlik bo'yicha tadbirlar mavjud. Agar ta'lim muassasasida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi ishlar hujjatlarda qayd etib qo'yilsa, bu yo'nalishdagi faoliyat ancha tezroq boradi.

Aks holda mehnat bozorini baholash, o'qituvchilar stajirovkasini tashkil etish, ishlab chiqarish korxonalarini vakillarining attestatsiyaning har xil turlarida ishtirok etishi va boshqalar oddiy istaklarga aylanib qolishi yoki izchil xususiyatga ega bo'lmay tarqoq lavhalar tarzida amalga oshirilishi mumkin.

**3. Texnologik va kasb ta'limi natijalarini nazorat qilish metodlari va baholash mezonlari.** "Nazorat" arabcha – biror ishning, narsaning ahvoli, borishi, kishining yurish-turishi va shu kabilar ustidan doimo kuzatish, tekshirish ma'nosini anglatadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda u ta'lim-tarbiya ishi ishtirokchilari orasida teskari aloqani ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyati bo'yicha tashqi va ichki nazorat qilishni ham ta'minlaydi.

Ta'lim-tarbiya ishida teskari aloqa bu jarayonga kerakli vaqtda o'zgartirishlar kiritish, uning mazmuni, metodlari, tashkil etish shakllarini takomillashtirish, tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini boshqarish va unga rahbarlik qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, dasturiy materialni o'rganish ma'no va mohiyatini tushunish, mustahkamlash, qo'llash, ya'ni xatti-harakat usullarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

Nazoratning rejali ravishda amalga oshirilishi o'qituvchiga ma'lum bir paytda tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish, muvaffaqiyatga erishish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga imkon beradi. Tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlari natijasini ob'ektiv tahlil qilish o'qituvchi va ta'lim muassasalari rahbarlariga ta'lim-tarbiya ishlarining holatini aniqlashga va takomillashtirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan mashg'ulotlar va tahsil oluvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishining uyg'un holda olib borilishi har bir tahsil oluvchiga o'zi erishgan yutuqni ko'rib, mohiyatini anglashga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishga imkon beradi.

Nazorat muhim tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchi tomonidan tahsil oluvchilarni har tomonlama o'rganishga, ularning bilim va xatti-harakat usullarini kengaytirish, o'qib-o'rganishga qiziqishlarini oshirish kabi muhim masalalarni nazarda tutadi. Nazorat vaqtida tahsil oluvchi o'qituvchining savollariga javob berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki talay quyidagi vazifalarni bajaradi: guruhdoshlari bergan javoblarini tahlil etadi, ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadi, o'zlashtira olmaganlarini o'rganadi, qo'shimcha ishlar bajaradi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya ishida nazorat muhim tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.



Nazorat ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bajargan ishlariga nisbatan javobgarlikni ham oshiradi. Tahsil oluvchilarni o'z ustida muntazam ravishda ishlash, ijobiy shaxsiy fazilatlarni takomillashtirish, jamoaviy ishlash kabilarga o'rgatadi. Nazoratning barcha funksiyalaridan majmuaviy foydalanishdan maqsad ta'lim-tarbiyaviy ishlarning sifati va samaradorligini oshirishga erishishdir. Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini nazorat qilishga qo'yilgan pedagogik talablar sirasiga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Nazoratning individual xarakterga egaligi, har bir tahsil oluvchi ishini nazorat qilishni ko'zda tutib, boshqa tahsil oluvchi yoki guruh tahsil oluvchilarining umumiy natijasi bilan aralashtirib yubormaslik yoki aksincha;

2. Nazorat o'tkazilishining muntazamliligi, uning tahsil oluvchilarning boshqa o'quv-bilish faoliyati bilan uyg'unligi;

3. Nazoratning turli shakllaridan unumli foydalanib, uning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarini ta'minlash, nazoratni o'tkazishga tahsil oluvchilar qiziqishini oshirish;

4. Nazoratning har tomonlamaligiga erishish;

5. Nazoratning ob'ektiv bo'lishi. O'qituvchining noo'rin, sub'ektiv, xato baholovchi xulosalari va hukmlariga yo'l qo'yimaslik;

6. O'quv predmeti va bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutuvchi tabaqalashtirilgan yondoshuvga amal qilish;

7. Barcha o'qituvchilar talablarining uyg'unligi kabilar.

Yuqorida zikr etilgan talablarga amal qilish nazorat ishonchliligini oshiradi, ta'lim-tarbiya ishidagi o'qituvchi funksiyalarini to'liq va to'g'ri bajarilishiga imkon beradi.

Nazoratning mazmuni, turlari va amalga joriy etish metodlari:

Nazoratning mazmuni, didaktik vazifalari, o'quv predmetlarining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim bosqichi, tahsil oluvchilarning tayyorgarlik va rivojlanganlik darajasi kabi omillarga ko'ra aniqlanadi. Eng muhimi nazoratda tahsil oluvchilar o'qituvchidan yoki boshqa manbalardan o'zlashtirganlarini to'lig'icha qaytarib berishni maqsad qilib olmasligi zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonida majmuaviy nazorat qilish muhim ahamiyatga ega, chunki u dinamik o'zgarish, maxsus xatti-harakat usullari hamda shaxsiy fazilatlarning shakllanishini, onglilik va faollik, o'qib-o'rganishga qiziqishni uyg'otishi, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishi zarur.

Respublikamiz ta'lim muassasalari amaliyotida nazoratning joriy, oraliq (davriy) va yakuniy turlaridan foydalaniladi.

Joriy nazorat - o'qituvchi tomonidan asosan har bir mashg'ulot (dars)da tahsil oluvchining har kunlik ishini nazorat qilish uchun amalga oshiriladi. Bunday nazoratdan oldin o'qituvchi avval o'tilgan materialni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilganligi bilan tanish bo'lishi zarur. Buning uchun tahsil oluvchilarning yozma ishlarini, jurnaldagi qaydlarni o'qituvchi mukammal o'rganishi zarur bo'ladi. Joriy nazorat muntazam ravishda yaxlit guruh va har bir tahsil oluvchining ishini kuzatish yo'li bilan mashg'ulot (dars)ning barcha bosqichlarida, ya'ni yangi materialni o'rganish, mustahkamlash va qo'llash bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin. Bunday ko'rinishdagi nazorat tahsil oluvchilar tomonidan



muntazam ravishda mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan intilishini oshirishga, sinf xonasidagi va uy ishlarini bajarishga, o'qib-o'rganishga qiziqishni oshirish, bajarilgan ishga nisbatan javobgarlik his-tuyg'ularini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega.

Oraliq nazorat - odatda ma'lum mantiqiy tugallangan bo'lim, bob yoki o'quv yarim yilligi va yilning tugatilishi bilan o'tkaziladi. Bunday nazorat orqali nisbatan katta hajmdagi o'quv materialini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-bilish faoliyatining natijalari tekshiriladi.

Yakuniy nazorat - o'quv yilining oxirida, shuningdek, o'quv kursi o'rganilib bo'lingandan so'ng joriy va oraliq nazorat natijalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Nazorat metodlari – bu ma'lum usullar yordamida tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini aniqlash yo'llari majmuasidir.

Asosiy nazorat metodlaridan biri o'qituvchi tomonidan rejali ravishda tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini kuzatishdir. Bunday kuzatish natijalari tahsil oluvchining o'z burchiga munosabatini, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini, bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlashga, tahsil oluvchilarga individual yondoshishga, bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishga imkon beradi. Bunday kuzatish natijalarini xotirada saqlab qolish qiyin bo'lganligi sababli o'qituvchilar maxsus bitiklar yuritadilar va natijada tahsil oluvchilarning rivojlanish dinamikasini ob'ektiv ravishda aniqlaydilar.

Amaliyotda kuzatish bilan birga og'zaki va amaliy nazorat metodlari keng ko'lamda qo'llaniladi. Shuningdek, sinov hamda imtihon ko'rinishlari ham mavjud.

Og'zaki nazorat qilish metodlariga: tahsil oluvchilarni so'rash, texnologik xaritalar, chizmalar (texnik yoki texnologik) hujjatlarni o'qish kabilarni kiritish mumkin. Beriladigan og'zaki savollarni shakllantirishda tahsil oluvchining javobi tahlil, sintez, isbotlash, qiyoslash va solishtirish, induksiya, deduksiya va traduksiya kabi mantiqiy fikrlash yo'llari haqida tugallangan natijani ko'rsatishi zarur.

Yozma nazorat metodlari: o'zining vaqtini iqtisod qilishi bilan ahamiyatlidir. Bunda tahsil oluvchilarning mustaqillik darajasi yuqori bo'lib, bir yo'la butun guruhning tayyorgarlik darajasini aniqlashga erishiladi..

Kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishning asosiy omillaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hisoblanadi. Ana shu maqsadda ta'lim muassasasi (kafedra, fakultet) maxsus ijodiy guruh "Tahsil oluvchilar bilim, ko'nikma va malakasini baholash mezonlari" ishlab chiqilishi va uni o'rnatilgan tartibda tasdiqlash hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday talablarning qo'llanishi tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga yagona talablarni ta'minlaydi, imkon qadar yuqori va ilmiy saviyada mutaxassislikka oid o'quv predmetlari (fan) va ishlab chiqarish ta'limini o'rganishga ta'sir ko'rsatadi, bu jarayon ishtirokchilarida javobgarlik his-tuyg'ularini uyg'otadi, mehnat natijasini baholashda rasmiyatchilikni bartaraf



etadi. Bu me'yorlar tavsiya xarakteriga ega bo'lib, ulardan foydalanishda har bir tahsil oluvchining individual o'ziga xos xususiyatlari, o'quv vazifalari, o'quv-ishlab chiqarish ishlarining mazmuni hamda xarakteri, nazorat qilish bosqichlarini hisobga olish zarur.

Bu vazifalar echimini topishning asosiy yo'llaridan biri tahsil oluvchilar bilim ko'nikma va malakalarini baholashda ob'ektivlikni oshirish; baholarni aniq ilmiy asosda qo'yish hisoblanadi.

Ana shunday mezonlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

